

H. Sanakulov, M. Jumayev

**UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABLARIDA BOSHLANG'ICH
TA'LIM FANLARINI O'QITISH
TEXNOLOGIYASI**

H. Sanakulov, M. Jumayev

**UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABLARIDA BOSHLANG'ICH
TA'LIM FANLARINI O'QITISH
TEXNOLOGIYASI
METODIK QO'LLANMA**

**Toshkent
"METODIST NASHRIYOTI"
2023**

UDK:372.41

KBK:74.2

U52

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish texnologiyasi. / Tuzuvchilar: H.R.Sanakulov, M.Jumayev/ Metodik qo'llanma. - Toshkent: "METHODIST NASHRIYOTI", 2023.- 252 b.

Ushbu metodik qo'llanma boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishni ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishga bag'ishlangan bo'lib, undan ona tili, o'qish, matematika, mehnat fanlaridan zamonaviy usuldagi dars hamda boshlang'ich ta'lim jarayoniga mos tarbiyaviy tadbirlar ishlanmalari o'rin olgan.

Ushbu metodik qo'llanma darsning texnologik xaritasidan namunalar, iqtidorli o'quvchilarni tanlash va ular bilan ishlash uchun murakkab topshiriqlar, mustaqil ishlar, test toshiriqlari to'plamidan iborat.

Qo'llanma o'qituvchilarning ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish ehtiyojlarini qondirish maqsadida tavsiya etiladi. U kelajakning egasi bo'lgan yoshlarni yuksak, erkin va pok insonlar bo'lib yetishtirishda o'qituvchilarga yordam bo'ladi, deb umid qilamiz.

Taqrizchilar:

M. Musayeva - TVPKQTMOI dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

N. Qaytarova - Toshkent shahridagi 135-maktab o'qituvchisi

ISBN 978-9943-5825-8-3

© Sanakulov H., Jumayev M., 2023.

© "METHODIST NASHRIYOTI" 2023.

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| I BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIK YONDASHUVNI TATBIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI..... | 4 |
| 1.1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish jarayonini texnologiyalashtirishning o'ziga xosliklari..... | 5 |
| 1.2. Umumta'lim maktablarida o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish qoidalari..... | 13 |
| II BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH METODIKASI..... | 18 |
| 2.1. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish yo'llari..... | 18 |
| 2.2. Boshlang'ich sinf darslarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va o'tkazishga doir dars ishlanmalari..... | 30 |
| O'QISH DARSLARINI ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH VA O'TKAZISHGA DOIR DARS ISHLANMALAR..... | 85 |
| MATEMATIKA DARSLARINI ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'TKAZISHGA DOIR DARS ISHLANMALARI..... | 152 |
| METODIK KO'RSATMALAR..... | 201 |
| TEXNOLOGIYA FANI DARSLARINI ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH VA O'TKAZISHGA DOIR DARS ISHLANMALAR..... | 215 |
| XULOSA..... | 247 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI..... | 248 |

I BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIK YONDASHUVNI TATBIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish jarayonini texnologiyalashtirishning o'ziga xosliklari

Zamonaviy sharoitda yaxlit pedagogik jarayon, uning alohida tarkibiy qismlari, pedagogik faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liqlikda "metodika" va "texnologiya" tushunchalari ko'p qo'llanadi. Mazkur tushunchalar mohiyatini tavsiflashda ham xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, pedagogik sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar o'rtasida ham ko'pgina tortishuv, bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Pedagogik adabiyotni tahlil qilish, ma'lumotlarni umumlashtirish orqali mazkur tushunchalarning aniq ta'rifini shakllantirish mumkin.

Umumiy ma'noda "metodika" tushunchasi ma'lum bir ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan metod va usullar yig'indisidir. Ko'pgina izohli lug'atlarda ham "Metodika - qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo'lib, biror-bir ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi"ni ifoda etishi ko'rsatib o'tilgan¹.

"Metodika" tushunchasiga berilgan xilma-xil ta'riflarga tayangan holda quyidagi umumlashmalarga kelish mumkin:

1) metodika - bu o'qituvchi ishini tashkil etishning shakl, metod va vositalari;

2) ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan metod va usullar yig'indisi;

3) bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonini maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish, rejali va tizimli amalga oshirishga yordam beruvchi usullar yig'indisi.

"Metodika" tushunchasi turli fanlarni o'qitish bilan ham bog'liqlikda qo'llanib, ma'lum sohani o'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi. Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, o'quv fanlarini o'qitish metodikasi metodika ma'lum bir

¹ Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. - T.: Fan va texnologiya, 2009. - B.311.

pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog'liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir². G.M.Kodjaspirova, A.Y.Kodjaspirovning fikricha, o'qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir³.

O'qitish metodikasiga qo'yiladigan zaruriy talablarga quyidagilar kiradi:

- 1) hayot bilan uyg'unlik;
- 2) qayta ishlab chiqishga yo'nalganlik;
- 3) aniqlik;
- 4) rejalashtirilgan harakat maqsad va vazifalariga moslik;
- 5) asoslanganlik;
- 6) natijaviylik.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, o'qitish metodikasi o'zida:

- ta'limning maqsad va ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy vazifalari;
- ta'limning qonuniyat va tamoyillari;
- ta'lim mazmuni;
- ta'limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarin;
- ta'limning umumiy va xususiy metodlari;
- o'quv vositalari;
- o'qitish natijasini aks ettiradi.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda quyida o'qitish metodikasi mohiyatini yoritib beruvchi asosiy tushunchalarga izoh berib o'tamiz:

1) *o'rgatish* – o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;

2) *o'rganish* – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi;

3) *o'qitish* – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati;

² Столяренко А.М. Психология и педагогика. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. – С.368.

³ Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Словарь по педагогике. – М.: ИКС «МарТ», 2005. – С.174.

4) *ta'lim* – o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;

5) *bilim* – ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;

6) *ko'nikma* – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash;

7) *malaka* – avtomatlashgan, biror-bir uchul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi;

8) *maqsad* – o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi;

9) *mazmun* – o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi;

10) *tashkil etish* – qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon;

11) *shakl* – o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantiqi, mazmuni uchun qobiq;

12) *metod* – o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li;

13) *vosita* – o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyekt;

14) *natija* – o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Ilm-fan va ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi jamiyatni iqtisodiy taraqqiy ettirish bilan bir qatorda ijtimoiy munosabatlar mazmunida ham tub o'zgarishlarning ro'y berishiga zamin yaratmoqda. Shuningdek, ijtimoiy, jumladan, ta'lim sohasida ham texnologik yondashuvni tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

“Texnologiya” yunoncha so'z bo'lib, “techne” – mahorat, san'at va “logos” – tushuncha, ta'limot, fan ma'nosini anglatadi. “Ta'lim texnologiyasi” (inglizcha “An educational technology”) iborasining ma'nosi ta'lim jarayonini yuksak mahorat bilan san'at darajasida tashkil etish to'g'risida ma'lumot beruvchi fan, ta'limot

demakdir. Ayni vaqtda mazkur tushunchaning ta'rifi hamda uning mohiyati borasida yagona g'oya mavjud emas. Bu nazariya mohiyatining yoritilishiga nisbatan turli yondashuvlar kuzatiladi.

Pedagogik texnologiya – bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir (*YUNESKO*).

Pedagogik texnologiya pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishning tizimli yig'indisi va tartibini bildiradi (*M.V.Klarin*).

Pedagogik texnologiya o'zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta'riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi (*G.K. Selevko*).

Pedagogik texnologiya psixologik va pedagogik o'g'itlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi (*B.T.Lixachev*).

Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi (*V.P.Bespalko*).

Pedagogik texnologiya – rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi" (*I.P. Volkov*).

Texnologiya – ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi (*V.M.Shepel*).

Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon barqarorligini oshirib, bu jarayon ishtirokchisining sybyektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi (*V.M.Manaxov*).

Pedagogik texnologiya tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llanadigan usul va metodlar majmuidir (*M.O.Ochilov*).

Pedagogik texnologiya bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayoni (*N.Saidaxmedov*).

Pedagogik texnologiya bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir (*O'Q.Tolipov*).

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, pedagogik texnologiyaning ahamiyati avval o'zlashtirilgan nazariy bilimlar bilan yangi o'zlashtiriladigan bilimlar orasida mustahkam bog'lanishlarning yuzaga kelishi bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- *teng qiymatli (ekivalent) amaliyot qoidasi*: ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonidagi xatti-harakatlari test o'tkazish yoki imtihon davrida ta'lim oluvchi tomonidan tashkil etilishi kutiladigan xatti-harakatlarga to'la mos keladi;

- *o'xshash amaliyot qoidasi*: ta'lim oluvchilar sodir etilishi kutilayotgan xatti-harakatlarini tashkil etish majburiyatiga ega bo'lmay, balki mohiyatan shunday bo'lgan sharoitlarda mashq qilish imkoniga ega bo'ladilar;

- *natijalarni aniqlash qoidasi*: ta'lim oluvchiga uning har bir xatti-harakatining mazmynini baholash natijalari bo'yicha ma'lumot berish, mazkur shartga aksariyat hollarda joriy nazoratni tashkil qilish jarayonida rioya etiladi;

- *rag'batlantirish qoidasi*: o'quvchining maqbul xatti-harakatlarini rag'batlantirib borish, pedagogik faoliyat jarayonida o'quvchi tomonidan sodir etilgan salbiy xatti-harakatlar uchun unga tanbeh berilmaydi, balki ularni bartaraf etish istagini yuzaga keltiruvchi amaliy ko'rsatma beriladi. Masalan, "yana bir marta urinib ko'r", "yanada chuqurroq o'ylab ko'r", "masalani hal etishning yanada osonroq yo'li bor, uni topishga urinib ko'r" va h.k.

Ta'lim amaliyotida "pedagogik texnologiya" tushunchasi uch darajada qo'llanadi:

Umumpedagogik (makro) daraja. Mazkur darajaga muvofiq keladigan texnologiyalar yaxlit pedagogik jarayonga tegishli bo'lib, ta'lim tizimining barcha turlarida qo'llash imkonini beradi.

Xususiy-metodik (mezo) daraja. Ushbu daraja o'zida ma'lum bir o'quv fani, alohida ta'lim oluvchilar guruhi, ma'lum ixtisoslikka mansub pedagoglarga yo'nalganlikni aks ettiradi.

Lokal daraja (mikro). Mazkur darajaga tegishli texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayonining alohida tarkibiy qismi, alohida shaxs sifatlarini shakllantirish, maxsus o'quv ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

“Metodika” va “texnologiya” tushunchalari tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, mazkur tushunchalar o'zaro aloqadorlik va umumiylikka ega bo'lishi bilan birga ayrim o'ziga xosliklar bilan ham tavsiflanadi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda ta'lim-tarbiyaga texnologik yondashuvning keng tatbiq etilishi pedagogikaning alohida sohasi hisoblangan “metodika” bilan “texnologiya” tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirib olishga alohida ehtiyoj sezilmoqda. Chunki aksariyat hollarda mazkur tushunchalarning mohiyatini aniq farqlay olmaslik natijasida ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish, yoxud ularning o'rnini almashtirgan holda qo'llanishi ko'zga tashlanmoqda.

Albatta, “metodika” va “texnologiya” tushunchalari mohiyatini tushuntirishda aniq chegara qo'yish biroz murakkab masala. Biroq ularning o'ziga xosliklarini tahlil etish ayrim farqli jihatlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

Metodika – bu xususiy didaktika, ya'ni biror-bir fanni o'qitish nazariyasi. O'zaro ta'sir etishning turli shakllarini o'rganish asosida biror fanni o'qitish va o'rganish yo'llarini o'quv fani metodikasi ishlab chiqadi va ta'lim oluvchilarga ta'sir etishning aniq tizimini o'qituvchilarga taklif etadi. Bu tizimlar DTS, o'quv dasturi va darsliklarda ochib beriluvchi ta'lim mazmunida o'z aksini topadi hamda ta'lim metodlari, shakllari va vositalari orqali amalga oshadi. O'quv fani metodikasi didaktika bilan mustahkam bog'langan va uning umumiy qoidalariga tayanadi. Tarbiya tamoyillariga asoslanib esa, metodika o'quv fani maqsadi, uning ta'lim oluvchi shaxsini rivojlanishidagi ahamiyatini ochib beradi.

Didaktika turli ta'lim muassalarida xilma-xil o'quv fanlarini amalga oshiriladigan o'quv jarayonining umumiy qonuniyatlarini aks ettiradi. Tabiiyki, har bir o'quv fani o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlariga ega, o'zining alohida metodlari va ta'limni tashkil etish shakllarini talab etadi. Mazkur masalalar bilan xususiy metodika yoki alohida o'quv fanlarini (tarix, matematika, pedagogika, psixologiya va boshqalar) o'qitish metodikasi shug'ullanadi.

Ta'limni texnologiyalashtirish – bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir. Ta'limga texnologik yondashish – bu ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi va o'quvchi maqsadlarining kesishgan nuqtalarida (o'qitish maqsadi, o'qish maqsadi) ta'limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta'limni loyihalash va amalga oshirish yo'llari bilan mo'ljaldagi etalonga erishishdir. Umuman, ta'lim texnologiyasi haqida gap ketganda o'zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug'iladi: ta'limni didaktik loyihalash; loyihani amalga oshirish; ta'limning joriy va oraliq natijasiga ko'ra didaktik loyihaga tuzatish va o'zgartishlar kiritish; ta'limni takrorlash va yakuniy nazorat. Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an'anaviy ta'lim tajribasida ham uchraydi. Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon darajasida bo'lishi doimo o'qituvchi hamda o'quvchining diqqat markazida turadi. O'qituvchi ta'lim natijasini tez-tez tekshirib, o'quvchilarni o'zlari erishgan yutuqlardan xabardor qilib turadi va o'quvchilar o'zi erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko'paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. O'quvchilar ta'limning zaruriyligini ular ta'lim jarayonining haqiqiy subyektiga aylangan paytidagina his qiladi.

So'nggi vaqtlarda "texnologiya" tushunchasini metodikadan ustun qo'yishga urinishlar yuzaga kelmoqda. Aslida "metodika" tushunchasi texnologiyadan yuqori turadi. Chunki metodika – bu

metatexnologiya. Agar mazkur tushunchani o'quv jarayoniga tatbiq etadigan bo'lsak, o'quv jarayoni, maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakl, metod va vositalarini belgilashga doir umumiy talablar mavjud. Har bir o'quv mashg'ulotini amalga oshirish ma'lum belgilangan algoritmik ketma-ketlikka asoslanadi. Metodika ana shu algoritmik ketma-ketlikning umumiy va xususiy qoidalariga asoslanishni talab etadi. O'qituvchi o'quv maqsadi bilan bog'liqlikda mashg'ulotni o'tkazish texnologiyasini erkin tanlashi mumkin. Aniqroq aytganda, har bir mashg'ulotda kutiladigan natijaga mos holda o'quv bosqichlarini alohida-alohida loyihalash, har bir bosqichda qo'llanadigan shakl, metod va vositalarni tanlab olish imkoniyati yuzaga keladi.

Ayrim hollarda "metodika" va "texnologiya" tushunchasini farqlashda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini asos qilib ko'rsatishga harakat qilinadi. Ya'ni metodikada o'qituvchining dars jarayonidagi faoliyati yoritib berilsa, texnologiyada o'quvchilarning o'quv harakatlari oydinlashtiriladi, degan mulohaza bayon qilinadi. Biroq bunday yondashuvni ma'qullab bo'lmaydi. Metodika ham, texnologiya ham o'qituvchi-o'quvchi faoliyatini yaxlitlikda tashxis qiladi. Texnologiya metodikadan farqli ravishda har bir bosqichda o'qituvchi-o'quvchi faoliyati mazmunini alohida-alohida oydinlashtiradi. Har bir bosqichda erishilgan natijalarni tashxis etib, o'z vaqtida korreksiyalash imkonini beradi. Ana shu jihat ta'limga texnologik yondashuvning eng asosiy xarakterli tomonidir.

"Metodika" va "texnologiya" tushunchalarining bahs doirasi bilan bog'liq ayrim farqli jihatlarni ham ajratib ko'rsatish mumkin. Metodik tizim "Qanday o'qitish?", "Nima uchun o'qitish?", "Nimaga o'rgatish?" kabi savollarga javob izlaydi, texnologiya esa, "Qay tarzda samarali o'qitishga erishish mumkin?" degan savollar qo'yadi. Metodika o'quv jarayonini qay tarzda tashkil etish lozimligini nazarda tutsa, texnologiya qay yo'sinda o'quv jarayonini eng qulay, maqbul tarzda amalga oshirishga e'tibor qaratadi.

Real ta'lim amaliyotida e'tibor qaratish lozim bo'lgan yana bir muhim masala "metod" va "texnologiya" tushunchalarining bir xil mazmunda qo'llanayotganidir. Bu borada faqat amaliyotchi-

pedagoglarni ayblash ham noo'rin. Sababi pedagogik texnologiyaga doir adabiyotlarda "metod" o'rniga "texnologiya" so'zini ishlatilish hollari ko'p uchraydi. Metod – maqsadga erishish yo'li sifatida yaxlit ta'lim jarayonining alohida elementi hisoblanadi. Agar interfaol metodlarni "texnologiya" so'zi bilan ifoda etayotgan mutaxassislar ularni qo'llash bosqichma-bosqich amalga oshirilishini nazarda tutib, shunday yondashuvga asoslanayotgan bo'lsalar bunday nazariy-metodologik asos didaktik nuqtai nazardan mutlaqo xato.

Chunki texnologik jarayon ikkita: loyihalash va rejalashtirish bosqichidan tashkil topadi. Ta'lim loyihasi ma'lumot mazmunini davlat standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Tahlil ma'lumot mazmuni elementlari (bilim, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi. Keyin ta'lim mazmuni o'rganiladi, u yoki bu mavzuni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad, ta'limning didaktik maqsadi, o'qituvchi va o'quvchilar maqsadi, maqsadlari amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy ishlari miqdori, mavzular bo'yicha o'tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o'zlashtirish shakl, metod va vositalari oldindan belgilab qo'yiladi. Bu ishlarning barchasi ta'lim modelini yaratishga olib keladi. Rejalashtirish mashg'ulot bosqichlarini loyihalash, har bir bosqichda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini oydinlashtirish, qadamlar ketma-ketligini aniqlashtirishni talab etadi. Natijada, mashg'ulotning texnologik xaritasi yaratiladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, ta'lim texnologiyasi o'qitish metodikasi asosida qurilib, uning qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalariga asoslangan holda, kutiladigan natijalarga asoslangan holda o'qitish jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, loyihaga muvofiq o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini aniq belgilangan ketma-ketlikda amalga oshirishning samarali texnikasidir.

Pedagogik texnologiya doirasida yuzaga kelgan atamalarni to'g'ri qo'llash maqsadida quyida ularning aniq ta'rifini keltiriamiz:

Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmuni.

O'qitish texnologiyasi – o'quv mashg'ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bosqichda qo'llanadigan shakl, metod va vositalarini oqilona tanlab olish, o'qituvchi va o'quvchining vazifalarini oydinlashtirish qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

Tarbiya texnologiyasi – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.


Identiv o'quv maqsadi – texnologik jarayonning asosiy komponenti, kutiladigan natijaga aynan mos keladigan o'quv maqsadi.

Interfaol metod – o'quv jarayonining tarkibiy qismi, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi, ham o'quvchini faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmui.

Grafik organayzerlar – o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui. Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi tayyor (to'ldirilgan) holda qo'llasa, vosita; o'quvchilarning mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi.

1.2. Umumta'lim maktablarida o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish qoidalari

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, biror-bir fanni o'qitish texnologiyasi deganda, mazkur fan bo'yicha o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari, ya'ni har bir darsni loyihalash va rejalashtirish tushuniladi. Loyihalash deganda, texnologik model, rejalashtirish deganda texnologik xarita tushuniladi.



1-rasm. O'quv jarayonini texnologiyalashtirish bosqichlari

O'quv mashg'ulotini loyihalash mashg'ulot mavzusi va rejasidan kelib chiqqan holda mashg'ulotning maqsad va vazifalari hamda kutiladigan natijalarni aniqlashtirishdan boshlanadi. Savol tug'iladi: o'quv maqsadini vazifalarga aylantirish zarurati nimada? Avvallari ham o'quv mashg'ulotining maqsadi belgilangan-ku?! Quyida mazkur masalaning mohiyatini aniqlashtiramiz.

Jamiyatning ta'lim sohasidagi buyurtmasi (maqsadi) umumiy tarzda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan. Hatto, o'quv dasturlarida ko'rsatilgan maqsadlar ham umumiy tarzda bir-ikkita jumladan iborat bo'ladi, ulardan aniq bir narsani anglash qiyin. Agar **jamiyat – davlat buyurtmasidan – ta'lim tizimining maqsad va vazifalariga, undan shu o'quv yurtining, o'quv predmetining, uning bo'limlari, mavzulari, ayrim o'quv masalalarining maqsadi, vazifasiga** qarab borilsa, o'ziga xos **maqsadlar tizimi** (shajarasi) hosil bo'ladi.

Hozirgi vaqtgacha o'quv maqsadini belgilashning bir nechta usullari keng ommalashgan:

1. Maqsadni ta'lim mazmuniga binoan belgilash. O'qituvchi, odatda, mashg'ulot maqsadini "Birinchi bobning mazmunini o'zlashtirish", "Bobur lirikasini o'rganish" kabi belgilaydi. Bunda ta'lim maqsadi o'rganilayotgan predmetning,

bilimning mazmunini ko'rsatadi. Maqsad bunday ifodalanganda ta'lim maqsadiga erishilganligini aniqlab bo'lmaydi. Keltirilgan misollardagi "maqsadlar" mavhum, ulardan maqsadga erishilganligini o'lchab, aniqlab bo'lmaydi.

2. Ta'lim maqsadini o'qituvchi faoliyati orqali aniqlash. "Boburning badiiy-pedagogik merosini o'rgatish", "10 ichida qo'shish amaliga doir misollar ishlatish". Maqsadni bunday qo'yishda e'tibor o'qituvchining faoliyatiga qaratiladi. Bunda ham pedagog faoliyatining natijasini aniqlash qiyin.

3. Ta'lim maqsadini o'quvchi shaxsining ruhiy, aqliy, axloqiy, estetik jarayonlari shaklida ifodalash. Masalan, "Voqelikni tahlil etish malakasini hosil qilish", "Ekologik hodisalarga qiziqishni shakllantirish" kabilar. Ta'lim maqsadini bunday umumiy tarzda belgilash o'quv yurti, o'quv fani yoki bir guruh o'quv predmetlari darajasida bo'lishi mumkin. Lekin ayrim mashg'ulot, darsning maqsadini bunday keng ifodalash foydasiz. Bunda ham mashg'ulotda qanday natijaga erishilganligini bilib bo'lmaydi.

4. Ta'lim maqsadini o'quvchining o'quv-bilish faoliyati orqali qo'yish. Mashg'ulotning maqsadi "Ijodiy tafakkurni shakllantirishga doir vazifalarni hal etish". Bir qarashda ta'lim maqsadini bunday qo'yish mashg'ulotni rejalashtirish va o'tkazishga aniqlik kiritganga o'xshaydi. Lekin bunda ham eng muhim narsa – mashg'ulotda ko'zda tutilgan natija e'tibordan chetda qoladi.

Pedagogik texnologiya tarafdorlarining fikricha, ta'lim maqsadlarini predmetning mazmuni, o'qituvchi yoki o'quvchi faoliyati orqali belgilash **mashg'ulotdan kutiladigan natija haqida to'liq tasavvur bermaydi. Ta'lim natijasini o'quvchining ko'zga ko'rinadigan harakatlaridan, tashqi belgilaridan bilib olish mumkin.** O'qituvchi ta'lim maqsadi – natijasini oydinlashtirish uchun kutilayotgan natijaning tashqi, kuzatiladigan belgilarini (harakat, nutq) yaqqol tasvirlashi lozim.

Pedagogik texnologiya taklif etayotgan **maqsadni belgilash usulining mohiyati shundan iboratki, ta'lim maqsadi, o'quvchining harakatlarida aks etgan o'qish-o'qitish natijalari orqali ifodalanishi kerak va bu harakatlarni**

muallim yoki biror ekspert ko'rib, eshitib bilishi va o'lchashi mumkin bo'lsin.

Demak, o'qitish jarayonini loyihalashda o'quv maqsadlarini o'quv vazifalariga aylantirish kerak. O'quv maqsadini bunday belgilash "identiv (aynan o'xshash, mos) o'quv maqsadi deb ataladi. Mazkur harakatni amalga oshirishda keng ommalashgan B.Blum taksonomiyasidan foydalaniladi (1-chizma).

1-chizma

B.Blum taksonomiyasi bo'yicha o'quv maqsadlari toifalariga mos keluvchi fe'llar namunalari

| T.r | O'quv maqsadlari | Fe'llar | |
|------------|-------------------------|---|--|
| 1 | Bilish | qaytarib aytish, qayd qilish, xabar berish, nomlash, atash yozish | ifodalash, farqlash, tanib olish, aytib berish, takrorlash |
| 2 | Tushunish | dalillar keltirish, almashtirish, aniqlash, belgilash, tushuntirish | o'tkazish, aylantirish, o'zgartirib berish, surat bilan ko'rsatish, izoh berish, ochib tashlash. |
| 3 | Qo'llash | tatbiq etish, hisoblab chiqarish, namoyish etish, foydalanish, o'rganish | aniqlash, bajarish, hisoblash, amalga oshirish, yechish |
| 4 | Analiz | keltirib chiqarish, ajratib ko'rsatish, differentsiyalash, tasniflash, taklif etish | oldindan aytish, qismlarga ajratish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash |
| 5 | Sintez | kashf etish, umumiyashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish | tizimga solish, qo'shish, ulash, tuzish, loyihalash |
| 6 | Baholash | diagnostikalash, isbotlash, asoslash, o'lchash, ma'qullash | baholash, tekshirish nazorat qilish, taqqoslash, solishtirish, qiyoslash |

1-chizmada ko'rsatilgan o'quv maqsadlari toifalari o'quv materialining o'zlashtirilishi darajasini belgilaydi. Masalan: ba'zi tayanch tushunchalarni (usul, tamoyil, ko'rsatkich, koeffitsiyent, atama, ta'rif, qonun, teorema) o'quvchi bilish (materialni esda tutish), boshqalarini qo'llash (o'quv materialini muayyan vaziyatda qo'llash malakasi), uchinchilarini baholash (o'quv materiali ahamiyatini muayyan maqsadlar uchun baholash, xulosalash malakasi) darajasida o'zlashtirishi kifoya.

2-BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH METODIKASI

2.1. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish yo'llari

Ta'limda interfaol metod – bu o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ta'limni o'zlashtirish munosabatlarini kuchaytirishi, faollashtirish demakdir. Bugun fan, texnika va san'at jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hamda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, ijtimoiy holat o'zgarayotgan davrda maktablarda ta'limni, xususan, boshlang'ich ta'limni mazmun jihatidan yangicha o'qitish zarurat va zamon talabidir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining texnologik tayyorgarligi boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiya elementlaridan samarali foydalanishni talab qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar quyidagilar:

- muammoli o'qitish texnologiyasi;
- o'yinli texnologiyalar;
- tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan texnologiyalar;
- hamkorlikda o'qitish texnologiyalari;
- modulli texnologiyalar;
- o'qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi;
- o'qitishning jadallashtirish texnologiyasi;
- dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasi va bir qancha texnologiyalardir.

Bu texnologiyalarni alohida ko'rib chiqamiz:

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarni faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. O'yin mehnat va o'qish kabi asosiy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. O'yinli faoliyat muayyan vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;

- davolovchilik;
- kommunikativlik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

O‘yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakter «ijod maydoni»ga ega bo‘ladi. Tatqiqotchilar o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qaraydilar. O‘yinlar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, ta‘lim faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadida qo‘llanadi.

O‘yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka, ko‘nikmalarni qo‘llash, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratiladi.

O‘yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, ma‘naviy, estetik fazilatlar va dunyoqarashni shakllantirishda hamkorlikni, jamoaga kirib keta olishni, birdamlikni tarbiyalashga qaratiladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi maqsad diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, solishtirish, o‘xshashni topish, xayol, ijodiy qobiliyat, o‘quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

Pedagogik o‘yinlar asosida o‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga yo‘naltiruvchi o‘yinli usullarni vujudga keltirish yotadi.

Quyida ana shunday interfaol usullarini o‘zida mujassamlashtirilgan o‘yinlarni qanday qilib rejalashtirish mumkinligi haqida tavsiyalar berib o‘tamiz.

«Maqollarda antonimlar»

Ma‘lumki, o‘zbek xalq maqollarida antonimlar ko‘proq uchraydi. Shu bois bu shartda o‘quvchilar navbatma-navbat antonimlar ishtirok etgan maqollaridan aytadilar. Masalan, «yaxshiga yondash, yomondan qoch», «do‘st achitib gapirar, dushman kuldirib», «kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda» va h.k.

«Zinapoya» usuli

O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. So'ng xattaxtaga «zinapoya» chiziladi.

Ma'lumki, antonimlar o'z juftliklariga ega. Shundan kelib chiqib, ushbu juftlikning bittasi «zinapoya»ga yozib qo'yiladi, ikkinchisini esa guruhlardagi o'quvchilarning o'zlari topadi, ular zinalardan bosh zinaga chiqib borishadi. Bunda o'quvchilarda tezkorlik talab etiladi. Chunki qaysi guruh o'quvchilari birinchi bo'lib bosh zinaga chiqsa, ular g'olib bo'ladi. Sinfda nechta o'quvchi bo'lsa, zinalar soni shuncha bo'ladi.

TANQIDIY FIKRLASHNI O'STIRISHGA XIZMAT QILADIGAN TEXNOLOGIYA

Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan texnologiyalar o'z metodlariga ega. Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan metodlar «Demokratik ta'lim uchun» konsorsiumi tomonidan amalga oshiriladigan «Tanqidiy fikrlash uchun o'qish va yozish» loyihasi doirasida ishlab chiqilgan.

Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiluvchi metodlar quyidagi muhim vazifalarni yechish imkoniyatini beradi:

1. O'quvchilar maqsadlarini anglab olishga yordam beradi.
2. Dars samaradorligini ta'minlaydi.
3. Munozaraga chorlaydi.
4. O'quvchilarga o'z shaxsiy bilimlarini iroda qilishga yordam beradi.
5. O'quvchilarning o'zlari savollar tuzishiga ko'maklashadi.
6. O'quvchilarning mustaqil fikrlashiga sharoit yaratiladi.
7. Har qanday fikrlarga bo'lgan hurmat kayfiyatini yaratadi.

Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiluvchi metodlarga quyidagi usullar kiritiladi:

«Klaster» usuli

Bu usulda biror mavzu yoki matn tanlanib, o'quvchining diqqati aynan shu mavzuga qaratish yuzasidan markazga yoziladi.

O'quvchilar mavzuga oid barcha fikrlarini markazning atrofiga joylashtiradilar (yozadilar). Fikrlar bayon etilgandan so'ng har bir fikr yoki so'zni toifalarga ajratib chiqadilar.

MUAMMOLI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Respublikamizda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi muammoli ta'limni hozirgi sharoitda dolzarb pedagogik masalaga aylantirdi. Muammoli ta'limning asoaiy maqsadi «Kadrlar tayoyrlash milliy dasturi»ning sifat bosqichi talablari asosida bilim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir. Muayyan mavzuni muammo shaklida olib chiqish yo'li bilan egallanadigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisiga *muammoli ta'lim* deyiladi.

Muammoli ta'lim o'zining maxsus tushunchalariga ega bo'lib, ularning mohiyatini bilmasdan turib, mashg'ulotlarni muammoli tarzda tashkil etib bo'lmaydi. Muammoli ta'lim quyidagi asosiy tushunchalarga ega:

- muammo;
- muammoli savol;
- muammoli vazifa;
- muammoli topshiriq;
- muammoli vaziyat.

Muammoli ta'limning dastlabki tushunchasi muammo hisoblanadi. Muammo (yunoncha «problem») vazifa, topshiriq degan ma'noni anglatadi. Tayyor javobi bo'lmagan, o'rganish, tadqiq etishni talab qiladigan nazariy yoki amaliy masala muammo hisoblanadi.

Inson hayoti va faoliyati jarayonida cheksiz muammolarga duch keladi: shaxsiy muammolar, ijtimoiy muammolar, ta'lim-tarbiya muammolari va boshqalar. Bularning har biri o'ziga xos yechim yo'llariga ega. Ta'limiy muammolar bilim oluvchidan aqliy operatsiyalarni bajarishni talab etadi.

Muammoli ta'limning keyingi asosiy muammoli savol sanaladi. Muammoli savol fikr qilish yo'li bilan izlangan

noma'lumni topishni ta'minlaydigan so'roq bo'lib, alohida holda muammoli vaziyat va vazifalarning tarkibida bo'lishi mumkin. Muammoli savolga fikr yuritish orqali javob topiladi. "Nima uchun, nima sababdan, buni qanday izohlab berasiz, bundan qanday xulosa chiqarish mumkin?" kabi so'roqlar muammoli savol paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Masalan, Avloniyning «Vatanni suymak» haqidagi qarashlari 3-sinf darsligiga biroz qisqartirilgan holda taqdim etilgan va bu asar quyidagi muammoli savollarni berish mumkin: Cho'lda, muzliklarda yashaydigan qanday xalqlarni bilasiz? Ular nima uchun obod, quyoshli, bog'-rog'lari bor yurtlarga ko'chib ketishni xohlamaydi? O'ylab ko'rib, fikringizni bildiring.

Bir nechta yechimini kutayotgan muammoli savolning bir-biriga bog'liq holda qo'yilishi muammoli vazifani keltirib chiqaradi.

Muammoli vazifa sharti aniq bo'lgan, kimdir tomonidan hosil qilingan, javobini topish doirasi cheklangan didaktik tushunchadir. Masalan, 3-sinf o'qish darsligining 206-sahifasida «Ochko'zlik» nomli hikoya o'rganish uchun taqdim etilgan. Ushbu hikoya yuzasidan quyidagi muammoli vazifalarni berish mumkin: Hikoya qahramonini siz ham ochko'z hisoblaysizmi? Nima uchun? Sizning nazaringizda, ochko'zlik qanday bo'ladi? Ochko'zlikka xos belgilarni bilasizmi? Bu haqida bilganlaringizni sinfdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.

Muammoli savol va vazifalar muammoli topshiriq tarkibida birga kelishi mumkin.

Muammoli topshiriq - o'qituvchi, ta'lim beruvchi, kitob muallifi tomonidan muammoli savol va vazifa shaklida bilim oluvchini muammoli vaziyatga tushiradigan o'quv topshirig'idir. Muammoli topshiriq, o'z navbatida, muammoli vaziyatga olib kiradi.

Muammoli vaziyat - subyektning psixologik holati bo'lib, muammo bilan duch kelganda aqliy qiyinchilikni paydo bo'lishi zudlik bilan hal qilishga yordam beradigan yangi bilim va harakat usularini izlash, ularni topib, hosil bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishni ta'minlaydi.

Muammoli holat shaxsni yangi bilimlar olishga da'vat etadi. O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun shunday muammoli ta'lim elementlaridan qo'llashi kerakki, toki ularga darslikda tayyor javob bo'lmasin. Bola o'ylasin, izlansin, qo'shimcha kitoblar qarashga, matnga qayta-qayta murojaat qilishga harakat qilsin, chunki darsliklarda taqdim etilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash o'quvchilardan ortiqcha fikriy zo'riqish talab qilmaydi. Bunday ishlash bilan fikr kishisini tarbiyalash mumkin emas.

Muammoli ta'limda mashg'ulotning samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi qoidalarga amal qilish tavsiya etiladi:

- gapni bo'lmaslik;
- bir-birini eshita bilish;
- navbat bilan gapirish ko'nikmasi;
- qo'l ko'tarish qoidasiga amal qilish;
- sabr-toqatli bo'lish, o'zaro hurmat.

Darsni muammoli tarzda tashkil qilish uchun birinchi galda o'quvchi bahs-munozara yuritishga, fikrlarini erkin bayon etishga, tanqidiy munosabat bildirishga tayyor bo'lishi lozim. Buning uchun qo'yiladigan muammolarga bog'liq bo'lgan tushunchalar yuzaga keltiriladi. So'ngra muammoga aniqlik kiritiladi, ma'lum xulosalar chiqariladi.

Muammoni hal etish jarayonida o'quvchining faol ishtirokini ta'minlash maqsadida bu jarayonni shartli ravishda quyidagi uch bosqichga ajratish mumkin:

1. Chaqiruv bosqichi.
2. Anglash bosqichi.
3. Fikrlash bosqichi.

Chaqiruv bosqichida o'qituvchi bolarning yangi mavzuga oid dastlabki tushunchalarini aniqlaydi.

Chaqiruv bosqichining maqsadi:

- dastlabki tushunchalarni aniq, erkin namoyon qilish;
- fikrini namoyon qila olish;
- darsga qiziqishni oshirish kabilardan iborat.

Anglash bosqichi. Bunda o'qituvchi o'quvchilardan olgan dastlabki tushunchalariga qo'shimcha ma'lumotlarni jamlab,

yangi bilim bilan boyitishni so'raydi, ya'ni o'quvchining bilgan va bilmagan ma'lumoti to'ldiriladi.

Anglash bosqichining maqsadi:

- dastlabki tushunchalardan kelib chiqib, yangi bilim bilan to'ldirish:

- o'quvchilar qiziqishini orttirish;
- tahlil qilish, taqqoslashga o'rgatish;
- yangi darsni bayon etish.

Fikrlash bosqichi darsning mustahkamlash qismiga to'g'ri kelib, o'quvchilar dastlabki tushuncha, to'ldirilgan ma'lumotni tahlil qilib, fikrlaydi, mustahkamlaydi. O'quvchilar o'tilgan dars, mavzu haqida o'z fikrini bildiradi.

To'g'ri tashkil etilgan dars o'z samarasini beradi, ammo har bir bosqichda qo'llanadigan usullarni o'rganmay turib, dars samaradorligini oshirib bo'lmaydi. Bunday interfaol usullardan biri – «INSERT» jadvali.

«Insert»- o'qish davomida o'z shaxsiy tushunishlarini faol ko'rib chiqishga yordam beruvchi kuchli qurol hisoblanadi. O'quvchi o'qiyotganining oxiriga kelib, o'qigan mantdan hech narsani eslay olmasligi holati ko'pchilik o'quvchilar uchun odatiy hol bo'ladi, «insert» matnini o'qiyotganda faolligini to'plab turish uchun yordam beradi. «Insert» fikrlar bosqichini amalga oshirish, idrok etish uchun muhim ahamiyatga ega. Masalan, o'quvchilarga fikrlash bosqichida o'qilgan matnini samarali tushunishga bu jadval yaqindan yordam beradi. Bu jadval quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

| | | |
|---|---|---|
| V | Q | ? |
| | | |

V – o'quvchi bilgan ma'lumot.

Q – o'quvchi uchun yangilik bo'lgan ma'lumot.

? – o'quvchi tushunishga qiynalgan ma'lumot.

O'quvchilar bu shartli belgilarni o'rganganidan so'ng jadvalni to'ldiradi. Ushbu jadval orqali o'z o'quvchisining qancha bilimga

ega, yangi bilim egallagani va qaysi ma'lumotlar haqida qo'shimcha yangilik berish lozimligi yaqqol ko'rinadi.

Umuman olganda, o'qitish faoliyatiga muammoli ta'limni olib kirish oson ish emas, chunki boshlang'ich sinfda o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun bunday muammoli vaziyatlarni tashkil qilish o'rta va yuqori sinflarga nisbatan farq qiladi. Bu yoshdagi bolaning hayotiy tajribasi kam va u xulosa chiqarishni bilmaydi. Ular ko'proq taqlid qiladi. Boshlang'ich sinfning ona tili va o'qish, matematika, tabiat darslarida tashkil qilingan mustaqil ishlar va ularning yoshi, intellektual imkoniyatlari doirasidagi muammoli vaziyatlar xulosa chiqarishga emas, fikr aytish, munosabat bildirishga undaydigan bo'ladi.

O'qituvchi shularni hisobga olib, muammoli ta'limni tashkil etishi lozim.

HAMKORLIKDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI

O'qish va o'qitish ishlari samaradorligini oshirish, o'quvchilarning tahsil olish va fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirish, bilish faoliyatini faollashtirish hamkorlikda o'qitish usullaridan foydalanishga ko'p jihatdan bog'liq. Bu usulning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini faqat birgalikda bajarish emas, balki hamkorlikda o'qishni o'rganishdir.

O'qituvchi dars boshlashdan oldin o'quvchilarni ikki guruhga ajratib, mavzu bo'yicha tuzilgan o'quv topshiriqlari asosida ularning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil etadi. Har bir topshiriq bo'yicha savol-javob o'tkazilib, o'quvchilarning javoblari tegishli ballar bilan baholab boriladi. Dars so'ngida g'olib guruh aniqlanadi va a'zolari rag'batlantiriladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish usulidan foydalanib, o'tiladigan darsning borishini quyidagicha loyihalash tavsiya etiladi:

I. Tashkiliy qism.

II. O'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash.

III. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish.

IV. Yangi mavzuni o'rganish:

a) o'quvchilarni guruhlarga ajratib, guruh a'zolari tomonidan belgilangan o'quv topshiriqlarini mustaqil ravishda sifatli bajarilishiga erishish;

b) o'quv materialini yaxlit holda qayta ishlab chiqilishini amalga oshirish.

V. Yangi mavzu yuzasidan guruhlararo savol-javob, o'quv bahsi o'tkazish.

VI. Mavzu matnida berilgan o'quv mashg'ulotini uyushtirish.

VII. Test savollari yordamida o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash.

VIII. Yangi mavzuni qayta ishlash va yakunlash.

IX. Uyga vazifa berish.

Guruhlar o'rtasidagi o'quv bahsi, munozara o'quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi.

Xulosa shuki, hamkorlikda o'qitish negizida musobaqa emas, balki o'quvchilarning hamkorlikda aqliy mehnat qilib, mustaqil va ijodiy ishlab tahsil olish jarayoni yotadi.

Yuqorida keltirilgan barcha ta'lim texnologiyalarining mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, shuni aytish joizki, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va uni amalda qo'llash o'z-o'zidan amalga oshirilmaydi. Qo'llanmoqchi bo'lgan texnologiyasining shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotiga samarali natija berishi kafolatlanganidan so'ng bu texnologiya amaliyotga joriy etiladi.

Nega ta'lim zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslanishi lozim? Nima uchun an'anaviy o'qitish metodikasi zamon talablariga javob bermaydi? Zamonaviy ta'limdagi yechilmayotgan muammolar faqat an'anaviy metodikaning kamchiligimi? Bu kabi tabiiy savollarga atroflicha javob berish maqsadida zamonaviy metodikaning asosini ifodalovchi quyidagi fikrlarga e'tibor beraylik. Ta'lim mazmunidagi uzluksizlikni ta'minlash ta'limning maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl va uning jarayonlari kabi tarkibiy qismlari orasidagi uzviylikka

bog'liq. Chunki ta'limda har bir fanni o'rganish maqsadidan (nima uchun o'qitish kerak?) kelib chiquvchi o'quv dasturi va DTS talablariga mos o'quv mazmuni tanlanadi. Ta'lim mazmunini (nimani o'qitish kerak?) o'zlashtirish uchun esa, qulay bo'lgan metodlar tanlanadi. Tanlangan metodlar (kimni va qanday o'qitish kerak?) yordamida mazmun egallanadi. So'ngra ta'lim uchun tayyorlangan vositalar (ko'rgazmali va texnik vositalar) va ta'lim jarayoni, unga yetarli darajada mos mashg'ulot shakli tanlanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llanadigan interfaol metodlar

Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchilarning bilish faoliyatini mavzu bo'yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil qilish demakdir. O'qitish metodlari o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi, o'quvchining hamkorligidagi faoliyatni ta'minlash asosida jamiyat tomonidan maktab (umuman, ta'lim muassasalari) oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak. O'qitish metodlari bevosita ta'lim amaliyoti bilan aloqador konsepsiyalarga tayanadi. O'qitish metodi dastlab pedagog ongida faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida mavjud bo'ladi. Bu loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining o'zaro tutashuvi tekisligida, o'qitish va o'qishning aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metodning boshqa namoyon bo'lish shakllari yo'q, sababi umumiy holda o'qitish metodi o'zida faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi.

Pedagogik nashrlarda o'qitish metodlari faol (aktiv) va sust (passiv) guruhlariga ajratiladi. Agar har bir metod belgilangan u yoki bu maqsadga erishishda o'z o'rnida ishlatilsa, shubhasiz, faoldir. Pedagogik texnologiyalar ham darsda o'quvchilar faolligining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi. Shu boisdan bu faslda

hali pedagogik amaliyot uchun notanish bo'lgan chet el didaktikasiga oid metodlar haqida fikr yuritiladi.

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qitayotgan fanning har bir mavzusi har bir dars mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik xarita unga fani, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondashishga, tushunishga (bir semestr, bir o'quv yili bo'yicha) yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib erishiladigan natijaga ko'ra olishiga yordam beradi. Ayniqsa, texnologik xaritaning o'quvchining imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi, uni shaxs sifatida ta'limning markaziga olib chiqishga olib keladi. Bu esa, o'qitish samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qarash, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llash ularni mustaqil, erkin fikrlash; izlanish; har bir masalaga ijodiy yondashish; mas'uliyat; ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish; tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanish; eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogga va o'quv faniga qiziqishini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Ulardan ba'zilari haqida to'xtalib o'tamiz. Ushbu metodik qo'llanmada keltirilgan zamonaviy metodlar yoki o'qitish samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchilarda mantiqiy aqliy, ijodiy tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, shxsiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Ushbu metodik qo'llanmadan foydalanuvchilar o'quv jarayonini tashkil etish uchun havola etilayotgan texnologik treninglarni xuddi shu tartibda o'tkazishi shart emas, har qaysi o'qituvchi bu treninglarni umumiy shaklini olgan holda o'zining dars texnologiyalarini yaratishlari, berilgan treninglarni to'liq yoki ularning ba'zi bir bosqichlari, elementlarini ishlatishi mumkin.

"Aqliy hujum" ta'lim usulining mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni hal qilish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir

qancha bosqichlarga (g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv ishlab chiqish) ajratishdan iborat.

Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy fikrlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. "Aqliy hujum"ni uyushtirish birmuncha sodda bo'lib, undan ta'lim mazmunini o'zgartirish jarayonida foydalanish mumkin. Dastlab guruh yig'iladi va ular oldiga muammo qo'yiladi. Bu muammo yechimi to'g'risida barcha ishtirokchilar o'z fikrini bildiradi. Bu bosqichda hech kimning o'z o'rtoqlari g'oya va fikrlarini muhokama qilish yo baholashiga haqqi yo'q. Demak, "aqliy hujum" yo'li bilan qisqa vaqtda o'nlab g'oyalarni yuzaga chiqish imkoniyati mavjud. Aslini olganda, g'oyalar asosiy maqsad emas, ular muammo yechimini oqilona ishlab chiqish uchungina asos bo'ladi. Bu usul shartlaridan biri qatnashuvchilarning har biri hech qanday tashqi ta'sirsiz faol ishtirokchi bo'lishi kerak. Bildirilgan g'oyalarning besh yoki oltitasigina asosiy hisoblanib, muammo yechimini topishga imkoniyat yaratadi.

"Aqliy hujum" qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;

- ish sifatga emas, songa qaratiladi, g'oya qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi;

- istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;

- muammo yechimidan uzoq g'oyalar ham qo'llab-quvvatlanadi;

- barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazi) qayd etiladi;

- aqliy hujum o'tkazish vaqti belgilanadi va unga rioya qilinishi shart;

- beriladigan savollarga qisqacha (asoslangan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

Vazifasi. "Aqliy hujum" qiyin vaziyatlardan qutulish choralarini topishga, muammoni ko'rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilligini yo'qotishga va keng doirada fikrlashga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni yechish

jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh yanada jipslashadi.

Obyekti. Qo'llanish maqsadiga ko'ra bu usul universal hisoblanib, tadqiqotchilikda (yangi muammoni yechishga imkon yaratadi), o'qitish jarayonida (o'quv materialini tezkor o'zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o'z-o'zini birmuncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi) asqotadi.

Qo'llanish usuli. "Aqliy hujum" ishtirokchilari qo'yilgan muammo bo'yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishi mumkin. Aytilgan fikrlar yozib boriladi va ularning mualliflari o'z fikrini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu usul samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan xarakterlanadi va hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko'ra eng yaxshi takliflar jamlanadi va muammoni hal qilish uchun zarurlari tanlanadi.

2.2. Boshlang'ich sinf darslarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va o'tkazishga doir dars ishlanmalari

ONA TILI FANI DARSLARNI ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH VA O'TKAZISHGA DOIR DARS ISHLANMALAR

Darsning texnologik xaritasi

| |
|---|
| Mavzu: Undosh tovushlar va harflar |
| Mavzuga oid tayanch tushunchalar: b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng undosh tovushlarni ifodalovchi harflar. Vaqt: 45 daqiga. |
| Mavzuning qisqacha ta'rifi: undosh harflar ishtirok etgan so'zlar va u so'zlardagi undosh tovushlarni ajrata olish. |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Dars turi: yangi bilim berish. Metod: suhbat, tushuntirish, muammoli izlanish, munozara. Shakl: jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash. Jihoz: slaydlar, darslik, tarqatma materiallar, rasmlar. |

| | | | |
|---|--|--------------|-------------|
| Nazorat: og'zaki nazorat, savol-javob, kuzatish, o'zini o'zi nazorat qilish. | | | |
| Baholash: o'quvchilar 5 balli reyting tizimi asosida baholanadi. | | | |
| Darsning maqsad va vazifalari | | | |
| Maqsadlar: | | | |
| Ta'limiy: o'quvchilarga undosh tovushlar va harflar haqida ma'lumot berish Undosh harf qatnashgan so'zlarni bo'g'inlab ko'chirish. Qoidalar haqida to'liqroq ma'lumot berish | | | |
| Tarbiyaviy: tabiatga mehr berish ruhida tarbiyalash, o'zaro munosabatlar etikasini o'stirish. | | | |
| Rivojlantiruvchi: savollarga to'g'ri va to'liq javob bera olish, husnixat bilan yozish ko'nikmasini shakllantirish. | | | |
| Kutilayotgan natija: | | | |
| Dars yakunida undoshlarni talaffuz qilishni o'rganadilar. so'zlardagi undosh harflarni ajrata oladilar. | | | |
| Dars jarayoni va texnologiyasi | | | |
| Bosqich | Bajariladigan ish nomi | Metod | Vaqt |
| 1-bosqich. Tashkiliy qism | O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi. | Suhbat | 3 daqiqa |
| 2-bosqich. (Refleksiya) Ehtiyojlarni aniqlash | Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Baholash tartibi e'lon qilinadi. | Munozara | 2 daqiqa |
| 3-bosqich O'tilgan mavzuni mustahkamlash | a) Uy vazifasini tekshirish. b) O'tilgan mavzuni mustahkamlash. | Savol-javob | 5 daqiqa |

| | | | |
|-----------------------------------|---|---|--|
| 4-bosqich. Yangi mavzu bayoni. | 1.Yangi dars 24-mashq orqali tushuntiriladi va shartiga ko'ra bajartiriladi. 2.Dam olish daqiqasi. (<i>slayd asosida olib boriladi</i>) 3.25-mashq mustaqil bajartiriladi. 4. Lug'at ishi | Suhbat Savol-javob Tushuntirish | 8 daqiqa 6 daqiqa 3 daqiqa 5 daqiqa 3 daqiqa |
| 5-bosqich. Mustahkamlash. | Rasmga qarab gap tuzish. Tarqatma materiallar asosida berilgan so'zlardan gap tuzish | Muammoli izlanish | 6 daqiqa |
| 6-bosqich. Baholash. | 1. O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reyting bali e'lon qilinadi. 2.Dars yakunlanadi | | 1 daqiqa 1 daqiqa |
| 7-bosqich. Uyga vazifa | 26-mashq. Uyga vazifani o'quvchilarga tushuntirib beriladi. | Tushuntirish | 2 daqiqa |

Mavzu: Undosh tovushlar va harflar.

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga undosh tovushlar va harflar haqida ma'lumot berish. Undosh harf qatnashgan so'zlarni bo'g'inlab ko'chirish. Qoidalar haqida to'liq ma'lumot berish

Tarbiyaviy: o'quvchilarni tabiatga mehr berish ruhida tarbiyalash, o'zaro munosabatlar etikasini o'rganish Sinf jamoasida do'stlik ruhini qo'llab-quvvatlash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarni to'g'ri, husnixat bilan yozish ko'nikmasini shakllantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: analiz-sintez tovush va metodi. Tushuntirish, amaliy. O'yin ko'rgazmalilik

Dars jihozi: slaydlar, mavzuga oid ko'rgazmalar, tarqatma materiallar, rag'bat kartochkalari

Darsning borishi:


1. Tashkiliy qism:

a) Salomlashiladi.

b) Davomat aniqlanadi.

Shundan so'ng darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: aziz o'quvchilar, darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam. Bular:



2. Uyga vazifani mustahkamlash.

O'quvchilarga savol beriladi (1-sinfda o'tilganlarini eslatish uchun).

- Unli tovushlar deb nimaga aytiladi?


- Unli tuvush ifodalovchi harflarga qanday harflar kiradi?

O'quvchilarga unli tovushlar va harflar haqida qisqacha tushuncha beriladi.

O'qituvchi: O'quvchilar uyga qanday vazifa berilgan edi?

O'quvchi: 23-mashqni bajarib kelish vazifasi berilgan edi.

O'quvchilar uyga yozib kelgan katakchadagi harflardan tuzilgan so'zlarni birma-bir o'qiydi.



1-topshiriq. "Qanaqa mevani yaxshi ko'rasan?" o'yini o'tkaziladi. Savatdagi mevalarni oladilar ularga yozilgan so'zlardan unli harflarni topadilar.

3. Yangi mavzu bayoni

O'quvchilar bugun biz sizlar bilan undosh tovushlar va harflar mavzusini o'tamiz.

O'quvchilarga undosh tovushlar va harflar haqida qisqacha tushuncha beriladi. b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng undosh tovushlarni ifodalovchi harflar undosh harflar deyiladi. Undosh tovushlarni talaffuz qilganda og'iz bo'shlig'idagi organlarga tusiqqa uchraydi. Natijada, havo oqimi portlab yoki sirg'alib chiqadi. Unli tovushlarni talaffuz qilganimizda hech qanday tusiqqa uchramaydi. Undoshlar og'iz bo'shlig'ida paydo bo'ladi. Ular shovqindan iborat bo'ladi yoki qisman shovqin qatnashadi. Undosh tovushlar 24 ta, undosh harflar esa, 23 ta. Chunki j harfi ikki xil talaffuz qilinadi. Masalan, jon, rivoj; jurnal.

Undosh harflarni cho'zib talaffuz qilib bo'lmaydi. Unli harflarni istagancha talaffuz qilish mumkin. (o-o-o,... a-a-a,...)

24-mashq bajariladi.

Shartini bir o'quvchiga o'qitiladi.

Tushunarli bo'lishi uchun ikkinchi o'quvchiga ham o'qitiladi. "Yong'oq" she'rini oldin o'quvchilarning o'zlari o'qiydi.


She'rni o'qituvchi o'qib uni muallifi haqida ma'lumot beradilar.

Keyin o'quvchilardan biriga o'qitilib, undoshlarni topadilar. Og'zaki bajarilib keyin xattaxtada o'quvchilar birma-bir chiqib yozma bajaradilar.

Yong'och

Kuz kelganda pishaman,
Qoqsang tap-tap tushaman.
Yog'li qilib noningni,
Tozalayman qoningni.

"Yong'och" so'zi ustida ishlanadi.



4. Dam olish daqiqasi (Slayd yordamida olib boriladi).

Kesma harflar tarqatiladi.

Harflardan undosh harflardan boshlanuvchi ismlar teradilar tez va to'g'ri bajargan guruh g'olib sanaladi.

25-mashq bajariladi.

O'quvchilar sabzavotlar nomini topadi va yozadi.

25-mashq. Rasmdagi sabzavotlar nomini ayting va yozing.

| | | | |
|--|--|--|--|
| | | | |
| | | | |

Yozganingizni lug'atdan tekshiring.
Undoshlarning tagiga chizing.

5. Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Topshiriq. Meva va sabzavotlar rasmi beriladi. O'quvchi uning nomini aytib, bo'g'inga bo'lib, undosh harflarni topishi kerak bo'ladi.

2. Topshiriq. Undosh tovushdan boshlanuvchi uy va yovvoyi hayvonlar nomini yoddan aytish musobaqasi.

O'quvchilar undosh tovushdan boshlanuvchi uy va yovvoyi hayvonlar nomini yoddan birma-bir aytadi Aytolmagan o'quvchi o'yindan chiqib ketadi. Oxirida qolgan 3 o'quvchi rag'batlantiriladi. Masalan: mushuk, tulki,...

3.Topshiriq. Savol-javob.

O'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

- Darsda nimalarni bilib oldingiz?

- Undosh tovushlarga qaysi tovushlar kiradi?

-

6.Baholash

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

7. Uyga vazifa

20-mashq. O'qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi.

Topishmoqni o'qing va javobini toping.

O'zi ekkan, gul taqar,

Pishgach, yesang, xo'p yoqar.

Kun doim unga boqar,

U doim kunga boqar.

Ko'chiring va harf birikmalari tagiga chizing?

Fan: Ona tili

Sinf: 1

Dars: 32

Mavzu: So'zning ma'nosi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga so'zning ma'nosi haqida bilim berish, erkin,mustaqil lishlashga o'rgatish,

Tarbiyaviy: o'quvchilarda ona tabiatga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash, uni asrab-avaylashga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish ko'nikmalarini shakllantirish va chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirish.

Dars turi: yangi bilim berish.

Dars metodi: “video lug‘at diktant”, “raqamli joylashuv”, savol-javob, yozma.

Dars jihozi: “Bilarjonni kim yengadi?” ko‘rgazmasi, darslik.

Texnik vositalar: proyektor, kompyuter.

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism

Diqqatni jamlash mashqini bajarish. Buning uchun o‘qituvchi 2 satrli she‘r aytadi:

Tinchlikni biz saqlaymiz.

Bilim olishni xohlaymiz.

O‘quvchilar takrorlaydi.

O‘quvchilarga yaxshi kayfiyat tilash va darsning “**Do‘stona kelishuv**” qoidalarini eslatib o‘tish.

Dars davomida har bir to‘g‘ri javob uchun guruhlar ishtirokiga qarab “**Bugungi darsning eng faol o‘quvchisi**” nominatsiyasi bo‘yicha dars yakunida taqdirlanishi aytib o‘tiladi.



II. Uy vazifasini tekshirish va o‘tilgan mavzularni takrorlash.

O‘tilgan mavzular yuzasida savol-javob o‘tkaziladi. Buning uchun “**Bilarjonni kim yengadi?**” ko‘rgazmasidan foydalaniladi. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan oldindan yozib, ko‘rgazma cho‘ntaklariga solib qo‘yilgan savollarga javob beradi. O‘zlari istagan savolni olib, javob beradi, to‘g‘ri javob bergan o‘quvchi rag‘bat kartochkasi bilan baholanadi.




Ko'rgazmadagi savollar:

1. So'zlar nimalarga bo'linadi?
2. Qaysi tovushlar bo'g'in hosil qiladi?
3. So'zlar birinchi satrdan ikkinchi satrga qanday ko'chiriladi?
4. "Qaldirg'och" so'zi necha bo'g'indan iborat?
5. Alifboda nechta unli tovush bor?
6. Alifboda nechta undosh tovush bor?

III. Yangi mavzu bayoni


Yangi mavzu 81-mashq asosida slayd yordamida tushuntiriladi. Slayd-rasmlar ketma-ket ko'rsatilib, "Kim? Nima?" so'roqlari yordamida nimalar tasvirlangani va ular qanday harakat bajarishi aniqlanadi. Buning uchun esa, slayddagi harakat bajarib ko'rsatiladi.

1-multimediya ilova



Demak, so'zlar qanday ma'noni bildirishi qoida asosida misollar yordamida tushuntiriladi.

2-multimediya ilova



IV. Mustahkamlash.

82-mashq asosida mavzu mustahkamlanadi.

Video lug'at diktant o'tkaziladi. O'quvchilar ekranda ko'ringan rasmdagi narsa-buyumlar nomini, o'qituvchi bergan savollarga javobni ovoz chiqarmay daftariga yozadi.


1. Qanday gul?
2. Qanday olma?
3. Nechta nok?

3-multimediya ilova



O'quvchilar yozib bo'lgach, ekranda ko'rsatilgan so'zlar yordamida o'z xatolarini tekshiradi va xulosa qiladi.

4-multimediya ilova



Video lug'at diktant o'tkaziladi. O'quvchilar ekranda ko'rgan rasmdagi narsa-buyumlar nomini daftariga yozadi. O'quvchilar yozib bo'lgach, ekranda ko'rsatilgan so'zlar yordamida o'z xatolarini tekshiradilar va xulosa qiladi. Ushbu topshiriqlar slaydlar orqali namoyish etiladi.

Dam olish daqiqasi

83-mashq. **“Raqamli joylashuv”** ko‘rgazmasi asosida bajariladi.

Buning uchun 83-mashqdagi so‘zlar raqamlar ichiga yozib chiqiladi, o‘quvchilar avval Kim? so‘ng Nima? Nima qildi? Qanday? Nechta? so‘rog‘iga javob bo‘lgan raqamini aniqlaydi va so‘zlarni guruhlab yozadi.

5-multimediya ilova

Raqamli joylashuv

| | | | |
|---------------------|----------------------|--------------------|---------------------|
| 1 qizil | 2 Gulsara | 3 kuldi | 4 bodom |
| 5 ochildi | 6 shirin | 7 besh | 8 uxladi |
| 9 ishchi | 10 Durdona | 11 ko‘za | 12 o‘n ta |

6-multimediya ilova

To‘g‘ri javob

Kim? - **2, 9, 10**

Nima? - **4, 11**

Nima qildi? - **3, 5, 8**

Qanday? - **1, 6**

Nechta? - **7, 12**

IV. Darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.

Dars so'ngida faol qatnashgan o'quvchilar yuqorida aytib o'tilgan nominatsiyalar boyicha rag'batlantiriladi va baholanadi.

Uyda 84-mashqni bajarish aytiladi.

O'quvchilarga yaxshi tilaklar bildirilib, darsga yakun yasaladi.

Darsning texnologik xaritasi

| | | | |
|---|---|--------------|-------------|
| Mavzu: Bo'g'in. | | | |
| Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Vaqt: 45 daqiqa. | | | |
| Mavzuning qisqacha ta'rifi: unli tovushlarning bo'g'in hosil qilishi. | | | |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Dars turi: mustahkamlovchi (davomi) Metod: suhbat, tushuntirish, muammoli izlanish, munozara, o'yin. Shakl: jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash, Jihoz: slaydlar, darslik, tarqatma materiallar, rasmlar. Nazorat: og'zaki nazorat, savol-javob, kuzatish, o'zini o'zi nazorat qilish. Baholash: o'quvchilar 5 balli reyting tizimi asosida baholanadi. | | | |
| Darsning maqsad va vazifalari | | | |
| Maqsadlar: | | | |
| Ta'limiy: so'zlarning bo'g'inlardan tuzilishini, unli tovush bo'g'in hosil qilishini o'rgatish. Tarbiyaviy: tabiatga mehr ruhida tarbiyalash, o'zaro munosabat madaniyatini o'stirish. Rivojlantiruvchi: savollarga to'g'ri va to'liq javob bera olish, so'zlarni bo'g'inga ajratish ko'nikmalarini rivojlantirish. | | | |
| Kutilayotgan natija: | | | |
| Dars yakunida o'quvchilar so'zlarni bo'g'inga ajrata olishni o'rganadi. | | | |
| Dars jarayoni va texnologiyasi | | | |
| Bosqich | Bajariladigan ish nomi | Metod | Vaqt |
| 1-bosqich. Tashkiliy qism | O'quvchi davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi. | Suhbat | 3 daqiqa |

| | | | |
|--|---|--|--|
| 2-bosqich. (Refleksiya) Ehtiyojlarni aniqlash | Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Baholash tartibi e'lon qilinadi. | Muno- zara | 2 daqiqa |
| 3-bosqich. O'tilgan mavzuni mustahkamlas h | a) Uy vazifasini tekshirish. b) O'tilgan mavzuni mustahkamlash. | Savol- javob | 5 daqiqa |
| 4-bosqich. Yangi mavzu bayoni. | 1. Yangi dars 66-mashq orqali tushuntiriladi va shartiga ko'ra bajartiriladi. 2. Dam olish daqiqasi. (slayd asosida olib boriladi) 3. 67 -mashq mustaqil bajariladi. 5. Lug'at ishi | Suhbat Savol- javob Tushun- tirish | 8 daqiqa 6 daqiqa 3 daqiqa 5 daqiqa |
| 5-bosqich. Mustahkamlas h. | Savatdagi meva nomini topadi. Tarqatma materiallar asosida berilgan so'zlarni bo'g'inlarga bo'ladi. | Muam- moli izlanish | 6 daqiqa |
| 6-bosqich. Baholash. | 1. O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reyting ballari e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi. | | 1 daqiqa |
| 7-bosqich. Uyga vazifa | 68-mashq. Uyga vazifani o'quvchilarga tushuntirib beriladi. | Tushun- tirish | 2 daqiqa |

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

a) Salomlashiladi.

b) Davomat aniqlanadi.

Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi:

- O'lkamizda hozir qaysi fasl?
- Bahor fasli qaysi oydan boshlanadi?
- Bahorda qaysi bayramlar nishonlanadi?
- Bahor haqida kim she'r aytadi?

Shundan so'ng darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam. Bular:

1. Intizom
2. Ahillik
3. Faollik
4. Aniqlik
5. O'ng qo'l qoidasi
6. Boshqalar fikrini hurmat qilish (slayd namoyish etiladi).

2. Uyga vazifani mustahkamlash

O'qituvchi: o'quvchilar, uyga qanday vazifa berilgan edi?

O'quvchi: uyga 65-mashq berilgan

Uyga vazifani mustahkamlash uchun savollar beriladi.

1. Bo'g'in qanday hosil qilinadi?

O'quvchilarga uyga vazifa o'qitiladi. Mashq shartiga ko'ra savol-javob o'tkaziladi.

She'r bo'g'inlab o'qiladi. Har bir so'zning necha bo'g'indan tuzilgani so'raladi.

3. Mustahkamlash (davomi)

Kesma harflar bilan ishlash:

O'qituvchi: Undosh harflardan ikkitasini ketma-ket qo'ying. Nima hosil bo'ldi?

Uchta undoshni ketma-ket qo'ying. Bo'g'in hosil bo'ldimi?

Endi bir undosh yoniga bir unli qo'ying-chi. Nima hosil bo'ldi? (Bo'g'in)

Undosh tovush yakka o'zi bo'g'in hosil qiladimi? Unli tovush-chi?

O'quvchilar javobi umumlashtiriladi.

O'qituvchi: 66-mashq shartiga ko'ra, topishmoqni o'qing, javobini toping?

Topishmoqdagi so'zlarni bo'g'inlarga bo'ling. Har bir so'zda nechta unli tovush va nechta bo'g'in bor?

Savol-javob o'tkaziladi

-Topishmoqning javobini topishda nimalar yordam beradi?

-O'lja so'zining ma'nosi bu topishmoqda nimani bildiriyapti?

67-mashq bajariladi.

"Do'lana" matni o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi. O'quvchilar o'qituvchi bilan har bir so'zni bo'g'inlarga bo'lib

og'zaki aytishadi. "Respublikamiz" so'zini bo'g'inga bo'lishda o'quvchilarning Vatani nomi so'raladi. Keyin ajratilgan so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, daftarga yoziladi.

Dam olish daqiqasi

Dam olish daqiqasida "Ajoyib xaltacha" o'yini o'tkaziladi. O'yin sharti shundan iboratki, o'quvchilar xaltacha ichidagi rasmda aks ettirilganlarning nomini topib, bo'g'inlarga bo'lishi kerak. Xaltacha ichida quyidagilarning rasmi berilgan: maymun, yo'lbars, oqqush, baliq, bo'ri, ayiq, tulki.

Yangi mavzuni mustahkamlash.

O'quvchilar bilan "So'z top" o'yini o'tkaziladi. Bunda yozuv taxtasiga bo'g'inlar yoziladi. Bu bo'g'inlardan o'quvchilar so'zlar hosil qilishadi. Bo'g'inlar quyidagilar: uk, na, tur, ki, tul, tu, ka, tun, kur ...

O'quvchilarga savollar beriladi:

- Undosh tovushning yakka o'zi bo'g'in hosil qiladimi?

- Unli tovushchi?

O'quvchilar javobidan keyin o'qituvchi:

So'zni bo'g'inga to'g'ri bo'lsangiz so'zlarni tez o'qishni, to'g'ri yozishni bilib olasiz. Unli tovushlar bo'lmasa, undosh tovushning o'zi bo'g'in bo'lib shakllanmaydi, lekin birgina unli tovush bo'g'in bo'la oladi. Masalan, u – shaxsni bildiradi.

Mustahkamlash.

"Qaysi mevani yaxshi ko'rasan?" o'yini o'tkaziladi.

Savatdagi mevalardan birini oladi, mevani nomini aytadi va bo'g'inlarga bo'ladi.

To'g'ri javob bergan o'quvchi rag'batlantiriladi.

Baholash

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

Uyga vazifa

68-mashq. O'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. Bir xil undosh 2 ta bo'g'inga bo'linib ketishi o'quvchilarga tushuntiriladi. Shartiga ko'ra bajarish aytiladi.

Darsning texnologik xaritasi

| | | | |
|---|--|--------------|-------------|
| Mavzu: Kimlar?, nimalar? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar. | | | |
| Mavzuga oid tayanch tushunchalar: kim?, kimlar?, nima?, nimalar?, shaxs, narsa-buyum. | | | |
| Vaqt: 45 daqiqa. | | | |
| Mavzuning qisqacha ta'rifi: kim?, nima? so'roqlariga javob bo'lgan birlikdagi so'zlar va kimlar?, nimalar? so'roqlariga javob bo'lgan ko'plikdagi so'zlar bilan amaliy tanishtirish. | | | |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: | | | |
| Dars turi: yangi bilim berish | | | |
| Metod: suhbat, tushuntirish, muammoli izlanish, munozara. | | | |
| Shakl: jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash, qiziqarli o'yin. | | | |
| Jihoz: slaydlar, mavzuga oid ko'rgazmalar, tarqatma materiallar. | | | |
| Nazorat: og'zaki nazorat, savol-javob, kuzatish, o'zini-o'zi nazorat qilish. | | | |
| Baholash: o'quvchilar 5 balli reyting tizimi asosida baholanadi. | | | |
| Darsning maqsad va vazifalari | | | |
| Maqsadlar: | | | |
| Ta'limiy: kim? nima? so'roqlariga javob bo'lgan (bitta shaxs va bitta narsani bildirgan) birlikdagi so'zlar va kimlar? nimalar? so'roqlariga javob bo'lgan (ikki va bir necha narsa va shaxsni bildirgan) ko'plikdagi so'zlar bilan amaliy tanishtirish. | | | |
| Tarbiyaviy: tabiatga mehr berish ruhida tarbiyalash, o'zaro munosabatlar etikasini o'stirish. | | | |
| Rivojlantiruvchi: savollarga to'g'ri va to'liq javob bera olish ko'nikmasini shakllantirish. | | | |
| Kutilayotgan natija: | | | |
| Dars yakunida o'quvchilar kim?, nima? so'roqlariga javob bo'lgan birlikdagi so'z va kimlar?, nimalar? so'roqlariga javob bo'lgan ko'plikdagi so'zlar bilan amaliy tanishadi. | | | |
| Dars jarayoni va texnologiyasi | | | |
| Bosqich | Bajariladigan ish nomi | Metod | Vaqt |
| 1-bosqich. Tashkiliy qism | O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi. | Suhbat | 3 daqiqa |
| 2-bosqich. (Refleksiya) Ehtiyojlarni aniqlash | Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi. | Munozara | 2 daqiqa |

| | | | |
|---|---|--|--|
| 3-bosqich. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. | a) Uy vazifasini tekshirish. b) o'tilgan mavzuni mustahkamlash. | Savol-javob | 5 daqiqa |
| 4-bosqich. Yangi mavzu bayoni. | 1. Yangi darsni 164-mashq orqali tushuntiriladi. 2. 165-mashq shartiga ko'ra bajariladi. 3. Dam olish daqiqasi. (<i>slayd asosida olib boriladi</i>) 4. 166-mashq mustaqil bajartiriladi. 5. Lug'at ishi | Suhbat Savol-javob Tushun-tirish | 8 daqiqa 6 daqiqa 3 daqiqa 5 daqiqa 3 daqiqa |
| 5-bosqich. Mustahkamlash | "So'zni bil" o'yini o'tkaziladi. | Muammoli izlanish | 6 daqiqa |
| 6-bosqich. Baholash. | 1. O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reyting bali e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi. | | 1 daqiqa 1 daqiqa |
| 7-bosqich. Uyga vazifa | 167-mashq. Uyga vazifani o'quvchilarga tushuntirib beriladi. | Tushun-tirish | 2 daqiqa |

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

a) Salomlashiladi.

b) Davomat aniqlanadi.

c) Qish fasli haqida ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi:

- O'lkamizda hozir qaysi fasl?
- Qish fasli qaysi oydan boshlanadi?
- Qishda qaysi bayramlar nisonlanadi?
- Qish haqida kim she'r aytadi?

Shundan so'ng darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam. Bular:

1. Intizom
2. Ahillik
3. Faollik
4. Aniqlik
5. O'ng qo'l qoidasi
6. Boshqalar fikrini hurmat qilish (slyd namoyish etiladi).
Endi bugungi darsimiz shiorini e'lon qilsam.

Bizning shior: Doim hushyor.

Biz kim: Barkamol avlod.

2. Uyga vazifani mustahkamlash.

O'qituvchi: O'quvchilar uyga qanday vazifa berilgan edi?

O'quvchi: Uyga 163-mashq berilgan

O'qituvchi: Hamma yoddan yozishga tayyorlanib keldimi?

O'quvchilar:

She'r muallifi Zafar Diyor haqida ma'lumot beriladi.

Zafar Diyor - iste'dodli bolalar shoiri. Shoir o'z ijodini kichkintoylarni ilmga ishtiyoq, ona-Vatanga, jonajon yurtimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga bag'ishlagan.

U 1912-yili Namangan viloyatida dehqon oilasida tug'ildi.

Uning "Mashinist" (1936), "Tantana"(1938), "Muborak" (1940), "Bizning oila (1942), "Sovg'a" (1943) kabi qator she'riy to'plamlari nashr etilgan.

Shoirning "Suv bilan suhbat", "Kichkina bog'bon haqida doston", "Kel, uchaylik shimolga", "Kichkina jangchi" asarlari yosh avlodni mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, elsevarlik, mehnatsevarlik, odamlarga naf keltirib yashash ruhida tarbiyalaydi.

Shundan so'ng darslikda berilgan she'ri yoddan yozdiriladi. O'quvchilar kitobni ochib, yozganlarini tekshiradi. Xatosiz yozgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

3. Yangi mavzu bayoni

Darslikda berilgan so'roqni o'qing. (O'quvchilar o'qiydilar. Qanday so'zlar kimlar? so'roqlariga javob bo'ladi?)

Birinchi rasmda (164-mashhq) kimni ko'ryapsiz?

(O'quvchini).

Shu o'quvchi haqida qanday so'raymiz?

(Kim?)

Uchinchi rasmda kimlarni ko'ryapsiz?

(O'quvchilarni).

Shu o'quvchilar haqida qanday so'raymiz?

(Kimlar?)

So'zlar izohlab yozdiriladi.

Kim? O'quvchi, quruvchi.

Kimlar? O'quvchilar, quruvchilar.

- Kim? so'rog'iga javob bo'lgan so'z bitta shaxs nomini bildiradi. Kimlar? so'rog'iga javob bo'lgan so'z ikki va undan ko'p shaxsning nomini bildiradi.

Birinchi usul. Avval bitta, keyin ikkita va uchta qalamni ko'rsatib so'raladi:

Bu nima?

(Qalam).

Nechta qalam?

(Bitta qalam).

Qalamning boshqacha nomi nima?

(Narsa-buyum.)

Bular nimalar?

(Qalamlar).

Nechta qalam?

(Ikkita, uchta).

Bitta qalam ko'pmi yoki ikkita (uchta) qalam ko'pmi?

(Ikkita, uchta qalam ko'p).

Ko'p narsa buyum haqida qanday so'raymiz?

(Nimalar?)

Ruchka haqida ham shunga o'xshash suhbat o'tkaziladi.

O'quvchilar so'zlarni izohlab daftariga yozadi.

Nima? Qalam, ruchka.

Nimalar? Qalamlar, ruchkalar.

Nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'z bitta narsaning nomini bildiradi. Nimalar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar bittadan ortiq (ikki va undan ko'p) narsalar nomini bildiradi.

Darslikda berilgan "Qaysi so'zlar nimalar? so'rog'iga javob bo'ladi?" so'rog'i o'qitilib, birgalikda javob beriladi.

- Birinchi rasmda (165-mashq) nimani ko'ryapsiz?

- (Lolani).

- Lola haqida qanday so'raymiz?
- (Nima? Bu nima?)
- Uchinchi rasmda nimani ko'ryapsiz?
- (Lolalarni).
- Lolalar haqida qanday so'raymiz?
- (Nimalar? Bular nimalar?)

So'zlar izohlab yozdiriladi.

Nima? Lola, terak.

Nimalar? Lolalar, teraklar.

Nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'z bitta narsaning nomini bildiradi. Nimalar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar bittadan ortiq (ikki va undan ko'p) narsalar nomini bildiradi.

O'quvchilarga darslikdagi xulosa o'qitiladi.

Bittadan ortiq shaxsni bildigan so'zlar kimlar? so'rog'iga javob bo'ladi.

Bittadan ortiq narsani bildigan so'zlar nimalar? so'rog'iga javob bo'ladi.

4. Dam olish daqiqasi (slyd yordamida olib boriladi).

MANTIQ



Har bir darchadagi ortiqcha rasmni toping. Tushuntiring.

Kimlar? nimalar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar haqidagi tushunchani 166-mashqni bajarish orqali mustahkamlanadi.

Sharti tushuntiriladi, o'quvchilar mustaqil yozadi.

Suv - tiriklik manbasi. Undan odamlar, hayvonlar, qushlar, bog'lar, ekinzorlar bahra oladi. Borliq yashnaydi.

Bolalar, suvdan tejamkorlik bilan foydalanishni o'rganing.

Kimlar? Odamlar, bolalar.

Nimalar? Hayvonlar, qushlar, bog'lar, ekinzorlar.

4. Lug'at ishi

Tiriklik- hayot kechirmoq.

Manbavi -

Bahra-

Borliq- olam, dunyo.

Tejamkorlik-

"So'zni bil" o'yini o'tkaziladi.

| | | | | | | |
|---|----|----|---|---|---|---|
| A | k | a | | | | |
| I | sh | ch | i | l | a | r |
| D | e | h | q | o | n | |

| | | | | | | |
|----|----|---|---|---|---|---|
| T | o | l | | | | |
| E | ch | k | i | l | a | r |
| Sh | a | m | o | l | | |

O'quvchilar so'zlarga so'roq berib, shaxs (kishi)ni bildirgan va shaxsdan boshqa narsani bildirgan so'zlarni aniqlaydi.

6. Baholash

- Darsda nimalarni bilib oldingiz?

- ...

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.



7. Uyga vazifa

167-mashq. So'roq berib, shaxs va narsa nomini bildirgan so'zlarni aniqlang.

Kimlar? Kishilar,

Nima? Qalam,

Darsning texnologik xaritasi

| |
|---|
| Mavzu: Kimlar?, nimalar? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar (mustahkamlash). |
| Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Kim?, kimlar?, nima?, nimalar?, shaxs, narsa-buyum. |
| Vaqt: 45 daqiqa. |
| Mavzuning qisqacha ta'rifi: kim?, nima? so'roqlariga javob bo'lgan birlikdagi so'zlar va kimlar?, nimalar? so'roqlariga javob bo'lgan ko'plikdagi so'zlar bilan amaliy tanishtirish. |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: |
| Dars turi: mustahkamlash darsi |
| Metod: suhbat, tushuntirish, muammoli izlanish, munozara. |
| Shakl: jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash, qiziqarli o'yin. |
| Jihoz: slaydlar, mavzuga oid ko'rgazmalar, tarqatma materiallar. |

Nazorat: og'zaki nazorat, savol-javob, kuzatish, o'zini-o'zi nazorat qilish.

Baholash: o'quvchilar 5 balli reyting tizimi asosida baholanadi.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta'limiy: kim? nima? so'roqlariga javob bo'lgan (bitta shaxs va bitta narsani bildirgan) birlikdagi so'zlar va kimlar? nimalar? so'roqlariga javob bo'lgan (ikki va bir necha narsa va shaxsni bildirgan) ko'plikdagi so'zlar bilan amaliy tanishtirish.

Tarbiyaviy: odamlar orasida o'zaro hutmat-ehtirom munosabatda bo'lish

Rivojlantiruvchi: mavzu yuzasidan bilim, malaka va ko'nikmasini shakllantirish.

Kutilayotgan natija:

Dars yakunida o'quvchilar kim? nima? so'roqlariga javob bo'lgan birlikdagi so'z va kimlar? nimalar? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni mustahkamlaydi.

Dars jarayoni va texnologiyasi

| Bosqich | Bajariladigan ish nomi | Metod | Vaqt |
|---|---|---------------------------------------|--|
| 1-bosqich. Tashkiliy qism | O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi. | Suhbat | 3 daqiqa |
| 2-bosqich. (Refleksiya) Ehtiyojlarni aniqlash | Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. | Munozara | 2 daqiqa |
| 3-bosqich O'tilgan mavzuni mustahkamlash. | a) Uy vazifasini tekshirish. b) O'tilgan mavzuni mustahkamlash. | Savol-javob Tarmoqlash metodi | 5 daqiqa |
| 4-bosqich. Yangi mavzu bayoni. | 1. Darslikdan 178-mashq orqali tushuntiriladi. 2.178-mashq shartiga ko'ra bajariladi. 3. Dam olish daqiqasi. (slayd asosida olib boriladi) | Suhbat Savol javob Tushuntirish | 8 daqiqa 6 daqiqa 3 daqiqa 5 daqiqa 3 daqiqa |

| | | | |
|------------------------------|---|----------------------|----------------------|
| | 4.179-mashq mustaqil bajartiriladi. 5. Lug'at ishi | | |
| 5-bosqich. Mustahkamlash. | "Davom ettir" o'yini o'tkaziladi. | Muammoli izlanish | 6 daqiqa |
| 6-bosqich. Baholash. | 1.O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reyting bali e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi. | | 1 daqiqa 1 daqiqa |
| 7-bosqich. Uyga vazifa | 180-mashq. Uyga vazifani o'quvchilarga tushuntirib beriladi. | Tushuntirish | 2 daqiqa |

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

a) Salomlashiladi.

b) Davomat aniqlanadi.

c) Qish fasli haqida ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

- O'lkamizda hozir qaysi fasl?

- Qish fasli qaysi oydan goshlanadi?

- Qishda qaysi bayramlar nisonlanadi?

- Qish haqida kim she'r aytadi?

Shundan so'ng darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam. Bular:

1. Intizom

2.Ahillik

3.Faollik

4. Aniqlik

5. O'ng qo'l qoidasi

6. Boshqalar fikrini hurmat qilish (Slayd namoyish etiladi)

2. Uyga vazifani mustahkamlash

O'qituvchi: o'quvchilar, uyga qanday vazifa berilgan edi?

O'quvchi: Uyga 177-mashq berilgan

Tarmoqlash metodi orqali uyga vazifani mustahkamlaymiz.

Bog'da nimalar pishadi?

Polizda nimalar pishadi?

3. Yangi mavzu bayoni

Darslikdagi 178-mashq sharti o'qiladi. Matn chegaralari aniqlanadi. Kimlar so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar aniqlanadi. Matnga sarlavha topiladi.

O'qituvchi: Kim so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni toping.

Kim? Otam.

Kim? Onam.

Kim? Opam.

Kim? Ukam.

Matnga sarlavha topishni o'quvchilar hukmiga havola etiladi. Eng yaxshi sarlavhani ovozga qo'yib, tasdiqlab olinadi. Masalan: "**Mehnatkash oila**".

4. Dam olish daqiqasi


Bilim olib chinakam,

O'rganamiz harf, raqam.

Hammaga berar ta'lim,

O'qituvchi – muallim.

179-mashq sharti o'qitiladi. Kimlar? so'rog'iga javob bo'lgan so'z aniqlanadi.



5. Yangi mavzuni mustahkamlash.

“**Davom ettir**” o’yini o’ynaladi. Bunda o’quvchilar Kim? so’rog’iga javob bo’ladigan so’zlarni aytishi lozim bo’ladi.

6. Baholash

- Darsda nimalarni bilib oldingiz?

Darsda faol ishtirok etgan o’quvchilar rag’batlantiriladi va baholanadi.

7. Uyga vazifa.

So’roq o’rniga mazmunga mos so’zlarni qo’yib, gaplarni ko’chiring. Shaxsni bildirgan so’zlarni tagiga chizing.

*Kim paxta teradi? - **Paxtakor***

Mavzu: Fe’l yasovchi qo’shimchalar

Sinf: 3

Maqsad: 1) o’quvchilarni fe’l yasovchi qo’shimchalar bilan tanishtirish, -la, -illa qo’shimchalarini qo’shib fe’llar hosil qilishga o’rgatish; 2) o’quvchilarga toza va ozoda yurishni o’rgatish, do’stlar bilan bahamjihat bo’lishni o’rgatish; 3) fe’llardagi o’zak va qo’shimchalarni belgilash, fe’llarga so’roq bera olishni o’rgatish.

Dars turi: yangi bilim berish

Dars metodi: suhbat, savol-javob.

Dars jihozi: darslik, mavzuga oid rasm va ko’rgazmalar.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism.

- a) Salomlashish;
- b) Darsga tayyorgarlik;
- d) Davomat;
- e) Ma’naviyat daqiqasi.

2. Yangi mavzu bayoni.

Xattaxtaga – la, -illa qo’shimchalarini oluvchi so’zlar va ushbu qo’shimchalar yozilgan ko’rgazma ilinadi. O’quvchilar avval so’zni, keyin so’zga qo’shimchani qo’shib o’qiydi.

310-mashq bajariladi. O’qing, ajratib ko’rsatilgan so’zlarni bir-biri bilan qiyoslang.

1. Ko'z qo'rqoq, qo'l botir. 2. So'z ko'rki maqol. 3. Askardek biyron so'zla, so'zlaganda mazmuni ko'zla. 4. Qars ikki qo'ldan chiqadi. 5. Tun qorong'usida dahshat bilan bir narsa qarsilladi.

Yuqoridagi topshiriq (1) va 310-mashq ustida ishlash orqali mavzu tushuntirib boriladi. Mashqda berilgan gaplar o'quvchilarga o'qitilib, har qaysi gapda ajratib ko'rsatilgan so'zlarga o'quvchilar diqqati qaratiladi. Suhbat orqali so'zlarning ma'nosidagi farqlarni aniqlash, o'zagi bir xil bo'lgan so'zlarni yonma-yon yozish, ularning o'zak va qo'shimchalarini belgilash bilan so'z asosi - o'zakka

-la, -illa fe'l yasovchi qo'shimchalarni qo'shish orqali fe'llar hosil qilish lozimligi tushuntiriladi. O'quvchilar xattaxtadagi so'zlarni ko'chirib yozadi: ko'z-ko'zla, so'z-so'zla, qars-qarsilla.

3. O'quvchilar, fe'l hosil qilish qoidasi bilan tanishadi. So'z asosi-o'zakkga -la, -illa yasovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan fe'l hosil qilinadi: ko'z-ko'zla...

4. O'quvchilarga 2 ta rasm ko'rsatiladi. 1-rasmni o'qituvchi o'zi -la, -illa qo'shimchalari qo'shilgan fe'llarni qatnashtirib sharhlaydi:

- Halima xola kovushlarini shapillatib tandir yoniga keldi va non yopishga kirishib ketdi. Buni ko'rgan Go'zal va Muxlisa chopqillab kelib, yordam berishga kirishib ketdi. Muxlisa non yasadi, Go'zal esa chakichni taqillatib nonni chakichlay boshladi. Ahmad ham ko'chada laqillab yurmasdan o'tin tashib berdi. Shu kuni uch o'rtoq Halima xolaning mehmoni bo'lishdi.

2-rasmni esa, o'quvchilar sharhlab berishi kerak bo'ladi.

5. 311-mashq shartiga ko'ra og'zaki bajariladi. Birinchi to'rtlik o'qilib, so'roqlar berilib, fe'llar (o'ylayman, kuylayman) aniqlanadi. O'quvchilar ulardagi o'y, kuy so'zlariga -la, ikkinchi she'rdagi shap, taq, ak, laq so'zlariga -illa qo'shimchasini qo'shish bilan fe'l (shapillatar, taqillatar, akillatar, laqillatar) hosil qilinganini bilib oladi.

O'qituvchi o'quvchilar bilan savol-javob qiladi:

- Odobli bola qanday bo'lishi kerak?
- Qaysar deganda nimani tushunasiz?
- Qaysar vabeodob bo'lsangiz do'st topishingiz osonmi?

- Sinfdagi do'stingiz kim va u bilan qanday munosabatda bo'lasiz?

6. Dam olish daqiqasi

Bunda Zahro Hasanovaning "Ichi qora tirnoqlar" ertagi o'qib beriladi. Bu ertak orqali o'quvchilar o'z nutqlarini fe'llar bilan boyitishga harakat qilishlari lozim bo'ladi.

ICHI QORA TIRNOQLAR

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, juda qadim zamonda odil bir podshoh o'tgan ekan. U o'z mamlakatini obodonlashtirish va yanada farovon qilish uchun qattiq qayg'urar ekan. U o'z fuqarosidan hamisha ozoda va orasta yurishni talab qilar ekan.

Bir kuni podsho tirnoqlarining o'sib ketganiga ko'zi tushib qolibdi-yu, ularni tozalab olish uchun qo'liga qaychi olibdi. Shu payt tirnoqlarning o'sib ketgan qismi tilga kiribdi:

- Ey shohim, mening gunohim nima? Nima uchun meni qaychi bilan olib tashlaysan-u, nimpushti qismimga tegmaysan?

So'zlayotgan tirnoqlaridan ko'z uzolmay esankirab qolgan podshoh nima javob qilishini bilmay dovdirabdi. Shunda birdan tirnoqlarning nimpushti qismi so'z boshlabdi:

- Bilasanmi, seni nega yomon ko'rishadi? Xafa bo'lsang ham hozir senga aytaman. Sababi...

Ertakning shu yeriga kelganda, o'quvchilardan tirnoqlarning nimpushti qismi nima deb javob bergani so'raladi. Javoblar tinglangach, ertakning davomi o'qib beriladi.

- Sababi, sening iching qora, sen o'zingga doim kir yig'asan. Shuning uchun ham odamlar seni o'z vaqtida olib tashlab to'g'ri qilishadi! - deb javob beribdi ozoda va beg'ubor tirnoqlarning nimpushti qismi.

Bu savol-javobdan hayratlangan podshoh o'sha daqiqaning o'zidayoq yurtga farmon beribdi:

- Shu kundan boshlab, o'ziga kir yig'adigan, ichi qora tirnoqlar o'z vaqtidayoq olib tashlansin!

Shundan so'ng o'quvchilar taassurotlari tinglanadi.

So'ng toza qo'l va ichi qora tirno'g'i bor qo'l (panja) chizilgan rasm ko'rsatiladi. Bu rasm yuzasidan savol-javob o'tkazish mumkin.

7. Lug'at ustida ishlash. O'quvchilar uchun notanish so'zlar ustida ishlanadi.

8. Quvnoq daqiqa.

Bunda o'qituvchi Po'lat Mo'minning she'riy topishmog'ini o'qiydi va o'quvchilar javobini topadi.

Olisdan hid sezadi,

Har tomonni kezadi.

O'zicha mo'ralaydi,

Daraxtga o'rmaydi.

Mitti bo'lsa ham bardam,

Qishda uxlab olar dam.

Mard, mehnatkash misoli,

U tirishqoq...

9. Mavzuni mustahkamlash.

- So'z asosi va o'zaklarga qaysi qo'shimchalarni qo'shish bilan fe'l hosil qilinadi?

(-la, -illa yasovchi qo'shimchalar)

- Ko'z, so'z so'zlariga fe'l hosil qiling.

(ko'zla, so'zla)

- Qars, qag' so'zlaridan fe'l yasang.

(Qarsilla, qag'illa).

10. Darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.

Uy ishi 312-mashq. Mashqni namunadagidek bajarib kelish.

Darsning texnologik xaritasi

| |
|---|
| Mavzu: Gapda so'zlarning bog'lanishi. |
| Mavzuga oid tayanch tushunchalar: bosh bo'laklar, kesim, so'roq, so'zlar, ma'no-mazmun |
| Vaqt: 45 daqiqa. |
| Mavzuning qisqacha ta'rifi: gapda so'zlar mazmunan o'zaro bog'lanishi, gapda so'zlarning bog'lanishi so'roqlar yordamida aniqlanishi haqida tushuncha berish |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: |

| Dars turi: yangi bilim berish (davomi) | | | |
|---|--|--------------|-------------|
| Metod: suhbat, tushuntirish, muammoli izlanish, munozara. | | | |
| Shakl: jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash, | | | |
| Jihoz: slaydlar, darslik, tarqatma materiallar, rasmlar. | | | |
| Nazorat: og'zaki nazorat, savol-javob, kuzatish, o'zini-o'zi nazorat qilish. | | | |
| Baholash: o'quvchilar 5 balli reyting tizimi asosida baholanadi. | | | |
| Darsning maqsad va vazifalari | | | |
| Maqsadlar: | | | |
| Ta'limiy: gapda so'zlar mazmunan o'zaro bo'g'lanishi, gapda so'zlarning bog'lanishi so'roqlar yordamida aniqlanishi haqida amaliy tanishtirish. | | | |
| Tarbiyaviy: tabiatga mehr ruhida tarbiyalash, o'zaro munosabatlar etikasini o'stirish. | | | |
| Rivojlantiruvchi: savollarga to'g'ri va to'liq javob bera olish, gap tuzishda so'zlarni bir-biriga to'g'ri bog'lash ko'nikmasini shakllantirish. | | | |
| Kutilayotgan natija: | | | |
| Dars yakunida o'quvchilar gap tuzishda so'zlarni bir-biriga to'g'ri bog'lashda ularning ma'nosiga e'tibor berish va to'g'ri so'roq berish bilan amaliy tanishadi. | | | |
| Dars jarayoni va texnologiyasi | | | |
| Bosqich | Bajariladigan ish nomi | Metod | Vaqt |
| 1-bosqich. Tashkiliy qism | O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi. | Suhbat | 3 daqiqa |
| 2-bosqich. (Refleksiya) Ehtiyojlarni aniqlash | Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Baholash tartibi e'lon qilinadi. | Munozara | 2 daqiqa |
| 3-bosqich O'tilgan mavzuni mustahkamlash | a) Uy vazifasini tekshirish. b) O'tilgan mavzuni mustahkamlash. | Savol-javob | 5 daqiqa |

| | | | |
|-----------------------------------|--|--------------------|----------------------|
| 4-bosqich. Yangi mavzu bayoni. | 1. Yangi dars 133-mashq orqali tushuntiriladi va shartiga ko'ra bajartiriladi. | Suhbat | 8 daqiqa |
| | 2. 134-mashq shartiga ko'ra bajariladi. | Savol javob | 6 daqiqa |
| | 3. Dam olish daqiqasi. (slayd asosida olib boriladi) | Tushun-tirish | 3 daqiqa |
| | 4. 135-mashq mustaqil bajartiriladi. 5. Lug'at ishi | | 5 daqiqa 3 daqiqa |
| 5-bosqich. Mustahkam-lash. | Rasmga qarab gap tuzish Tarqatma materiallar asosida berilgan so'zlardan gap tuzish | Muam-moli izlanish | 6 daqiqa |
| 6-bosqich. Baholash. | 1. O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reyting bali e'lon qilinadi. | | 1 daqiqa |
| | 2. Dars yakunlanadi. | | 1 daqiqa |
| 7-bosqich. Uyga vazifa | 136-mashq. Uyga vazifani o'quvchilarga tushuntirib beriladi. | Tushun-tirish | 2 daqiqa |

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

a) Salomlashiladi.

b) Davomat aniqlanadi.

c) Kuz fasli haqida ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

- O'lkamizda hozir qaysi fasl?

- Kuz fasli qaysi oydan boshlanadi?

- Kuzda qaysi bayramlar nisonlanadi?

- Kuz haqida kim she'r aytadi?

Shundan so'ng darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam. Bular:

1. Intizom
2. Ahillik
3. Faollik
4. Aniqlik
5. O'ng qo'l qoidasi
6. Boshqalar fikrini hurmat qilish (slyd namoyish etiladi).

2. Uyga vazifani mustahkamlash

O'qituvchi: O'quvchilar uyga qanday vazifa berilgan edi?

O'quvchi: Uyga 132-mashq berilgan

O'qituvchi: Hamma bajarib keldimi?

O'quvchilar:

O'quvchilarga uyga vazifa o'qitiladi. Mashq shartiga ko'ra savol-javob o'tkaziladi.

- Matnda nechta gap bor ekan?

- 5 ta

Birinchi gapdagi so'zlarning o'zaro bog'lanishini so'roqlar yordamida belgilang:

Osmonni qora bulut qopladi.

Nima qopladi? – bulut qopladi.

Qanday bulut? – qora bulut

Qayerni qopladi? – osmonni qopladi

3. Yangi mavzu bayoni (davomi)

O'qituvchi: 133-mashq shartga ko'ra biz bosh bo'laklarni so'roqlar yordamida belgilashimiz kerak. Keyin esa, ularga mazmunan bog'langan so'zlarni ham so'roqlar yordamida aniqlaymiz.

1- gap. **Yoqimli kuy odamni allalaydi.** So'roq beramiz.

Nima allalaydi? - Kuy allalaydi bu gapning qanday bo'laklari?

Bosh bo'laklari

Kimni *allalaydi*? - Odamni allalaydi.

Qanday *kuy*? - Yoqimli kuy.


Yoqimli, odamni so'zlari *kuy, allalaydi* so'zlariga qanday bog'langan?

Mazmunan bog'langan.

(Qolgan gaplar ham shu tartibda tahlil etiladi)

Mashq shartiga ko'ra xattaxtaga ikki o'quvchi ikkinchi va to'rtinchi gaplarni husnixat bilan yozadi. Qolganlar o'z daftarlariga mustaqil yozadilar.

Gapdagi so'z birikmalarini quyidagicha aniqlanadi.



133-mashq


So'z birikmalarini chizma orqali aniqlash

Qanday? kimni?

Yoqimli kuy odamni allalaydi

Qanday?

Nay ovozi mayin yangradi



Mashq bajarilganidan so'ng, o'quvchilarga yana bir bor qoida eslatiladi.

Gapda so'zlar mazmunan o'zaro bo'g'lanadi.

Gapda so'zlarning bog'lanishi so'roqlar yordamida aniqlanadi. 135-mashqni o'quvchilar shartiga ko'ra bajaradi. Unga ko'ra o'quvchilar nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini ma'nosiga qarab, qo'yib gaplarni to'ldiradilar.

O'qituvchi: birinchi gapni o'qing.

O'quvchilar (kimlarga?) ... sovg'alar tayyorlashdi
berilgan so'zlardan qaysi biri mos keladi?

kichkintoylarga

Gapni to'liq o'qing va to'g'riligini tekshiring.

O'quvchilar kichkintoylarga sovg'alar tayyorlashdi.

(Qolgan gaplarga ham shu tariqa so'zlar tanlanadi)

135-mashq o'quvchilarga mustaqil bajartiriladi va slayd yordamida tekshiriladi.



135-mashq

- Sho'x
- Qovun
- Olma
- Mehnatsevar
- Uzmoq
- Bola
- Qo'shiq
- Termoq



? So'zlarni o'zaro bog'lashda nimalarga e'tibor berdingiz?

4. Dam olish daqiqasi (slayd yordamida olib boriladi).

5. Mavzuni mustahkamlash

Bunda o'quvchilarning ayrimlariga rasmlarga qarab gap tuzish, ayrimlariga tarqatma materiallarda berilgan so'zlardan gap tuzish vazifasi beriladi.

Olingan javoblar asosida mavzu xulosalanadi.

Gaplar bir biriga qanday bog'lanar ekan?

Gapda so'zlarning bog'lanishini qanday aniqlar ekanmiz?

6. Baholash

-Darsda nimalarni bilib oldingiz?

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

7. Uyga vazifa

136-mashq.

Gap kesimini aniqlash

So'roqlar yordamida kesimga bog'langan so'zni aniqlash

So'roqlarni qavs ichida yoniga yozush

Sinf: 3.

Fan: Ona tili.

Sana:

Mavzu: Ketma-ket kelgan bir xil undosh harfli so'zlar.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarni ketma-ket kelgan bir xil undosh harflar, nn, zz, ff, dd, ll, hh, qatnashgan harfli so'zlarni bo'g'inlab ko'chirish qoidalarini haqida to'liqroq ma'lumot berish

Tarbiyaviy: o'quvchilarni tabiatga mehr berish ruhida tarbiyalash, o'zaro munosabatlar etikasini o'rganish, sinf jamoasidagi do'stonalik ruhini qo'llab-quvvatlash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarni to'g'ri husnixat bilan yozish ko'nikmasini shakllantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: analitik-sintetik, tushuntirish, ta'limiy o'yin

Dars jihozi: slaydlar, mavzuga oid ko'rgazmalar, tarqatma materiallar, rag'bat kartochkalari

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

a) Salomlashiladi.

b) Davomat aniqlanadi.

Shundan so'ng darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam.

Bular: 1. Intizom 2. Ahillik 3. Faollik 4. Aniqlik 5. O'ng qo'l qoidasi 6. Boshqalar fikrini hurmat qilish.

2. Uyga vazifani mustahkamlash

O'qituvchi: O'quvchilar uyga qanday vazifa berilgan edi?

O'quvchi: 61-mashqni bajarib kelish vazifasi berilgan edi.

O'qituvchi: Hamma bajarib keldimi?

O'quvchilar:

O'quvchilar Talaffuzda oxiridagi undoshi tushib qoladigan so'zlarni aytib beradilar: juft, to'rt...

3. Yangi mavzu bayoni

O'qituvchilar bugun biz sizlar bilan ketma-ket kelgan bir xil undosh harfli so'zlarni o'rganamiz.

O'quvchilarga savol beriladi (2-sinfda o'tilganlarini eslatish uchun).

- Undosh tovushlar deb nimaga aytiladi?

- Bir xil undosh deganda qanday undoshlarni tushunasiz?

- Yonma-yon kelgan bir xil undoshlar deganda qanday undoshlarni tushunasiz?


O'quvchilarga yonma-yon kelgan bir xil undoshlar haqida qisqacha tushuncha beriladi.

62-mashq bajariladi.

Shartini bir o'quvchiga o'qitiladi.

Tushunarli bo'lishi uchun ikkinchi o'quvchiga ham o'qitiladi. "Bolari marvaridgulni qanday topadi?" matnini oldin o'quvchilarning o'zlari o'qiydi, keyin o'quvchilardan biriga o'qitilib, yonma-yon kelgan bir xil undoshli so'zlarni topiladi. Og'zaki bajarilib, keyin o'quvchilar birma-bir xattaxta yoniga chiqib yozma bajaradi (bittasi, xuddi, tilla, gulbargga).

Darslikda berilgan qoida o'quvchilarga o'qitilib, yod oldiriladi.



4. Dam olish daqiqasi (slyad yordamida olib boriladi).



63-mashq bajartiriladi (so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib o'qing?) O'quvchilarga oldin bo'g'inlarga bo'lib o'qitilib, keyin yozdiriladi.

(bit-ta, do-vuch-cha, is-siq, op-poq, lab-bay, mar-ra, qat-tiq, ham-ma, jiz-za.)

5. Mavzuni mustahkamlash

1. Ketma-ket kelgan bir xil undosh harfli soʻzlarni yoddan aytish musobaqasi.

Oʻquvchilarga ketma-ket kelgan bir xil undosh harfli soʻzlarni yoddan birma bir aytiriladi Aytolmagan oʻquvchi oʻyindan chiqib ketadi. Oxirida qolgan 5 oʻquvchi ragʻbatlantiriladi.

Masalan: ikki, sakkiz, qattiq,...

2. Oʻquvchilarga quyidagi savollar beriladi?

- Darsda nimalarni bilib oldingiz?

- Ketma-ket kelgan bir xil undoshli soʻzlarni qanday boʻgʻinga koʻchiramiz?

6. Baholash

-Darsda nimalarni bilib oldingiz?

Darsda faol ishtirok etgan oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi va baholanadi.

7. Uyga vazifa.

64-mashq Oʻqituvchi tomonidan tushuntirib beriladi.

Darsning texnologik xaritasi

| |
|--|
| Mavzu: Soʻz yasovchi qoʻshimchalar. |
| Mavzuga oid tayanch tushunchalar: -chi, la, - li, siz, - soʻz yasovchi qoʻshimchalar, oʻzak, oʻzakdosh soʻzlar Vaqt: 45 daqiqa. |
| Mavzuning qisqacha taʼrifi: oʻquvchilarga soʻz yasovchi qoʻshimchalar va ularni soʻzlarga qoʻshish orqali yangi maʼnoga ega boʻlgan soʻz hosil qilish haqida tushuncha berish |
| Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Dars turi: yangi bilim berish (mustahkamlash) Metod: suhbat, tushuntirish, muammoli izlanish, munozara. Shakl: jamoa, guruh bilan va har bir oʻquvchi bilan ishlash, Jihoz: slaydlar, darslik, tarqatma materiallar, rasmlar. Nazorat: ogʻzaki nazorat, savol-javob, kuzatish, oʻzini-oʻzi nazorat qilish. Baholash: oʻquvchilar 5 balli reyting tizimi asosida baholanadi. |

| Darsning maqsad va vazifalari | | | |
|---|--|--------------|-------------|
| Maqsadlar: | | | |
| <p>Ta'limiy: o'quvchilarni so'z yasovchi qo'shimchalar va ularni so'zlarga qo'shish orqali yangi ma'noga ega bo'lgan so'z hosil qilish haqida amaliy tanishtirish.</p> <p>Tarbiyaviy: bilim olishga rag'batlantirish orqali kelajakda komil inson bo'lib yetishishni targ'ib qilish.</p> <p>Rivojlantiruvchi: o'quvchilarda so'z yasovchi qo'shimchalar va ularni so'zlarga qo'shish orqali yangi ma'noga ega bo'lgan so'z hosil qilish ko'nikmasini shakllantirish.</p> | | | |
| Kutilayotgan natija: | | | |
| Dars yakunida o'quvchilar so'z yasovchi qo'shimchalar va ularni so'zlarga qo'shish orqali yangi ma'noga ega bo'lgan so'z hosil qilish bilan amaliy tanishadilar. | | | |
| Dars jarayoni va texnologiyasi | | | |
| Bosqich | Bajariladigan ish nomi | Metod | Vaqt |
| 1-bosqich. Tashkiliy qism | O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi. | Suhbat | 3 daqiqa |
| 2-bosqich. (Refleksiya) Ehtiyojlarni aniqlash | Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Baholash tartibi e'lon qilinadi. | Munozara | 2 daqiqa |
| 3-bosqich O'tilgan mavzuni mustahkamlash | a) Uy vazifasini tekshirish. b) O'tilgan mavzuni mustahkamlash. | Savol-javob | 5 daqiqa |

| | | | |
|-----------------------------------|--|--|--|
| 4-bosqich. Yangi mavzu bayoni. | 1. Yangi dars 167-mashq orqali tushuntiriladi va shartiga ko'ra bajartiriladi. 2. 168-mashq shartiga ko'ra bajariladi. 3. <i>Lug'at ishi olib boriladi</i> 4. Dam olish daqiqasi. 5. 169-mashq mustaqil bajartiriladi. | Suhbat Savol-javob Tushuntirish Suhbat Muammoli izlanish | 8 daqiqa 6 daqiqa 3 daqiqa 3 daqiqa 5 daqiqa |
| 5-bosqich. Mustahkamlash. | Rasmga qarab, kishilarning qanday kasb egasi ekanligini aytish. So'z yasovchi qo'shimchalarni aniqlash Tarqatma materiallar asosida berilgan so'zlardan gap tuzish | Muammoli izlanish | 6 daqiqa |
| 6-bosqich. Baholash. | 1. O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reyting bali e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi. | | 1 daqiqa 1 daqiqa |
| 7-bosqich. Uyga vazifa | 170-mashq. Uyga vazifani o'quvchilarga tushuntirib beriladi. | Tushuntirish | 2 daqiqa |

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

a) Salomlashiladi.

b) Davomat aniqlanadi.

c) Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

- Komil inson deganda kimni tushunasiz?

- Komil inson bilim olishi kerakmi?

- Ko'p o'qish komillikka yetaklaydi. Shu gapga qo'shilasizmi?

Shundan so'ng darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: aziz o'quvchilar, darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam. Bular: 1. Intizom. 2. Ahillik. 3. Faollik. 4. Aniqlik. 5. O'ng qo'l qoidasi. 6. Boshqalar fikrini hurmat qilish (slyad namoyish etiladi).

2. Uyga vazifani mustahkamlash

O'qituvchi: o'quvchilar uyga qanday vazifa berilgan edi?

O'quvchi: uyga 166-mashq berilgan

O'qituvchi: hamma bajarib keldimi?

O'quvchilar:

O'quvchilarga birma-bir uyga vazifa o'qitiladi. To'g'ri bajarib kelgan o'quvchilar baholanadi.

3. Yangi mavzu bayoni (davomi)

O'qituvchi: 167-mashq shartiga ko'ra berilgan so'zlarda nechta so'z yasovchi qo'shimcha qatnashayotganligini aniqlash kerak. Buni bilish uchun biz har bir so'zni tahlil qilamiz.

"Bokschi" so'zida so'z yasovchi qo'shimcha qaysi?

- chi

"Fikrdosh" so'zidachi?

- dosh

(keyingi so'zlar ham shu tariqa tahlil etiladi).

Demak, berilgan so'zlarda nechta so'z yasovchi qo'shimcha bor ekan?

- 4 ta

Ushbu qo'shimchalarni nechta guruhga bo'lamiz?

4 ta

Demak, qo'shimchasi bir xil bo'lgan so'zlarni 4 ta guruhga bo'lib yozamiz.

Xattaxtada o'quvchilar husnixat bilan navbatma-navbat yozishadi. Qolgan o'quvchilar daftariga yozadi.

O'quvchilar berilgan so'zlar orasida o'zakdosh so'zlar bormi? Bor bo'lsa qaysilar? Bor. Bular: fikrdosh va fikrla. Ushbu so'zlarning o'zagini aniqlang - **fikr**. Unga qanday qo'shimchalar qo'shilgan? - **dosh**, - **la**

Ushbu so'zlarga so'roq beramiz.

Kim? - **fikrdosh**. Nima qil? - **fikrla**

Fikrdosh soʻzimiz qanday maʼnoni bildirmoqda? – **shaxsni**
 Fikrla soʻzi qanday maʼnoni bildirmoqda? – **shaxsni**
 Ular bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

Mazmuniga koʻra.

Demak, soʻz yasovchi qoʻshimchalar soʻzlarga qoʻshilib, boshqa yangi soʻz hosil qililar ekan.

168-mashq ogʻzaki bajariladi. Oʻquvchilar maqollarni oʻqib, soʻz yasovchi qoʻshimchalarni aniqlaydi.

1. Odobli bola elga manzur.
2. Suvsiz hayot boʻlmas.
3. Doʻsting bilan sirdosh boʻl, qilgan ishiga qoʻldosh boʻl.
4. Boʻzchi belbogʻga yolchimas

Maqol asosida lugʻat ishi olib boriladi

4. Dam olish daqiqasi

Darslikdagi 169- mashq mustaqil bajartiriladi va slayd yordamida tekshiriladi.

169-mashq.

| | |
|----------------|---|
| Ish chi | Mehnat bilan shugʻullanuvchi, oʻz qoʻl kuchi bilan hayot kечiruvchi kishi |
| Ish la | Ish bilan mashgʻul boʻlishga, mehnat qilishga undamoq |
| Ish fi | Ishni bor, yumushni kishi |
| Ish siz | Qiladigan ishi yoʻq. bekorchi |

TAHLILI.

| SOʻZLAR | MAʼNOSI | SOʻROGI |
|----------------|-----------------------|---------------------------------------|
| Ish chi | shaxsni bildirmoqda | Kim? soʻrogʻiga javob boʻladi |
| Ish la | Harakatni bildirmoqda | Nima qilmoq? soʻrogʻiga javob boʻladi |
| Ish fi | belgini bildirmoqda | Qanday? soʻrogʻiga javob boʻladi |
| Ish siz | belgini bildirmoqda | Qanday? soʻrogʻiga javob boʻladi |

169-mashq.

| | |
|-----------------|--|
| Boshla | Bitor ishga kirishishga undamoq |
| Boshliq | Buqʻdoy, arpa, kichki oʻsimliklarning poyasi uchida don hosil boʻladigan joy |
| Boshliq | Idara, tashkilotga bosh, hulk qiluvchi kishi, rahbar |
| Boshlihi | Bosh hulk qiluvchi, rahbar |

TAHLILI.

| SOʻZLAR | MAʼNOSI | SOʻROGI |
|-----------------|------------------------|---------------------------------------|
| Boshla | Harakatni bildirmoqda | Nima qilmoq? soʻrogʻiga javob boʻladi |
| Boshliq | tasarrufni bildirmoqda | Nima? soʻrogʻiga javob boʻladi |
| Boshliq | shaxsni bildirmoqda | Kim? soʻrogʻiga javob boʻladi |
| Boshlihi | shaxsni bildirmoqda | Kim? soʻrogʻiga javob boʻladi |

5. Mavzuni mustahkamlash

Bunda oʻquvchilarning ayrimlariga rasmlarga qarab gap tuzish, ayrimlariga tarqatma materiallarda berilgan soʻzlarga soʻz

yasovchi qo'shimchalarni mosini qo'shib, gap tuzish vazifasi beriladi.

Olingan javoblar asosida mavzu xulosalanadi.

So'z yasovchi qo'shimchalar so'zlarga qo'shilib, qanday so'zlar hosil qiladi?

Ma'no va shakl jihatdan umumiy qismga ega bo'lgan so'zlar nima deb ataladi?

6. Baholash

-Darsda nimalarni bilib oldingiz?

- ...

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

7. Uyga vazifa. 170-mashq. Tarkibida so'z yasovchi qo'shimchasi bo'lgan 2 ta so'z toping. Ular ishtirokida gap tuzish vazifasi beriladi.

Mavzu: Gap bo'laklari

Sinf: 4-sinf

Maqsad:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarning gap haqidagi bilimlarini umumlashtirish va mustahkamlash. Gap bo'laklari, ularning so'rog'i, gapdagi vazifasi haqidagi bilimlarini suhbat yordamida aniqlash.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda tabiatga mehr, undagi jonzotlarga muruvvat ko'rsatish tuyg'usini o'stirish. O'zining qilayotgan ishlariga javobgarlik hissini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: gapdagi so'zlarga so'roq berib, vazifasini aniqlash, so'larning o'z va ko'chma ma'nolarini farqlash ko'nikmalarini takomillashtirish. Berilgan she'rlarning qofiyasini topishni o'rgatish.

Dars turi: mustahkamlash, takrorlash.

Dars metodi: suhbat, aqliy hujum.

Dars jihozi: olma daraxti chizilgan ko'rgazma, she'r yozilgan ko'rgazma, tarqatma materiallar.

Darsning borishi:

O'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

Ma'naviyat daqiqasi.

Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani tekshirish, savol-javob va umumlashtirish.

O'qing. Matn nima haqida va nechta gapdan iborat? Matn maqsadiga ko'ra qanday gaplardan tuzilgan? Ajratilgan gaplarni ko'chiring. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turini qavs ichida yozing.

18-mashq.

Siz it bilan ilonning do'st bo'lishiga ishonasizmi?

Men ham ishonmasdim. Cho'ponning hikoyasi meni hayron qoldirdi.

Boboning iti har kuni bir vaqtda g'oyib bo'lib qolarkan. Kunlarning birida bobo itini kuzatibdi. U g'alati voqeaning ustidan chiqibdi.

It yo'g'onligi bilakdek keladigan ilon bilan o'ynayotgan ekan. It oyoqlari bilan ilonni goh yerga bosar, goh ko'tarar edi. Ilon ham itga erkalanib suykalardi.

Abdusaid Ko'chimovdan

Darslikdagi 19-mashq bajariladi. She'r ko'rgazmaga yozib xattaxtaga ilib qo'yiladi. O'quvchilarga she'r ifodali o'tiladi. Lug'at ustida ishlanadi. She'rni o'quvchilarga yoddan yozdiriladi.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Ularning qaysi gap bo'lagi ekanini aniqlang. **O'qiydi, keltiradi, topadi, so'ylaydi** so'zlari qanday ma'noda qo'llangan.

19-mashq.

Bunda **bulbul** kitob **o'qiydi**,

Bunda **qurtlar** ipak **to'qiydi**,

Bunda **ari** **keltiradi** bol

Bunda **qushlar** **topadi** iqbol.

Bunda qorlar taglarida **qish**

Bahor uchun **so'ylaydi** olqish.

Hamid Olimjon

Aqliy hujum: taqqoslang: o'quvchi o'qiydi – bulbul o'qiydi. So'zlar gapda qanday ma'nolarda qo'llanadi?

Tarqatma materillar tarqatiladi, bunda gaplar yozilgan bo'lib, bosh bo'lak aniqlantiriladi.

Bugun sinfimizda musobaqa bo'ldi.

Insholar tanlovida Malika g'olib chiqdi.

Maktabimizda yangi yil bayrami juda qiziqarli bo'ldi.

Oltin kuz fasli ham nihoyasiga yetdi.

Kechqurun tish yuvib uxlash kerak.

Doim bilim olish kerak.

Darslikdagi 20-mashq o'qitiladi, suhbat quriladi, bosh bo'laklar qanday so'roqlarga javob bo'lishi so'raladi.

20-mashq. Matnni o'qing.

Bog'da chiroyli kapalak guldan gulga qo'nardi. Karimjon do'ppisini uning ustiga otib, tutib oldi. Kapalak Karimjonning barmoqlari orasida tinmay pitirlardi.

Karimjon to'g'ri ish qildimi?

Gapning bosh bo'laklarini aniqlang. Bosh bo'laklar qanday so'roqlarga javob bo'ladi? Matnni ko'chirib, bosh bo'laklarning tagiga chizing. Gapning ikkinchi darajali bo'laklarini tushirib o'qing.

Gapning bosh bo'laklarini tushirib o'qing. Qolgan bo'laklar gap hosil qiladimi? Xulosa chiqaring. Gapning asosini qaysi bo'laklar tashkil qiladi?

Aqliy hujum:

Bosh bo'laklar gap hosil qiladimi?

"Ega va kesim gapning asosini tashkil etadi" degan qoida o'qiladi va tushuntiriladi.

Dam olish daqiqasi: topishmoq javobi topiladi.

Kichkina dekcha ichi to'la mixcha.

Ikki og'ayni yashaydi, bir-birini ko'rmaydi.

Teg desam tegmaydi, tegma desam tegadi.

Yer tagida oltin qoziq, u hammaga bo'lar oziq.

O'zi bitta, qulog'i to'rtta.

Qat-qat qatlama, aqling bo'sa tashlama.

Osti tosh, usti tosh, o'rtasida chandir bosh.

Tap-tap etadi, tagidan karvon o'tadi.

21-mashq bajariladi:

21-mashq. She'rni ifodali o'qing. Gaplarning maqsadga ko'ra turini ayting. Oxiriga undov belgisi qo'yilgan gaplar qanday ohang bilan o'qiladi?

Yaxshi niyat

Sening jajji yuraginda

Olam orzu ovozi.

Yaxshi niyat o'lmaydi hech,

Yuksak bo'lur parvozi.

O'g'limxursand. So'zlar shodon:

Yaxshi niyat o'lmaydi!

Yashasin-ay,

Yashasin-ay,

Endi urush bo'lmaydi!

Habib Rahmat

Uyga vazifa:

Uyga 22-mashq beriladi.

22-mashq. She'rni ifodali o'qing. Bolalar paxtani nimalarga o'xshatishgan?

Insholardan ko'chirmalar

Barno debdi: "Paxtamiz momiq parga o'xshaydi".

Ra'no debdi: "Paxtamiz xuddi zarga o'xshaydi".

Uni oppoq bulutga qiyos qilibdi Davron,

Muzqaymoqning o'zi u,- debdi xazikash Omon.

Kimdir "Paxta - non",- debdi,

Kim yozibdi "kunduz" deb.

"Tunda Oy - terimchi-yu,

Lo'ppi paxta - yulduz" deb.

Inshosini shundayin tugatibdi Shouzoq:

"Asli paxta qordekmas, dadamning sochidek oq"

Abdurahmon Akbar

Barnoning gapini ko'chiring. So'roqlar yordamida gapning bosh bo'laklarini aniqlang. Tagiga tegishlicha chizing. Siz paxtani nimaga o'xshatgiz keladi?

Bitta gap bilan yozing. Yozgan gapingizdagi bosh bo'laklarni aniqlang.

11. Baholash

O'quvchilar darsga qatnashishiga qarab baholanadi.

Dars mavzusi: So'z turkumlari haqida egallagan bilimlarni mustahkamlash.

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni ot, sifat, son, fe'l haqida egallagan bilimlarini boyitib, uni hayot bilan bog'lay olishga o'rgatish.

Tabiiyiy maqsad: mavzuning mohiyatini o'quvchilar ongiga yetkazib berish, ularda birodarlik, hozirjavoblik, topqirlik fazilatlarini tarbiyalab borish.

Darsning jihazlanishi: har bir guruh uchun topshiriqlar yozilgan konvert, "Sehri kvadratlar" ko'rgazmali quroli, rasmi raqamlar, savollar majmui, rag'bat kartochkalari.

Darsning shiori: "Kuch - bilim va tafakkurda"

I.A.Karimov

Darsning tashkil etilishi:

- a) salomlashish;
- b) davomatni aniqlash;
- d) sinf tozaligini tekshirish;

Baholash me'zonlari:

Qizil - 5 ball

Sariq - 4 ball

Yashil - 3 ball

Oq - 2 ball

Darsning borishi:

O'qituvchi: - Aziz o'quvchilar! Biz o'tgan darslarimizda so'z turkumlaridan ot, sifat, son, fe'l, olmosh, ya'ni so'z turkumlari yuzasidan barcha ma'lumotlarga ega bo'ldik. Bugungi darsimizda olgan bilimlarimizni mustahkamlaymiz. Buning uchun guruhlariga bo'linamiz.

Ajratish metodi. Har bir guruhga alohida konvert tarqatiladi. Konvertda ot, sifat, son, fe'l, olmosh so'z turkumlariga kiruvchi so'zlarga 10 tadan misol keltirilgan. So'zlar ikki daqiqa davomida guruhlariga ajratiladi, so'ng guruhlariga quyidagicha jadval tarqatiladi va shart bajarilgach, guruh sardori chiqib, jadvalni xattaxtaga ilib javoblarini izohlaydi.

| Ot | Sifat | Son | Olmosh | Fe'l |
|---|---|---|--|--|
| kitob gul o'qituvchi quyosh ota | oppoq nordon qiyshiq baland muloyim | to'rtinchi beshta to'qqizinchi uchta oltovlon | menga senga u bizning ularni | yozdi terdi kuyiladi so'zladi tingladi |

| Ot | Sifat | Son | Olmosh | Fe'l |
|---|---|--|---|---|
| daftar olma o'quvchi oy ona | moshrang achchiq yapoloq past aqlli | ikkinchi o'nta sakkizinchi oltita yetovlon | sendan ularga bizga unga sizdan | uxladi o'qidi yugurdi tushundi kechirdi |

| Ot | Sifat | Son | Olmosh | Fe'l |
|--|--|--|--|--|
| qalam dugona tarvuz farzand tuproq | shirin ola-bula dumaloq keng saxiy | yettinchi o'nta o'n birinchi ikkita birinchi | sizga bizdan mening sen birinchi | gulladi to'kildi so'zladi ishondi jilmaydi |

“Sehrli kvadrat” o'yini. Bu o'yinda quyidagi topshiriqlarni bajargan o'quvchi “sehrli kvadrat”ga yashiringan so'zni topish uchun bir dona harf yaratish huquqini qo'lga kiritadi. Bunda so'zning qaysi mavzuga doir ekanligi haqida urf bo'lgan yangi kasb nomi.

1-guruhga topshiriq:

Sodda, qo'shma, juft, takroriy otlarga bir daqiqa davomida beshtadan misol keltiring:

a) sodda otlar: kitob, gul, daraxt, osmon, o'quvchi.

b) qo'shma otlar: qorbo'ron, Beshariq, gultojixo'roz, sadarayhon, beshiktebratar;

d) juft otlar: ota-ona, aka-uka, yosh-qari, qo'ni-qo'shni, tevarak-atrof.

e) takroriy otlar: tovuq-povuq, osh-posh, qo'y-po'y, choy-poy.

2-guruhga topshiriq:

Atoqli, turdosh otlar, shaxs, o'rin-joy otlarining har biriga beshtadan misol keltiring.

a) atoqli otlar: Toshkent, Sirdaryo, Akbar, Abdujabbor, Navoiy.

b) turdosh otlar: o'qituvchi, shifokor, qalam, gilam, shahar;

d) shaxs otlar: paxtakor, sinfdosh, suvchi, oshpaz, ishchi;

e) o'rin-joy otlari: mehmonxona, mahalla, tuman, shahar, gulzor;

3-guruhga topshiriq: "Kim zukko" o'yini. Bu o'yinda har bir guruh ishtirokchilari to'rttadan harf aytish huquqiga ega bo'ladilar va o'quvchilar yashiringan so'zni topish asosida ot so'z turkumini takrorlaydilar.

Tadbirkorlik so'zining umumiy tahlili. (Bu sahifada o'quvchilar nazariy bilimlarini amalda qo'llaydilar).

1-guruhga topshiriq: Tadbirkorlik so'zining so'z tarkibi bo'yicha tahlil:

a) tad-bir-kor-lik so'zi to'rt bo'g'indan iborat;

b) tadbirkorlik so'zining o'zagi -tadbir, -kor – ot yasovchi qo'shimcha, -lik – mavhum ot yasovchi qo'shimcha.

2-guruhga topshiriq:

Tadbirkorlik so'zining marfologik tahlili.

Tadbirkorlik – ot, turdosh, ot, aniq ot, sodda ot, bosh kelishik, III shaxs birlikda.

3-guruh. Topshiriq:

Tadbirkorlik so'zining fonetik tahlili.

T – undosh harf, jarangsiz, portlovchi.

A – unli harf, til oldi.

D – undosh harf, jarangli, portlovchi.

I – unli harf, til oldi.

R – undosh harf, jarangli, sirg'aluvchi.

- K – undosh harf, jarangli, portlovchi.
- O – unli harf, til o‘rta.
- R – harf, jarangli, til oldi, sirg‘aluvchi.
- L – undosh harf, jarangli, til oldi, sirg‘aluvchi.
- I – unli harf, til oldi.
- K – undosh harf, jarangli, til orqa, portlovchi.
- So‘z 12 ta harf, 12 ta tovushdan iborat.

Test

1. To‘g‘ri yozilgan gapni belgilang.
 - a) Qog‘ozdan Doniyor qayiq yasadi.
 - b) Doniyor qog‘ozdan qayiq yasadi.
 - d) Qayiq qog‘ozdan yasadi Doniyor.
2. Qanday? Qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar qatorini belgilang.
 - a) qudratli, barno, suluv, dilbar.
 - b) chiroyli, diyor, davlat, yirik.
 - d) ulug‘, havo, qahramon, musaffo.
3. Topismoqda nechta son bor?

Bitta she‘rda sichqoncha
To‘rt besh harfni qo‘ydi.
Ma‘nosiga tushunmay,
Mazasi yo‘q, deb qo‘ydi.

 - a) 3 ta b) 2ta d) 4 ta
4. Otlarda nechta kelishik bor?
 - a) 6ta b) 5ta d) 7 ta
5. Qaysi qatordagi tahlil to‘g‘ri?
 - a) Mevalar g‘arq pishadi.
 - b) Mevalar g‘arq pishadi.
 - d) Mevalar g‘arq pishadi.
6. Fe‘llarda nechta zamon bor.
 - a) 4ta b) 3ta d) 5ta

Rasm asosida “Ertaklar olamiga sayohat” matnini yaratish (Bunda o‘quvchilarning yetarli darajada so‘z boyligi, o‘rgangan mavzularni amalda qo‘llay olish, so‘zlarni o‘rinli va me‘yorida ishlatish, tasvirli vositalardan unumli foydalanish, matn yaratish

boyligi kabi ko'nikma va malakalar sinaladi). Sifatni topib, tagiga chizish topshiriladi.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim o'tgan zamonda Abdulla o'simli bir cho'pon bo'lgan ekan. U juda oqko'ngil, sodda va mehribon inson sifatida qishlog'ida nom qozongan ekan. O'sha qishloqda Sarvar degan bir yosh yigit yashar ekan. U cho'pon yigitni ko'rolmas, unga har doim yomonlik tilar ekan...

Shu tariqa matn davom etadi.

"Ha" yoki "Yo'q" o'yingi

Har bir guruh sardoriga 10 ta savol beriladi. Bu o'yinda hozirjavoblik talab qilinadi. To'xtab qolgan yoki noto'g'ri javob bergan guruhning balli pasaytiriladi.

1-guruh.

1. Ot narsaning belgisini bildiradimi? – Yo'q.
2. Sifat kim? nima? so'rog'iga javob boladimi? – Yo'q
3. Ot gapda ega vazifasida keladimi? – Ha.
4. -chi qo'shimchasi ot yasovchi qo'shimchami? - Ha.
5. Tustovuq so'zi qo'shma gapga kiradimi? – Ha.
6. Sonlarning hammasi raqamlar bilan yoziladimi? – Yo'q.
7. Men, sen, u olmoshlari ko'p shaxsni bildiradimi? – Yo'q.
8. Toshkent so'zi o'rin joy oti hisovlanadimi? – Yo'q.
9. Guli so'zi atoqli otga kiradimi? – Yo'q.
10. Mashrang so'zi maza – ta'mga kiradimi? – Yo'q.

2-guruh.

1. Sifat narsaning belgisini bildiradimi? – Ha
2. Son qanday? qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladimi – Yo'q.
3. Bog'bon so'zi shaxs otiga kiradimi? – Ha
4. -mi, -imiz egalik qo'shimchasiga kiradimi? – Ha
5. O'quvchilar so'zi birlikda kelganmi? – Yo'q
6. Daraxt so'zi atoqli otmi? – Yo'q
7. Bosh kelishikning qo'shimchasi bormi? – Yo'q
8. Achchiq, nordon so'zi maza – ta'mga kiradimi? – Ha
9. Bog' so'zi sodda otga kiradimi? – Ha
10. Ishchi so'zi narsa harakatini bildiradimi? – Yo'q.

3-guruh.

1. Fe'l narsaning nomini bildiradimi? – Yo'q.
2. Ega, kesim gapning bosh bo'laklariga kiradimi? – Ha
3. Qo'shma otlarning barchasi qo'shib yoziladimi? – Yo'q.
4. Biz, siz, ular olmoshlari ko'plik shaxsni bildiradimi? – Ha.
5. Yam-yashil, bus-butun so'zlari shaxs otiga kiradimi? – Yo'q.
6. Xiva orol nomimi? – Yo'q
7. Adabiyotshunoslar so'zi qo'shma otga kiradimi? – Ha.
8. Muloyim so'zi xil-xususiyatga kiradimi? – Ha.
9. Yigirma birinchi asr so'zi rim raqami bilan yoziladimi? – Ha.
10. Paxtakorlar so'zi birlikda kelganmi? – Yo'q.

Uyga vazifa:

4-sinf «O'qish kitobi»dan biron badiiy asardan parcha ko'chirib, undagi ot, sifat, son, fe'llarni topib, tagiga chizish topshiriladi. O'quvchilarning ishlari baholanib, dars davomida faol qatnashganlar rag'batlantiriladi.

Mavzu: Uyushiq bo'laklarning bog'lanishi.

Darsning maqsadi: a) o'quvchilarning uyushiq bo'lakli gaplarni sanash ohangli bilan o'qishga, uyushiq bo'laklarni bog'lovchi vositalar bilan to'g'ri bog'lashga, yozuvda tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olishga o'rgatish; b) bolalarda axloqiy xislatlarni egallashga intilish uyg'otish, o'quvchilarda tabiatni sevish, tabiatdagi o'simliklar-u hayvonlarga nisbatan ijobiy munosabat va mehr hissini uyg'otish. Ularga g'amxo'rlik tuyg'usini uyg'otish.

Dars turi: yangi bilim berish dars.

Dars metodi: til materiallarini kuzatish, suhbat metodi.

Darsning jihozlari: uyushiq bo'lakli gaplar yozilgan ko'rgazma.

Darsning borishi.

1. Uyga berilgan 53-mashq topshirig'iga ko'ra, o'quvchilar tuzib kelgan gaplarini o'qiydi:

- Uyushiq bo'laklarni ayting. Ular qanday so'roqlarga javob bo'lgan?

- Gapda qaysi bo'laklar uyushib kelgan?

- va so'zi bilan bog'langan uyushiq bo'laklar orasiga biror tinish belgi qo'ydingizmi? kabi savol-topshiriqlar asosida o'quvchilarning uyushiq bo'laklar haqidagi bilimi aniqlanadi.

2. Xattaxtaga yoki kartonga 54-mashqdagi gaplar yozib qo'yiladi. Gaplar ustida o'quvchilar bilan quyidagicha ishlanadi:

O'qituvchining vazifasi: o'quvchilarni izlanishiga majbur qiluvchi savollar bilan yangi mavzuni ularning o'ziga bayon qildirish.

Gaplarning ohangiga e'tibor berib o'qing, uyushiq bo'laklarni so'roq berib aniqlang.

Uyushiq bo'laklar orasidagi so'zlar qanday vazifa bajaryapti?

Qaysi so'zlar uyushiq bo'laklarni bog'lasa, vergul ishlatilishini ayting. Vergul qayerga qo'yiladi?

O'quvchining vazifasi oldingi darslarda egallagan bilimlarini eslash, fikrlash va xulosa chiqarishdir.

Ifodali o'qiydi:

qanday? yozish – *aniq, to'g'ri yozish;*

qayerda? *odobli bo'ling – uyda, ko'chada odobli bo'ling;*

men nima qildim? – men ko'rdim, lekin so'zlasha olmadim.

“Yoritadi, biroq isitmaydi” va, lekin, biroq so'zlari uyushiq bo'laklarni bir-biriga bog'laydi. Lekin, biroq bilan bog'lansa, uyushiq bo'laklar orasiga vergul qo'yilmaydi.

Kuzda barglar sarg'ayadi, to'kiladi. Bu gapda uyushiq bo'laklar qanday bog'lanadi?

(Bu savolga o'quvchilar javob bera olmaydilar. O'qituvchining o'zi aytib beradi.)

O'quvchilarga darsliklardagi qoida o'qitiladi.

O'qituvchi:

- yuqoridagi misollar orqali uyushiq bo'laklarni qanday bog'lanishi haqida tushuncha hosil qildingiz. Uyushiq bo'laklar va yordamida bog'lansa, ular orasiga vergul qo'yilmaydi, ammo, lekin, biroq so'zlari yordamida bog'lansa, vergul qo'yiladi.

3. Darslik bilan ishlash. 55-mashq. O'quvchilar 2 guruhga bo'linadi. Har bir guruh 1 ta she'riy parchani ifodali o'qiydi va yozadi. She'rdagi uyushiq bo'laklarni topib, qanday bog'langanini tushuntiradi. Guruhning o'zi tanlagan o'quvchi she'rni xattaxtada

husnixat bilan yozib, uyushiq bo'laklarni bog'lagan tinish belgilarini to'rtburchak ichiga oladi, tushuntirish beradi. Faol qatnashgan guruh rag'batlantiriladi.

56-mashq. O'quvchilar matnni o'qiydi. Matnga sarlavha toradi. So'roq yordamida uyushiq bo'laklarni topadilar.

(Nima qildi? *boshladi, lekin charchadi; jirafaga, bo'riga va tulkiga* so'zlar uyushib kelgan.)

4. Uyga vazifa. O'quvchilar uyushiq bo'lakli gaplarni ko'chirib, bog'lovchi vositalarning, vergulning ishlatilishini tushuntiradi.

57-mashq. Chizmaga mos gaplar tuzish kerakligi tushuntiriladi.

Namuna:

Nodira tez va ravon o'qiydi.

5. Darsni yakunlashda test yoki mustaqil ishdan ham foydalanish mumkin.

Mustaqil ish.

Berilgan gaplardagi uyushiq bo'laklarni orasiga va, ammo, lekin so'zlaridan mosini qo'yib yozing.

Anvar, Islom – Tohir qushlarga in yasashdi.

Ko'chada Lolani ko'rdim, – gaplashdim.

Odamlar bilan xushmuomala bo'ling, sergap bo'lmang.

Mustaqil ish yuzasidan suhbat o'tkaziladi.

1-gapdagi uyushiq bo'laklarga so'roq bering. Uyushiq bo'laklar qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan? (Kim? *Anvar, Islom, Tohir*. Ot bilan ifodalangan.)

Uyushiq bo'laklar gapda qanday vazifada kelgan? (Ega bo'lib kelgan.)

Birinci gapdagi uyushiq bo'laklar orasiga qaysi so'zni qo'ydingiz? (va so'zni qo'ydik.)

O'ylang, va so'zi qanday vazifani bajaryapti? va so'zi yozilgan o'rinda vergul qo'yiladimi? (va so'zlarini bir-biriga bog'langan. U yozilgan o'rinda vergul qo'yilmaydi.)

2-gapdagi uyushiq bo'laklarga so'roq bering. Qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan, gapdagi vazifasini aniqlang. (Nima qildim? ko'rdim, gaplashmadim. Fe'l so'z turkumi bilan ifodalangan. Gapda kesim vazifasida kelgan.)

Uyushiq bo'laklar orasiga qaysi so'zni qo'ydingiz? (*lekin so'zini qo'ydik.*)

lekin so'zi ham uyushiq bo'laklarini bog'laydimi? Uyushiq bo'laklar orasida *lekin* so'zi qo'lansa vergul qo'yiladimi yoki qo'yilmaydimi? (*lekin* so'zi uyushiq bo'laklarni bog'laydi, *lekin* so'zidan oldin vergul qo'yiladi.)

Test

1. Ega uyushib kelgan gapni belgilang.

A. Bugun majlisda o'qituvchilar va ota-onalar qatnashdilar.

B. Biz jismoniy tarbiya darsida yugurdik, sakradik.

2. *ammo* bilan bog'langan uyushiq bo'lakli gaplarni belgilang.

A. Akrom o'qidi, ammo yozmadi.

B. Gulzorda oq, qizil pushti gullar ochilgan.

O'quvchilarni rag'batlatirish.

O'QISH DARSLARINI ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH VA O'TKAZISHGA DOIR DARS ISHLANMALAR

Darsning texnologik xaritasi

| | | | |
|---|-------------------------------|--------------|-------------|
| Mavzu: Qorqiz (Anvar Obidjon) | | | |
| Mavzuga oid tayanch tushunchalar: qorqiz, oppoq, qorbobo, oqqiz, olmos qor. | | | |
| Vaqt: 1 soat | | | |
| Mavzuning qisqacha tahrifi: she'rda qorqizga turlicha ta'rif berilgan. Kiyimlari, yolaklari olmos qordan ekanligi, ko'ngli yumshoq ekani tasvirlangan. | | | |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: | | | |
| Dars turi: yangi bilim berish, she'r o'tish darsi. | | | |
| Metod: suhbat, ifodali o'qish, tushuntirish, tarmoqlash, muammoli izlanish, munozara. | | | |
| Shakl: jamoa, guruh bilan ishlash | | | |
| Jihoz: she'r asosida tayyorlangan slayd, qish fasli tasvirlangan rasm-plakatlar, darslik. | | | |
| Nazorat: o'quvchilarning darsdagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. | | | |
| Baholash: o'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi. | | | |
| Darsning maqsad va vazifalari | | | |
| Maqsadlar: | | | |
| Ta'limiy: o'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish. Qish fasli qahramonlari haqida ma'lumot berish. | | | |
| Tarbiyaviy: tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, o'zaro munosabatlar etikasini o'rgatish. | | | |
| Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning to'g'ri, ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish. Vatanga, tabiatga muhabbat tuyg'ularini mustahkamlash. | | | |
| Kutilayotgan natija: | | | |
| Dars yakunida o'quvchilar she'rni to'g'ri va ifodali o'qish malakasiga ega bo'ladi. Yangi so'zlarni tushunib oladi, nazmiy materiallarni tahlil qilishga o'rganadi. | | | |
| Ijobiy axloqiy sifatlarni o'zlashtiradi. | | | |
| Dars jarayoni va texnologiyasi | | | |
| Bosqich | Bajariladigan ish nomi | Metod | Vaqt |

| | | | |
|--|--|---|--|
| 1-bosqich. Tashkiliy qism | O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi. | Suhbat | 2 daqiqa |
| 2-bosqich. (Refleksiya) Ehtiyojlarni aniqlash | Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi. | Munoz ara | 2 daqiqa |
| 3-bosqich. Darsning borishi | 1. O'tgan dars so'raladi, o'quvchilar bilimi baholanadi. 2. Yangi darsni o'qishga tayyorgarlik va bolalar shoiri Anvar Obidjon haqida ma'lumot berish. 3. O'qituvchi "Qorqiz" she'rini ifodali o'qib beradi. She'rning mazmuni ustida ishlanadi. 4. Lug'at ishi 5. O'quvchilarga she'r o'qitiladi. She'rning mazmuni tushuntiriladi. | Savol- javob (tarqat- ma material asosida) Suhbat Ifodali o'qish Muno- zara | 5 daqiqa 5 daqiqa 6 daqiqa 5 daqiqa 6 daqiqa |
| 4-bosqich. Mustahkam lash | 1. Darslikdagi savollarga javob topiladi. 2. She'rdagi tasviriy vositalar, topishmoq va tez aytish ustida ishlanadi. | Muam- moli izlanish | 5daqiqa 4daqiqa |
| 5-bosqich. Baholash Darsni yakunlash | O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, ballari e'lon qilinadi va dars yakunlanadi. | | 2 daqiqa |
| 6-bosqich. Uyga vazifa | She'rni yod olish va mazmuniga mos rasm chizish. | Tushun- tirish | 2 daqiqa |

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism: Salomlashiladi. Davomat aniqlanadi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

Shundan so'ng darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam. Bular: 1. Intizom, 2. Ahillik. 3. Faollik. 4. Aniqlik. 5. O'ng qo'l qoidasi. 6. Boshqalar fikrini hurmat qilish (slyad namoyish etiladi).

O'tgan mavzuni mustahkamlash uchun "DAVOM ETTIR" o'yini o'ynaladi.

Javoblar olinganidan so'ng o'qituvchi tomonidan o'quvchilar baholanadi. O'tgan mavzu o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligi xulosalanadi.

3. Yangi mavzu bayoni:

Xattaxtaga "Qorqiz" (Anvar Obidjon) deb yoziladi.

- She'r muallifi kim ekan? U haqida nimalarni bilasiz?

- ...

Anvar Obidjon. Shoir, nosir, dramaturg Anvar Obidjon Farg'ona viloyati Oltiariq tumanining Poloson qishlog'ida 1947-yil 25-yanvarda oddiy xizmatchi oilasida tug'ilgan.

Uning birinchi kitobi 1974-yilda "Ona yer" nomi bilan "Yosh gvardiya" nashriyatida chop etilgan. Uning quyidagi kitoblari nashr qilingan: "Masxaraboz bola" (1980), "Bahromning hikoyalari" (1984), "Olovjon va uning do'stlari" (1983), "Juda qiziq voqea" (1987), "Oltin yurakli bola" (1988), "Dahshatli Meshpolvon" (1980).

Anvar Obidjon 1998-yil O'zbekiston Xalq shoiri unvoniga sazovor bo'lgan.

She'rni o'qituvchi ifodali o'qib beradi.

She'r yuzasidan kirish suhbat:

-She'r nima haqida ekan?

- ...

-She'rdagi qorqizni ta'riflang

~...

- Uning nomi nima uchun “qorqiz?”

Dam olish daqiqasi otkaziladi.

She’r ustida ishlash

4. Lug’at ishi

Yo’lak – ko’cha eshigidan hovliga olib boradigan yo’l

Olmos – yaltiroq qimmatbaho tabiiy tosh

Toj – qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bosh kiyim

Qorgan – yasagan, aralashtirilgan

G’irt – juda, nihoyatda

Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

Tasviriy vositalar bilan ishlash. She’rdagi “*ko’nglim yumshoq qaynoqdir*” jumlasini o’quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.

O’quvchilarga she’rdan quyidagicha aytilishi o’xshash bo’lgan so’zlarni topish topshiriladi.

YO’LAKLARIM – KO’YLAKLARIM

SOCHLARIM - TOJLARIM

Tez aytish aytiriladi.

Shirinning shirin choyiga shiringina shirmoy non!

Darsda faol ishtirok etgan o’quvchilar rag’batlantiriladi va baholanadi.

Uyga vazifa.

She’rni yod oling. She’r mazmuniga mos rasm chizing.

Ertak darsi ishlanmasi

Sana:

Sinf: 2-sinf

Fan: o’qish

Mavzu: “Yaxshilikka yomonlik” (O’zbek xalq ertagi)

Dars maqsadi:

Ta’limiy: o’quvchilarga yaxshi va yomon fazilatlar haqida ma’lumot berish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarni yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarishga o'rgatish

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish, og'zaki nutqini o'stirish va lug'at boyligini oshirish.

Dars turi: yangi bilim berish, ertak o'tish darsi

Dars shakli: jamoa, individual ish.

Dars metodi: suhbat, savol-javob, izohli o'qish, "Tarmoqlash" metodi, tanlab o'qish, qayta hikoya qilish,


Dars jihozi: ilon va tulkinging rasmi, ertakka mos rasmlar.

Darsning borishi:

O'qituvchi darsga kirib o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni aniqlaydi. Uyga yodlab kelgan hikmatlarni so'rash va ma'nosini izohlash. O'qituvchi o'tgan darsdagi bilimlarini savollar orqali bilib oladi.


1. Chumoliga kim yordam berdi?
2. Keksa kishi qanday tush ko'rdi?
3. Hikmat deb qanday so'zlarga aytiladi?

O'qituvchi xalq o'g'zaki ijodiga o'quvchilar bilimlarini oshirish maqsadida ta'rif beradi. Xalq o'g'zaki ijodiga ertaklar, masallar, topishmoqlar, maqollar kiradi. Bu asarlarni xalq yaratgan. Ular og'izdan og'izga asrlar davomida o'tib kelganligi uchun xalq og'zaki ijodi deb nomlangan. Bugun biz "Yaxshilikka yomonlik" ertagini o'qiyviz. Bolalardan "yaxshilik deganda nimani tushunasiz", - deb so'raydi va tarmoqlaydi:



Saxiy - kishilardan hech narsasini ayamaydigan, hotam.
Mehnatkash - mehnat qilib charchamaydigan, mehnatsevar.
Rahmdil - birovga ozor bermaydigan, ko'ngli yumshoq.
Kamtar - maqtanishni istamaydigan, mag'rurlanmaydigan.

Endi esa yomon fazilatlarni tarmoqlaymiz.



Baxil - birovga hech narsani ravo ko'rmaydigan, qizg'anchiq, xasis.

Yolg'onchi - yolg'on gapiradigan odam, aldamchi.

Chaqimchi - kishining gapini birovga yetkazuvchi, gap tashuvchi.

Dangasa - ishyoqmas, tanbal, yalqov.

O'quvchilar matnni tushunishga qiynalmasligi uchun oldindan lug'at ishi qilinadi. Notanish so'zlarni o'qituvchi xattaxtaga yozib, izohlab qo'yadi. Xattaxtadagi so'zlarni yaxshilab tushunib olishini va bu so'zlar hozirgi o'qiydigan ertakda ishtirok etishini aytadi.

Sahro - o'simlik juda kam yoki mutloqa yo'q bepoyon cho'l.

Safarga chiqmoq - biror yerga sayohat yoki ish bilan bormoq.

Noxush - kayfiyati yomon.

Ajablanmoq - hayron bo'lmoq.

Zarb bilan urmoq - qattiq urmoq.

O'qituvchi ertakni izohli o'qib beradi. O'quvchilarga ertakni diqqat bilan tinglash aytiladi. So'ng ilon, tulki va ertakka mos rasmlar xattaxtaga ilib qo'yiladi. O'quvchilardan ertak mazmuni qisqa savollar orqali so'raladi.

- Ertak sizga yoqdimi?
- Qaysi qahramon yoqdi? Nima uchun?
- Tuya mingan kishi nimani ko'ribdi?
- U ilonni qanday qilib qutqaribdi?
- Nima uchun ilon halok bo'ldi?

Ana bolajonlar, yaxshilikka yomonlik qilganning jazosi shunday bo'ladi. Shuning uchun doimo bir-biringizga yaxshilik qilinglar.

Mustahkamlash

O'qituvchi o'quvchilarni ismlarini birma-bir aytib tanlab o'qittiradi:

- Ilon yordam so'ragan joyini topib o'qing.
- Ilonga yordamga kelgan joyini topib o'qing.
- Ilon yomonlik qilmoqchi bo'lgan joyini topib o'qing.
- Tulki kelgan joyini topib o'qing.
- Tulkining kishiga aytgan so'zini topib o'qing.

Qolganlariga matnni kuzatib borish aytiladi. Tanlab o'qimagan o'quvchilardan ertakni o'g'zaki qayta hikoyalab berish talab qilinadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda ertakni uch qismga bo'ladi va har bir qism uchun sarlavha topiladi. Tuya mingan kishini ilonni qutqargan joyigacha bitta sarlavha topamiz. Yaxshilik deb sarlavha qo'yamiz. Ilonni yomonlik qilmoqchi bo'lgan joyidan tulki kelgan joyigacha ikkinchi sarlavhani qo'yamiz. Yomonlik deyishimiz mumkin. Qolgan qismiga esa yomonlikning jazosi deb qo'yamiz. O'qituvchi ertakka nima uchun "Yaxshiga yondash, yomondan qoch" maqoli keltirilganligini so'raydi va o'quvchilar aytgan fikrlarni umumlashtirib, shu ertakka yana qanday maqollar qo'yish mumkinligini so'raydi.

Darsni yakunlash.

Darsda hamma o'quvchilarning faolligi kuzatib boriladi. Darsda o'quvchilarni tanlab o'qiganda, qayta hikoyalaganda va savollarga javob berganiga qarab o'quvchilarni baholaydi. Uyg

vazifa ertakni qayta hikoyalab kelishga tayyorlanib o'qib kelishni beradi.

Darsning texnologik xaritasi

| | | | |
|--|--|--------------|-------------|
| Mavzu: Biz - buyuklar avlodi | | | |
| Mavzuga oid tayanch tushunchalar: shu bo'limdagi barcha mavzularga doir tushunchalar. | | | |
| Vaqt: 1 soat | | | |
| Mavzuning qisqacha ta'rifi: O'rganilgan barcha buyuk allomalarni takrorlash. | | | |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: | | | |
| Dars turi: umumlashtirish. | | | |
| Metod: suhbat, ifodali o'qish, tushuntirish, tarmoqlash, o'yin, muammoli izlanish, munozara, krossvord, test | | | |
| Shakl: jamoa, guruh bilan ishlash | | | |
| Jihoz: darslik, rasm-plakatlar, rag'bat kartochkalari, qirqma plakatlar, tarqatma materiallar. Boshqotirma, rebus. | | | |
| Nazorat: o'quvchilarning darsdagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. | | | |
| Baholash: o'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi. | | | |
| Darsning maqsad va vazifalari | | | |
| Maqsadlar: | | | |
| Ta'limiy: o'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish. Lug'atini boyitish. Bo'lim yuzasidan olingan bilimlarini mustahkamlash. | | | |
| Tarbiyaviy: o'quvchilarga buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish hissini uyg'otish, ularning qilgan ishlari, qoldirgan boy ma'naviy merosini o'rganishga qiziqishni tarbiyalash. | | | |
| Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning to'g'ri, ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish. Vatanga muhabbat hissini uyg'otish. | | | |
| Kutilayotgan natija: | | | |
| Dars yakunida o'quvchilar matnни to'g'ri va ifodali o'qish malakasiga ega bo'ladilar. Shu bo'limda o'rgangan bilimlarini sinovdan o'tkazadilar, Bilmaganlarini o'rganishga kirishadilar. | | | |
| Dars jarayoni va texnologiyasi | | | |
| Bosqich | Bajariladigan ish nomi | Metod | Vaqt |
| 1-bosqich. Tashkiliy qism | O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. | Suhbat | 2 daqiqa |

| | | | |
|--|--|---|--|
| | Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi. | | |
| 2-bosqich. (Refleksiya) Ehtiyojlarni aniqlash | Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi. | Munozara | 2 daqiq |
| 3-bosqich. Darsning borishi | 1. Dars ochiq tarzda o'tadi. Amir Temur, Navoiy, ibn Sino, Ulug'bek, Bobur hayoti va ijodi haqida suhbat o'tkaziladi. 2. Hikoyalar mazmuni asosida ishlanadi. 3. Allomalarning o'g'itlari va hikmatli so'zlari ustida ishlash. 4. Lug'at ishi 5. Tez aytish musobaqasi. Metodik o'yinlar asosida olib boriladi. 6. Topishmoq aytish musobaqasi uyushtiriladi. | Savol-javob (tarqatma materiallar asosida) Suhbat Ifodali o'qish Munozara | 5 daqiq 5 daqiq 6 daqiq 5 daqiq 6 daqiq |
| 4-bosqich. Mustahkamlash | 1. Yakuniy suhbat 2. Darslikdagi savollarga javob topish. 3. Boshqotirma bilan ishlash. | Muammoli izlanish | 5 daqiq 4 daqiq |
| 5-bosqich. Baholash. Darsni yakunlash | O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, ballari e'lon qilinadi va dars yakunlanadi. | | 2 daqiq |
| 6-bosqich. | Ertakni o'qib mazmunini gapirib berish. | Tushuntirish | 2 daqiq |

Mavzu: Biz – buyuklar avlodi.

Darsning maqsadi:

1. "Biz – buyuklar avlodi" bo'limi yuzasidan o'quvchilar egallagan bilimlarni tizimga solish.

2. O'quvchilarning bo'lim yuzasidan olgan bilimlarini takrorlash, umumlashtirish.

3. Bo'lim yuzasidan egallagan bilimlarning hayotdagi ahamiyatini tushunishlariga, ajdodlardan qolgan meroslarni o'qib, ularni izohlay olishga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: o'qish jarayonida tartiblilikka o'rgatish. O'quvchilarda mehnat turmush tarziga qiziqishni tarbiyalash. Sinf jamoasidagi do'stonalik ruhini qo'llab-quvvatlash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish.

Dars turi: umumlashtiruvchi dars.

Dars metodi: tushuntirish, izohli o'qish, muammoli o'qish, tarmoqlash, o'yin, savol-javob, test, krossvord.

Darsning jihozi: darslik, slayd, rag'bat kartochkalari topshiriq kartochkalar, savol kartochkalari, rasmi ko'rgazmalar.


Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

- 1) Salomlashiladi.
- 2) Davomat aniqlanadi.
- 3) Ob-havo haqida suhbat.
- 4) O'quvchilar darsga hozirlanadi.

Shundan so'ng darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam. Bular:



Bo'lim mazmuni tushuntiriladi.

O'qituvchi bugun dars davomida qilinadigan ishlar haqidagi olgan bilimlaringizni mustahkamlaymiz.

- Biz shu vaqtgacha buyuk bobolarimizdan kimlar bilan tanishdik? (Amir Temur, Navoiy, Ibn Sino, Ulug'bek, Bobur)

O'quvchilar guruhlariga bo'linadilar.

1-guruh - "Donolar", 2-guruh - "Bilimdonlar".

1-topshiriq: o'quvchilarga allomalar rasmi ko'rsatiladi. Ular rasmdagi ajdodimiz kimligini aytadi va u haqida ma'lumot beradi.



1-topshiriq baholanadi

2-topshiriq:

"Olmani terib ol" o'yini.

O'quvchilar allomalar hayoti yuzasidan savollar yozilgan mevalarni olib, savollarga javob beradi.

Savollar:

- Amir Temur qachon tavallud topgan?
- Amir Temur qanday kishi bo'lgan?
- Alisher Navoiy qachon tavallud topgan?
- Alisher Navoiyning qanday asarlarini bilasiz?
- Bobur qayerda tavallud topgan?
- Boburning Hindistonda o'z yurtini sog'inib yozgan

ruboiysini aytib bering.

- Ibn Sino...

- Mirzo Ulug'bek...

3-topshiriq: "Davom ettir" metodi.

1-guruh. "Donolar" Amir Temur o'g'itlari, 2-guruh "Bilimdonlar" Alisher Navoiy hikmatlari ustida ishlaydi.

Davom ettirib, ma'nolarini tushuntirib beradi.

1-guruh.

1. Yaxshini...

2. Sodiq va vafodor do'st...

3. Qo'rqmasang,...

...

2-guruh

1. Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,...

2. Oz-oz o'rganib dono bo'lar,...

3. Yaxshilikni bilmasang,...

...

Darslikdagi "Amir Temur" va "G'azal mulkingning sultoni" mavzusida berilgan savollar ustida ishlanadi.

4-topshiriq:

Boshqotirma.

Guruhlarga bir xil boshqotirma beriladi. Tez va to'g'ri bajargan guruh g'olib sanaladi.

5-topshiriq:

Guruhlarga asarlar beriladi. Asarlar yuzasidan savollar tuzilib, raqib guruhdan savollariga javob oladi.

1-guruh "Alisherning yoshligi", 2-guruh "Kitobga mehr".

1-guruh

- Alisherga kiyikni kim olib kelib bergan ekan?

- Dashtdan Alisherga tog'asi nima olib kelib beribdi? ...

2-guruh

- Husayn bozordan nima sotib oldi? ...

- Husayn kitobni kimdan sotib oldi? ...

6-topshiriq:

Amir Temur hayotiga bag'ishlangan gaplar yozilgan kartochka tarqatiladi. O'quvchilar esa "Amir Temur" hikoyasi asosida joylashtiradilar.

Taqdimot. Har bir guruhdan bir o'quvchi chiqib, o'zlari yozganlarini o'qib beradi. O'quvchilar o'zaro fikr almashadi. O'qituvchi ular fikrini to'ldirib boradi.

7-topshiriq:

Guruhlarga asarlar beriladi. O'quvchilar asardagi reja asosida mazmunini tushuntirib beradi.

1-guruh: "Non isi".

Reja:

1. Dunyodagi eng xushbo'y narsa.

2. Navoiyning saroyga tashrifi.

2-guruhga "Ona sabog'i" asari beriladi.

Reja:

1. Bobur va onasining suhbatlari.

2. Boburning savoliga onasining javobi.

8-topshiriq:

Topishmoq aytish musobaqasi.

1-guruh. Oyna emas, jimirlar,
Tek turolmas qimirlar.

2-guruh. Qat-qat qatlama,
Aqling bo'lsa, tashlama.

1-guruh. Tikuvchiga o'rtoq o'zi,
Bittagina jajji ko'zi.

2-guruh ...

9-topshiriq:

“Alisherning yoshligi” asari sahnalashtiriladi. Yaxshi qatnashgan guruh baholanadi. Qatnashchilar:

1. Alisher

2. Birinchi bola.

3. Ikkinchi bola.

10-topshiriq:

Ifodali o'qish musobaqasi.

Bunda o'qituvchi bo'limdan belgilab kelgan asarlarni o'qitadi.

- G'azal mulkining sultoni” hikoyasini o'qing?

- “Abu ali ibn Sino” hikoyasini o'qing?

- “Buyuk munajjim” hikoyasini o'qing?

- “Shoh va shoir” hikoyasini o'qing?


11-topshiriq:

Maqol tahlil qilinadi.

Keksalik-donishmandlik.


12-topshiriq:

Tarmoqlash:



13-topshiriq:

Allomalarga ta'rif.




14-topshiriq:

Darslikdagi savol va topshiriqlar ustida ishlash.


15-topshiriq: Boshqotirma.

Guruhlarga boshqotirma beriladi. Tez va to'g'ri bajargan guruh g'olib sanaladi

1-guruh.



2-guruh.




16-topshiriq:

Krossvord.

Krossvord ikkala guruhga ham beriladi, birinchi yechgan guruh g'olib bo'ladi.

17-topshiriq:

Tez aytish musobaqasi.



18-topshiriq:

TEST

1. Amir Temur qachon tavallud topgan?

A. 1336-yil

B. 1338-yil

- D. 1363-yil
2. Amir Temur qayerda tavallud topgan?
- A. Shahrisabzda
B. Samarqandda
D. Buxoroda
3. Alisher Navoiy qachon tavallud topgan?
- A. 1436-yil
B. 1448-yil
D. 1444-yil
4. Mirzo Ulug'bek kimning nevarasi bo'lgan?
- A. Amir Temur
B. Alisher Navoiy
D. Bobur
5. "Kuch adolatda" shiori kimga tegishli?
- A. Amir Temur
B. Alisher Navoiy
D. Bobur

Guruhning har bir tur topshirig'i bo'yicha to'plagan ballari e'lon qilinadi va g'olib guruh aniqlanadi. Faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi. Darsga yakun yasaladi.

Darsning texnologik xaritasi

| |
|--|
| Mavzu: Toshbaqa va quyon (G'ulom Muhammad Vosif) |
| Mavzuga oid tayanch tushunchalar: toshbaqa, quyon, landovur, ishyoqmas, jonivor, qadam, fursat, bosib o'tmoq, tanbal, ta'na toshi, marra, balandlik. |
| Vaqt: 1 soat |
| Mavzuning qisqacha ta'rifi: toshbaqa va quyon uchrashib qoladi. Quyon toshbaqaga "landovur, ishyoqmas", - deb ta'na toshini otadi. Toshbaqa unga chopishni taklif qiladi. Manzilga toshbaqa oldin yetib keladi. Quyon maqtanchoqligi uchun orqada qoladi. |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: |
| Dars turi: yangi bilim berish, masal o'tish darsi. |
| Metod: suhbat, ifodali o'qish, tushuntirish, muammoli izlanish, munozara, o'yin. |

| | | | |
|--|---|---|--|
| <p>Shakl: jamoa, guruh bilan ishlash</p> <p>Jihoz: masal asosida tayyorlangan slayd, toshbaqa va quyon tasvirlangan rasm-plakatlar, darslik.</p> <p>Nazorat: o'quvchilarning darsdagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.</p> <p>Baholash: o'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.</p> | | | |
| Darsning maqsad va vazifalari | | | |
| Maqsadlar: | | | |
| <p>Ta'limiy: o'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish. Lug'atini boyitish.</p> <p>Tarbiyaviy: hayvonlar haqidagi tushunchalarini boyitish, tabiyatga hayvonlarga do'stona munosabatda bo'lish, maqtanchoq yomon odat ekanligini bola ongida sundirishdan iborat.</p> <p>Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning to'g'ri, ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish. hayvonlarga, tabiatga do'stona muhabbat tuyg'ularini mustahkamlash.</p> | | | |
| Kutilayotgan natija: | | | |
| <p>Dars yakunida o'quvchilar masalni to'g'ri va ifodali o'qish malakasiga ega bo'ladi. Yangi so'zlarni tushunadi, nazmiy materiallarni tahlil qilishga o'rganadi.</p> <p>Ijobiy axloqiy sifatlarni o'zlashtiradi.</p> | | | |
| Dars jarayoni va texnologiyasi | | | |
| Bosqich | Bajariladigan ish nomi | Metod | Vaqt |
| 1-bosqich. Tashkiliy qism | O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfnig darsga tayyorligi tekshiriladi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi. | Suhbat | 2 daqiqa |
| 2-bosqich. (Refleksiya) Ehtiyojlarni aniqlash | Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi. | Munozara | 2 daqiqa |
| 3-bosqich. Darsning borishi | 1. O'tgan dars so'raladi, o'quvchilar bilimi baholanadi. 2. Yangi darsni o'qishga tayyorgarlik va masal haqida ma'lumot berish. 3. O'qituvchi "Toshbaqa va quyon" masalni ifodali o'qib beradi. masalning mazmuni ustida ishlanadi. | Savol-javob (tarqatma material asosida) Suhbat | 5 daqiqa 5 daqiqa 6 daqiqa |


| | | | |
|-------------------------------------|--|---------------------------|--------------------------|
| | 4. Lug'at ishi | Ifodali o'qish | 5 daqiqa |
| | 5. O'quvchilarga masala o'qitiladi. Masalning mazmuni tushuntiriladi. | Munoza- ra | 6 daqiqa |
| 4-bosqich. Mustahkam-lash | 1.Darslikdagi savollarga javob topiladi. 2.Hikmatli gapni o'qish vava uning mazmuni ustida ishlash. 3. Masaldagi tasviriy vositalar, topishmoq va tez aytish ustida ishlanadi. | Muam- moli izlanish | 5 daqiqa 4 daqiqa |
| 5-bosqich Baholash Darsni yakunlash | O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, ballari e'lon qilinadi va dars yakunlanadi. | | 2 daqiqa |
| 6-bosqich | Masalni o'qib mazmunini gapirib berish. va maqol, tez aytishlarni yod oliish. | Tushun- tirish | 2 daqiqa |

Darsning borishi:

1.Tashkiliy qism: salomlashiladi, davomat aniqlanadi. ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

Shundan so'ng darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam. Bular:



O'tgan mavzuni mustahkamlash She'r va yozuvchi shoir (Anvar Obidjon) yuzasidan suhbat o'tkazish.

- Anvar Obidjon qayerda tavallud topgan?
- Anvar Obidjonning qanaqa sherlar yozgan?
- Anvar Obidjonning qanaqa she'rlarini bilasiz?
- Yaxshi niyat she'ri nima haqida ekan?
- Avaz nimani xayol qilgan ekan?
- Avaz qanaqa orzular qildi?
- U niyatiga yetish uchun nima qilishi kerak?

1-topshiriq. Quyidagicha "DAVOM ETTIR" o'yini o'ynaladi.

Hammada ham...

Ko'kka boqar...

Qaylarga uchdi...

Qurar edim...

Javoblar olinganidan so'ng o'qituvchi tomonidan o'quvchilar baholanadi. O'tgan mavzu o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligi xulosalanadi.

3. Yangi mavzu bayoni:

Xattaxtaga "Toshbaqa va quyon" (G'ulom Muhammad Vosif) deb yoziladi.

- Masal muallifi kim ekan? U haqida nimalarni bilasiz? -

Masalni o'qituvchi ifodali o'qib beradi.

- Masal nima haqida ekan? -

- Quyon toshbaqaga nima dedi?

- Toshbaqa quyonga nima dedi?

- Quyon toshbaqaga nima deb maqtandi?

- Quyon nega toshbaqadan orqaga qoldi?

- Masaldagi quyon va toshbaqani ta'riflang -

Maqtanchoqlik yomon odat ekanligi o'quvchilarga aytib o'tiladi.

2-topshiriq. Tanlab o'qishdan foydalaniladi.

- Quyonning tashbaqaga aytgan so'zlaridan o'qing?

- Tashbaqaning quyonga aytgan so'zlaridan o'qing?

- Marrani belgilagan joyidan o'qing?

3-topshiriq. Noto'g'ri jumlani top o'yini o'tkaziladi.

O'qituvchi tomonidan o'qib beriladi. O'quvchilar noto'g'ri yozilgan gapni topadilar.

Quyong tashbaqaga qarab: Sendek landavur, ishyoqmas jonivorni umrimda ko'rgan emasman. Quyong shunda tipratikanga men sendan o'zib ketaman debdi. Toshbaqa manzilga quyondan oldin yetib kelibdi.

Bu yerda noto'g'ri jumla quyidagi;

Quyong shunda tipratikanga men sendan o'zib ketaman debdi.

4-topshiriq. Masal rollarga bo'lib o'qitiladi.

Quyong 1-qahramon, toshbaqa 2-qahramon, deb olinadi.

1-o'quvchi toshbaqa. 2-o'quvchi quyong. 3-o'quvchi muallif bo'ladi.

Dam olish daqiqasi otkaziladi.


5-topshiriq. "Yovvoyi va uy hayvonlari nomlarini topish" o'yini o'tkaziladi.

Bunda o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi.

1-guruh yovvoyi hayvonlar nomini, 2-guruh uy hayvonlar nomini varog'ga yozadi, eng ko'p topgan guruh rag'batlandiriladi.

Masal ustida ishlash

4. Lug'at ishi



5. Mustahkamlash.

Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

1. Quyong tashbaqaga nima dedi?
2. Toshbaqa quyonga nima dedi?
3. Quyong nega toshbaqadan orqaga qoldi?

6- topshiriq. Masal qahramonlariga ta'rif berish.

1. Quyon...

2. Toshbaqa...

Tasviriy vositalar bilan ishlash. Masaldagi "Meni tanbal deb ta'na toshini otma?" jumlasini o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.

Hikmatli so'z ustida ishlanadi. Uning mazmuni o'quvchilarga tushuntiriladi.

Vaqt kutib turmaydi, har bir daqiqani g'animat bil.

Topishmoq ham mustahkamlanadi.

Suvdan bo'lgan, qotsa,

Qani, suvga botsa. (muz)

"Chiq-chiq" der, yo'q to'xtovi,

Vaqtning aniq o'lchovi.

Topishmoqlar tahlil qilinadi.

7-topshiriq: O'quvchilardan bilgan topishmoqlari so'raladi. Javobini o'quvchilar birgalikda topishadi.

Tez aytish aytiriladi.

Tez aytgin-u, tez gapir,

Tez aytganga bir patir.

Tez aytish musobaqasi uyushtiriladi. Bunda o'quvchilar bir nafasda tez aytishni aytadi eng ko'p aytgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

8-topshiriq: Nima uchun metodi orqali masal mustahkamlanadi.

- Nima uchun quyon toshbaqadan orqada qoldi?

- Yo'lda uxlab qolgani uchun.

- Nima uchun quyon yo'lda uxlab qoldi?

- Toshbaqa sekin yurgani uchun.

- Nima uchun...

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

Uyga vazifa.

Masalni o'qib, mazmunini aytib berish. Topishmoq va tez aytishni yod olish. Toshbaqa va quyon rasmini chizish.

Darsning texnologik xaritasi

| | | | |
|---|--|--------------|-------------|
| Mavzu: Navro'z bayrami (ilmiy-ommabop asar) | | | |
| Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Navro'z, yangi kun, 21-mart, Navro'z bayrami, tabiat, chuchmoma, boychechaklar, sumalak, yalpiz, jag'jag', ismaloq, ko'katlar, ko'k somsa, tomosha, ko'chatlar ekish, ko'chalarni tozalash, hovli-joylarni supirish. | | | |
| Soatlar soni: 1 soat. | | | |
| Mavzuning qisqacha ta'rifi: Navro'z bayrami haqida hikoya. | | | |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: | | | |
| Dars turi: yangi bilim berish. | | | |
| Metod: suhbat, ifodali o'qish, tushuntirish, tarmoqlash, muammoli izlanish, munozara, o'yin. | | | |
| Shakl: jamoa, guruh bilan ishlash | | | |
| Jihoz: mavzu asosida tayyorlangan slayd, rasm-plakatlar, darslik. | | | |
| Nazorat: o'quvchilarning darsdagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. | | | |
| Baholash: o'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi. | | | |
| Darsning maqsadi | | | |
| Ta'limiy: o'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish. Lug'at boyligini oshirish. | | | |
| Tarbiyaviy: o'quvchilarga fasllar haqida ma'lumot berish. Bahor faslida qilinadigan bayramlar haqida suhbat. Navro'z bayrami, milliy udumlar, urf-odatlar bilan tanishtirish. | | | |
| Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning to'g'ri, ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish. Tabiat go'zalligidan zavqlanish, uni asrab-avaylashga o'rgatish. | | | |
| Kutilayotgan natija: | | | |
| Dars yakunida o'quvchilar hikoyani to'g'ri va ifodali o'qish malakasiga ega bo'ladi. Yangi so'zlarni tushunadi, nazariy materialni tahlil qilishga o'rganadi. Milliy udumlar bilan tanishadi. | | | |
| Dars jarayoni va texnologiyasi | | | |
| Bosqich | Bajariladigan ish nomi | Metod | Vaqt |
| 1-bosqich. Tashkiliy qism | O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi. | Suhbat | 2 daqiqa |

| | | | |
|--|---|---|--|
| 2-bosqich. (Refleksiya) Ehtiyojlarni aniqlash | Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi. | Munozara | 2 daqiq |
| 3-bosqich Darsning borishi | 1.O'tgan dars so'raladi, o'quvchilar bilim darajasi tekshiriladi. O'tgan dars mustahkamlanadi. 2.Yangi darsni o'qishga tayyorgarlik. 3.O'qituvchi Navro'z bayrami hikoyasini ifodali o'qib beradi. Hikoyaning mazmuni ustida ishlanadi. Xalq qo'shig'i o'quvchilar bilan birga kuylanadi. 4. Lug'at ishi. 5.Matn mazmuni so'zlab beriladi. 6.O'quvchilarga hikoya o'qitiladi. Hikoyaning mazmuni tushuntiriladi. Savol javob o'tqaziladi. 7.Topishmoq va tez aytishlar o'qitilib, yod oldiriladi. | Savol-javob (tarqatma materiallar asosida) Suhbat Ifodali o'qish Munozara | 5 daqiq 5 daqiq 6 daqiq 5 daqiq 6 daqiq |
| 4-bosqich. Mustahkamlash | 1.Darslikdagi savollarga javob topiladi. 2.Hikoyadagi tasviriy vositalar, topishmoq va tez aytish ustida ishlanadi. | Muammoli izlanish | 5 daqiq 4 daqiq |
| 5-bosqich. Baholash. Darsni yakunlash | O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, ballari e'lon qilinadi va dars yakunlanadi. | | 2 daqiq |
| 6-bosqich | Navro'z bayrami haqidagi matnni o'qib topishmoqlarni yod olish. Navro'z bayrami haqida matn yozish | Tushuntirish | 2 daqiq |

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

Salomlashiladi. Davomat aniqlanadi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

Shundan so'ng, darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam. Bular:



2. O'tgan mavzuni mustahkamlash yuzasidan "Bekinmashoq" she'ri yuzasidan suhbat o'tkaziladi. O'quvchilarga yoddan ayttiriladi.

She'r va yozuvchi hayotiga oid savol-javob o'tqaziladi.

- Anvar Obidjon qayerda tavallud topgan?
- Anvar Obidjonning qanaqa she'rlar yozgan?
- Anvar Obidjonning qanaqa she'rlarini bilasiz?
- "Bekinmashoq" she'ri nima haqida ekan?
- "Bekinmashoq" she'rida nechta bolani ismi ishtirok etgan?

...

Javoblar olinganidan so'ng o'qituvchi tomonidan o'quvchilar baholanadi. O'tgan mavzu o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligi xulosalanadi.

3. Yangi mavzu bayoni:

O'quvchilarga bahor faslida bo'ladigan bayramlar haqida gapiriladi, ulardan eng qadrlisi 8-mart – onajonlar bayrami ekanligi ta'kidlanadi. Bizning sog'lig'imiz, toza, ozoda yurishimiz uchun qayg'uradigan, shirin taomlar pishirib beruvchi onalarimiz ekanligi haqida suhbat o'tkaziladi.

Undan keyin navro'z bayrami haqida suhbatlashamiz.

- Navro'z bayrami nechanchi kuni bo'ladi?
- Navro'z bayramida qatnashganmisiz?

- Unda qanday taomlar pishiriladi?

- ...

Xattaxtaga "Navro'z bayrami" deb yoziladi.

Hikoyani o'qituvchi ifodali o'qib beradi.

Mavzu yuzasidan kirish suhbat:

- Hikoya nima haqida ekan?

- Navro'z bayrami qachon nishonlanar ekan?

- Siz navro'zda qanaqa taomlar pishirasiz? - ...

Hikoya o'quvchilarga navbatma navbat o'qitiladi.

1-topshiriq:

Tarmoqlash:

1-topshiriq yuzasidan baholanadi

Dam olish daqiqasi otkaziladi.

3-topshiriq.

"Eng chiroyli matn" o'yini o'tqaziladi. O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Bunda o'quvchilarga quyidagi so'zlar beriladi. O'quvchilar bu so'zlarga matn tuzadi.

1. Bahor fasli.

2. 8-mart - onajonlar bayrami.

3. Navro'z bayrami.

Hikoya ustida ishlash.

O'quvchilar xalq qo'shig'ini ichida o'qiydi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

- Qo'shiqning qaysi misrasida o'xshatish bor?

- Chorbog'lardan deganda nimani tushunasiz?

4. Lug'at ishi. O'quvchilardan tushunmagan so'zlari so'raladi va u so'zning ma'nosi tushuntiriladi.

LUG'AT ISHI

Ko'chatlar-

Uyg'onmoq-

Ko'katlar -

chorbog'lardan -

Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

1. Navro'z qachon bayram qilinadi?
2. Navro'zni odamlar qanday nishonlaydilar?
3. Bahorgi taomlarga solinadigan ko'katlar nomini ayting.

Tasviriy vositalar bilan ishlash. She'rdagi "Yam-yashil chorbog'lardan bulbuldek ovoz keldi" jumlasini o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.

O'quvchilarga qo'shiqdan quyidagicha aytilishi o'xshash bo'lgan so'zlarni topish topshiriladi.

Soz-g'oz-ovoz.

Darslikda keltirilgan topishmoq o'qituvchi aytadi o'quvchilar topadi.

Oq sandig'im ochildi,
Olamga nur sochildi.



Dum-dumaloq barkash non,
Ko'k yuzida suzadi.

Tez aytish ustida ham ishlanadi.

Gulsara gulzor oralab gul sanadi.

Mustahkamlash:

-Navro'z haqida qanaqa she'r bilasiz?

-Bahorda qanaqa gullar ochiladi?

-...

4-topshiriq.

Muammoli izlanish metodi: Bunda o'quvchilar 2 guruhga bo'linadi. Ularga quyidagicha topshiriq beriladi.

1. Navro'z bayramida qilinadigan ishlar.

2. Navro'z bayramida pishiriladigan taomlar.

O'quvchilar guruh bo'lib ishlaydi.

5-topshiriq.



ESLAB QOL VA QAYTAR

Tasvirlangan gullar nomini eslab qol. Qaytar.

6-topshiriq

Sher aytishuv bahsi.

Bunda o'quvchilar bahor, navro'z va gul haqida birma bir sher aytadi aytolmagan guruh past bal bilan baholanadi.


Topishmoq va tez aytish yuzasidan ham mustahkamlanadi.

Topishmoq yuzasidan suhbat o'tqaziladi.


- Ochildi-sochildi so'zlariga tovush qo'shilishi bilan qanday so'z hosil bo'ladi? Ma'nosini tushuntiring?

7-topshiriq

Tez aytish musobaqasi. Bunda O'quvchilar bir nafasda tez aytishni aytadi eng ko'p aytgan o'quvchi rag'batlantiriladi.



Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.



Uyga vazifa. Hikoyani o'qish. Navro'z bayrami haqida matn yozish.

Darsning texnologik xaritasi

| |
|---|
| Mavzu: Rostgo'y bola (ertak) |
| Mavzuga oid tayanch tushunchalar: qadimda, podsho, farzand, vazir, maslahat, gul urug'i, vaqt, shahar, bola, bolakay, gulsiz tuvak, |
| Vaqt: 1 soat |
| Mavzuning qisqacha ta'rifi: Qadimda bir bolasiz podsho bo'lgan ekan. U vazirning maslahati bilan farzand asrab olmoqchi bo'libdi. Bolalarga gul urug'i tarqatibdi va kimning guli chiroyli bo'lsa, o'shani farzand qilishini |

aytibdi. Gul o'stirganlarni ko'rish uchun shaharga o'tlanibdi va bir gulsiz tuvak ushlab turgan bolaga ko'zi tushibdi. Bola gul o'smaganini aytibdi. Podsho rost gapirgani uchun shu bolani farzandlikka olibdi. Chunki podsho gul urug'larini qaynattirgan ekan.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim berish, ertak o'tish darsi.

Metod: suhbat, ifodali o'qish, tushuntirish, tarmoqlash, o'yin, muammoli izlanish, munozara.

Shakl: jamoa, guruh bilan ishlash.

Jihoz: ertak asosida tayyorlangan bola va podsho tasvirlangan rasm-plakatlar, darslik, rag'bat kartochkalari, qirqma plakatlar, tarqatma materiallar.

Nazorat: o'quvchilarning darsdagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta'limiy: o'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish. Lug'atini boyitish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarni rost so'zlashga o'rgatish, yolg'onchilik yomon odat ekanligini bola ongida sundirishdan iborat.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning to'g'ri, ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija:

Dars yakunida o'quvchilar ertakni to'g'ri va ifodali o'qish malakasiga ega bo'ladi. Yangi so'zlarni tushunadi, nazariy materialni tahlil qilishga o'rganadi. Ijobiy axloqiy sifatlarni o'zlashtiradi.

Dars jarayoni va texnologiyasi

| Bosqich | Bajariladigan ish nomi | Metod | Vaqt |
|---|--|---|----------|
| 1-bosqich. Tashkiliy qism | O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi. | Suhbat | 2 daqiqa |
| 2-bosqich. (Refleksiya) Ehtiyojlarni aniqlash | Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi. | Munozara | 2 daqiqa |
| 3-bosqich Darsning borishi | 1.O'tgan dars so'raladi, o'quvchilar bilim darajasi tekshiriladi. | Savol-javob (tarqatma material asosida) | 5 daqiqa |

| | | | |
|---|--|-------------------|----------------------|
| | 2.Yangi darsni o'qishga tayyorgarlik va ertak haqida ma'lumot berish. Rostgo'ylikning ahamiyati tushuntiriladi. | Suhbat | 5 daqiqa |
| | 3. O'qituvchi "Rostgo'y bola" ertagini ifodali o'qib beradi. ertakning mazmuni ustida ishlanadi. | Ifodali o'qish | 6 daqiqa |
| | 4. Lug'at ishi | Munozara | 5 daqiqa 6 daqiqa |
| | 5. O'quvchilarga ertak o'qitiladi. Ertakning mazmuni tushuntiriladi. | | |
| | 6.Topishmoq aytish musobaqasi uyushtiriladi. | | |
| 4-bosqich. Mustahkamlash | 1.Darslikdagi savollarga javob topiladi. 2.Ertakdagi tasviriy vositalar ustida ishlanadi. | Muammoli izlanish | 5 daqiqa 4 daqiqa |
| 5-bosqich Baholash Darsni yakunlash | O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, ballari e'lon qilinadi va dars yakunlanadi. | | 2 daqiqa |
| 6-bosqich | Ertakni o'qib mazmunini gapirib berish. | Tushuntirish | 2 daqiqa |

Darsning borishi:

1.Tashkiliy qism: Salomlashiladi. Davomat aniqlanadi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

Shundan so'ng darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam. Bular:



O'tgan mavzuni mustahkamlash. "Maymun va duradgor"
ertagi yuzasidan suhbat.

- Duradgor nima ish qilayotgan ekan?
- Duradgor yig'och ustida o'tirib pona bilan uni yorayotganini kim ko'rib qoldi?
- Maymun nima ish qildi?
- Maymun nima uchun hushidan ketdi?

1-topshiriq

"Quruvchi" metodi. O'quvchilar 4 guruhga bo'linib oladi. Bunda o'quvchilarga ertakdagi voqea ketma-ket gap asosida yozilgan kubikchalar beriladi. O'quvchilar gaplardan ertakni hosil qilishi kerak bo'ladi. Kubikni to'g'ri va tez qilib taxlagan (tergan) o'quvchi guruhi rag'batlantiriladi.

1-kubik. Bir maymun duradgorni yog'och ustida o'tirib pona bilan uni yorayotganini ko'rib qoldi.

2-kubik. Duradgor bir ponani qoqib, ikkinchisini chiqarib olar ekan.

3-kubik. Uni boshqa yerga...

Javoblar olinganida so'ng o'qituvchi tomonidan o'quvchilar baholanadi. O'tgan mavzu o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligi xulosalanadi.

3. Yangi mavzu bayoni:

Xattaxtaga "Rostgo'y bola" (ertak) deb yoziladi.

Ertak haqida tushuncha beriladi.

Ertakni o'qituvchi ifodali o'qib beradi.

Ertak yuzasidan kirish suhbat:

- Ertak nima haqida ekan? -
- Podshoh nega xomush yurar ekan?

- Podshohga vaziri qanday maslahat beribdi?
- Podshoh o'ziga farzand tanlash uchun nima qilibdi?
- Podshoh nima uchun bolalarga gul urug'i tarqatibdi?
- Bola nega gulni o'stira olmabdi?
- Nega podshoh farzandlikka bolani tanlabdi?
- Podshoh xalqqa nima debdi?
-

Yolg'onchilik yomon oqibatlariga olib kelishi uchun yolg'on gapirmaslik kerakligi aytib o'tiladi. Misollar orqali tushuntirib o'tiladi.

2-topshiriq. Ifodali o'qish musobaqasi. Bunda o'quvchilar ertakning har bir qismini ifodali o'qiydi. Eng yaxshi o'qigan o'quvchi tanlanadi va rag'batlantiriladi.

3-topshiriq.

Muammoli izlanish metodidan foydalanib o'quvchilar ertak asosida savol tuzadi ikkinchi guruh bilan savollar almashadi. Savolni chiroyli tuzgan va savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchi rag'batlantiriladi.

4-topshiriq. Ertak rollarga bo'lib o'qitiladi.

Podshoh 1-qahramon, vaziri 2-qahramon, bola 3-qahramon, deb olinad.

1-o'quvchi – podshoh, 2-o'quvchi – vaziri 3-o'quvchi – bola, 4-o'quvchi muallif bo'ladi.

Dam olish daqiqasi otkaziladi



Ertak ustida ishlash

4. Lug'at ishi olib boriladi.




5. Mustahkamlash.

5-topshiriq. Tanlab o'qishdan foydalaniladi.

- Podshohning xomush yurgan joyidan o'qing?
- Kimning guli chiroyli bo'lsa o'shani Farzand qilib olmoqchiligini aytgan joyidan o'qing?
- Bolakayning oldiga borgan joyidan o'qing?

Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash



1. Podshoh o'ziga farzand tanlash uchun nima qilibdi?
2. Bola gulni nega o'stira olmabdi?
3. Podshoh xalqqanima debdi?

6-topshiriq. Ertakdagi qahramonlarga ta'rif berish.

1. Podshoh -
2. Bola -
3. Vazir -

Tasviriy vositalar bilan ishlash. Ertakdagi “Podshoh doim xomush bo‘lib yurarkan” jumlasini o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.

7-topshiriq topishmoq aytish musobaqasi.

Bunda o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib oladi.

1-guruh ikkinchi guruhga va 2-guruh birinchi guruhga topishmoq aytadi.

Topishmoqni topgan guruh rag‘batlantiriladi.

Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va baholanadi.

Uyga vazifa.

Ertakni o‘qib mazmunini aytib berish. Topishmoqlar yod olib kelish.

Darsning texnologik xaritasi

| |
|---|
| Mavzu: Yo‘lda (Shukur Xolmirzayev) |
| Mavzuga oid tayanch tushunchalar: ulov, hovur, buloq. |
| Vaqt: 45 daqiqa. |
| Mavzuning qisqacha ta‘rifi: bolaning ota-onasi bilan shaharga kelishi, ularning yo‘ldagi suhbat, otaning o‘g‘liga bergan maslahati, chidamlilik, qiyinchiliklarga bardosh bera olish eng yaxshi insoniy fazilatlardan biri ekanligini tushuntirish. |
| O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Dars turi: yangi bilim berish, hikoya o‘tish darsi. Metod: suhbat, ifodali o‘qish, tanlab o‘qish, tushuntirish, mustaqil ish. Shakl: jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash, qiziqarli o‘yin. Jihoz: slaydlar, mavzuga oid ko‘rgazmalar, tarqatma material. Nazorat: og‘zaki nazorat, savol-javob, kuzatish, o‘zini o‘zi nazorat qilish. Baholash: o‘quvchilar 5 bali reyting tizimi asosida baholanadi. |
| Darsning maqsad va vazifalari |
| Maqsadlar: Ta‘limiy: o‘quvchilarning ravon o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish, tarbiyaviy ahamiyatga molik bo‘lgan insoniy fazilatlar bilan tanishtirish; Tarbiyaviy: hikoya orqali har bir o‘quvchini odob-axloqqa, chidamlilik va sabr-toqat qilishga, har qanday vaziyatda o‘zini tuta olishga o‘rgatish; |

| Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning to'g'ri, ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish. | | | |
|---|--|----------------|-------------|
| Kutilayotgan natija: | | | |
| Dars yakunida o'quvchilar matnni to'g'ri va ifodali o'qish malakalariga, shuningdek, hikoyada berilgan tarbiyaviy ahamiyatga molik tushuncha va ma'lumotlarga ega bo'ladilar. | | | |
| Dars jarayoni va texnologiyasi | | | |
| Bosqich | Bajariladigan ish nomi | Metod | Vaqt |
| 1-bosqich. Tashkiliy qism | O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. | Suhbat | 2 daqiqa |
| 2-bosqich. Refleksiya Ehtiyojlar ni aniqlash | Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi. | Munozara | 2 daqiqa |
| 3-bosqich Darsning borishi | 1. O'tgan dars so'raladi, o'quvchilar bilimi baholanadi. | Suhbat | 6 daqiqa |
| | 2. Shukur Xolmirzayev haida qisqacha ma'lumot berish. | Tushuntirish | 3 daqiqa |
| | 3. Hikoya bilan tanishtirish. | Ifodali o'qish | 2 daqiqa |
| | 4. Hikoya mazmuni yuzasidan o'quvchilarning tushunchalarini aniqlash. | Suhbat | 2 daqiqa |
| | 5. Topshiriq bilan o'qish. | Ichda o'qish | 3 daqiqa |
| | 6. Lug'at ishi. | Tushuntirish | 2 daqiqa |
| | 7. Hikoyani qismlarga bo'lib o'qish. | Ifodali o'qish | 4 daqiqa |
| | 8. Topshiriq bilan o'qish. | Tanlab o'qish | 5 daqiqa |
| | 9. Hikoyani rollarga bo'lib o'qish. | | 3 daqiqa |

| | | | |
|---|---|-------------------|--------------|
| 4-bosqich. Mustah- kamlash | 1. Tarbiyaviy xulosa chiqarish. | Mustaqil ish. | 7 daqiqqa |
| 5-bosqich baholash, darsni yakunlash | 1. O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reyting bali e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi. | | 2 daqiqqa |
| 6-bosqich | Uyga matnni bir necha marta ifodali o'qib, mustaqil hikoya qilishga tayyorlanib kelish vazifasi topshiriladi. | Tushun- tirish | 2 daqiqqa |

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

a. Salomlashiladi.

b. Davomat aniqlanadi.

c. O'quvchilar darsga hozirlanadi.

Shundan so'ng darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam. Bular:

1. Intizom

4. Aniqlik

2. Ahillik

5. O'ng qo'l qoidasi

3. Faollik

6. Boshqalar fikrini hurmat qilish (Slayd namoyish etiladi)

Dars shiori e'lon qilinadi.

Bizning shior: Doim darsga bo'l tayyor.

2. O'tgan dars so'raladi, o'quvchilar bilimi baholanadi.

O'qituvchi: Uyga qanday vazifa berilgan edi?

O'quvchi: Uyga Abdulla Avloniyning "Yoz" deb nomlangan she'rini yod olib kelish berilgan edi.

O'qituvchi: Hamma yod olib keldimi?

O'quvchilar: Ha

O'quvchilardan uyga vazifa so'raladi va baholanadi.

O'tgan mavzu o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligi xulosalanadi.

3. Yangi mavzu bayoni:

O'quvchilar, biz bugungi darsimizda Shukur Xolmirzayevning "Yo'lda" deb nomlangan hikoyasi bilan tanishamiz.

2. Shukur Xolmirzayev haida qisqacha ma'lumot berish.

Avvalo, sizlarga hikoya muallifi haqida ma'lumot bersam.

Zamonamizning taniqli yozuvchisi, ko'plab qissa va hikoyalar muallifi, o'zbek nasrining zabardast vakillaridan biri Shukur Xolmirzayev 1940-yilning 24-martida Surxondaryo viloyati Shahidlar guzarida dunyoga kelgan.

1962-yilda dastlabki "Oq o'tli" qissasi bilan o'quvchilar e'tiborini qozonadi.

1963-yilda yozilgan "To'lqinlar" nomli qissasi bilan Abdulla Qahhor e'tiboriga sazovor bo'ldi.

1991-yilda adibga "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoni berildi.

Mashhur hikoya va qissalari: "Tuproq ko'chalar", "Bulut to'sgan oy", "So'ngi bekat", "Qil ko'prik", "Yo'lovchi", "Yur tog'larga ketamiz", "Dinozavr", "Olabo'ji", "O'zbeklar".

3. Hikoya bilan tanishtirish.

- Endi esa, Shukur Xolmirzayevning darsligimizda keltirilgan "Yo'lda" deb nomlanuvchi hikoyasi bilan tanishamiz.

Shu vaqtda o'qituvchi hikoyani ifodali o'qib beradi.

4. Hikoya mazmuni yuzasidan o'quvchilarning dastlabki tushunchalarini aniqlash.

O'quvchilar hikoya mazmuni bilan tanishtirilgach, o'qituvchi tomonidan ularga boshlang'ich taassurotlarini aytishni talab qiladigan quyidagi savollar beriladi.

- *Hikoya nima haqida ekan?*

- *Hikoya sizga yoqdimi? Yoqqan bo'lsa, aynan qaysi o'rni sizga yoqdi?*

- *Hikoya o'qilganda siz qaysi o'rinlarga ko'proq diqqatingizni qaratdingiz?*

- *Bolaning o'rnida bo'lib qolganingizda siz qanday yo'l tutardingiz?*

5. Topshiriq bilan o'qish.

- "Yo'lda" hikoyasini ichingiza o'qib chiqing va tushunmagan so'zlaringizni aniqlang.

6. Lug'at ishi.

O'quvchilar ma'nosini tushunishda qiynalgan so'zlarning ma'nosi izohlanadi. So'ngra quyidagi so'zlarning ma'nosi izohlanadi.

| |
|----------------|
| Hovur – |
| Buloq – |
| Ulov – |

7. Hikoyani qismlarga bo'lib o'qish.

Lug'at ishidan so'ng hikoya matni o'quvchilarga qismlarga bo'lgan holda o'qitiladi.

8. Tanlab o'qish.

O'qituvchi: Mana hikoya haqida dastlabki taassurotlarga ega bo'ldik. Endi sizga quyidagicha vazifa beraman (tanlab o'qish metodi orqali o'quvchilarga vazifa beriladi)

1. *Hikoyadan bolaning holati aks ettirilgan o'rinlarni topib o'qing.*

2. *Hikoyaning qaysi qismida otaning o'g'liga maslahat berish holati ifodalangan? Shu o'rinni topib o'qing.*

3. *Ota maslahatiga amal qilgan o'g'ilning hikoya so'ngida chiqargan xulosasi aks ettirilgan o'rinni topib o'qing.*

9. Hikoyani rollarga bo'lib o'qish.

Hikoya o'quvchilarga rollarga bo'lib o'qitiladi. Bunda o'quvchilarga muallif, ota va bola rollari bo'lib beriladi.

Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Tariyaviy xulosa chiqarish.

O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi va vazifa beriladi.

Guruhlarga topshiriq.

1-topshiriq. Hikoyaning har ikkala qismi asosida guruhlar o'zi chiqargan xulosaini bayon etishi hamda hikoya mazmuniga mos keladigan rasm chizishi kerak bo'ladi.

Taqdimot. Har bir guruhdan bir o'quvchi chiqib, chiqarilgan xulosa asosidagi yozma bayonlarni o'qib beradi. O'quvchilar

o'zaro fikr almashadi. O'qituvchi ular fikrini to'ldirib boradi. Rasmlarga izoh beriladi.

2-topshiriq. O'qituvchi guruhlariga hikoyada berilgan insoniy fazilatlarini topib, ularning ma'nosini izohlash topshirig'i beriladi

Taqdimot. Guruh o'quvchilaridan biri so'zlarni o'qib, ma'nosini izohlab beradi.

Baholash.

O'quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasi, to'g'ri va ravon o'qishi baholab boriladi. Dars yakunida umumiy ballar e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.



Uyga vazifa.

Uyga matnni bir necha marta ifodali o'qib, mustaqil hikoya qilishga tayyorlanib kelish vazifasi topshiriladi.

Darsning texnologik xaritasi

| |
|---|
| Mavzu: Bobur va kabutar. |
| Mavzuga doir tayanch tushunchalar: Mirzo Bobur, ziyrak bola, Umarshayx, saroy a'yonlari, qasr, kabutar, ayvon peshtoqi qilichlarni qindan sug'urmoq, qovun sayli, xushxabar, mis halqa, oliyhazrat, hushyorligi, topqirligi, aql-idrok, farmoyish. |
| Vaqt: 1 soat |
| Mavzuning qisqacha ta'rifi: ushbu rivoyatda Mirzo Boburning yoshligida otasining saroyida bo'lgan voqea tasvirlanadi. Unda Mirzo Boburning ziyrakligi, hushyorligi, topqirligi haqida hikoya qilingan. |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: |

Metod: ifodali o'qish metodi, tanlab o'qish, krossvord yechish, namoyish, mustaqil ish.
Shakl: jamoa, kichik guruh va har bir o'quvchi bilan ishlash.
Jihoz: darslik, elektron ko'rgazma, A3 qog'oz, flomaster.
Nazorat: o'quvchilarning bilimlari savol-javob, mustaqil ishlar orqali aniqlanadi, faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: reyting.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta'limiy: Rivoyat bilan tanishtirish, Bobur haqidagi bilimlarini kengaytirish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni zehni, aqli, hushyor, ziyrak bo'lishga undash.

Rivojlantiruvchi: To'g'ri, ongli, ifodali o'qish malakalarini takomillashtirish. Lug'at boyligini oshirish, badiiy nutqini o'stirish. Buyuk ajdodlarimizni o'rganish orqali o'quvchilarda Vatanga, uning tarixiga qiziqish hissini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

Dars yakunida o'quvchilarning Bobur haqidagi bilimlari kengayadi. O'qish malakalari takomillashadi.

Dars jarayoni va texnologiyasi

| Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Metod | Vaqt |
|---|--|--|--|
| 1-bosqich Tashkiliy qism | Sinf o'quvchilarining darsga tayyorligi tekshiriladi. O'quvchilar kichik guruhlariga ajratiladi. | sanash usulida | 1 daqiqqa |
| 2-bosqich (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash | Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. (2-slayd) | suhbat | 2 daqiqqa |
| 3-bosqich darsning borishi. | 1. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini aniqlash va mustahkamlash: 1.1. Ifodali o'qish musobaqasi. 1.2. Matnni qayta hikoya qilish. 1.3. Musobaqa. 2. O'quvchilarni rivoyatni o'qishga tayyorlash. (3-6-slayd) | ifodali o'qish og'zaki musobaqa suhbat | 3 daqiqqa 3 daqiqqa 2 daqiqqa |

| | | | |
|--------------------------------|---|---|---|
| | <p>3. Rivoyat bilan tanishtirish. Rivoyat ifodali o'qib beriladi.</p> <p>4. O'quvchilarning rivoyat haqidagi dastlabki taasurotlarini aniqlash.</p> <p>5. Topshiriq bilan ichda o'qish.</p> <p>5. Lug'at ishi. (7-slayd)</p> <p>6. Rivoyatni o'quvchilarga qismlarga bo'lib o'qitish.</p> <p>7. Topshiriq bilan tanlab o'qitish.</p> <p>8. Rivoyat matni ustida ishlash.</p> <p>9. Krossvord yechish. (8-slayd)</p> <p>10. Ifodali o'qish musobaqasi.</p> <p>11. Rivoyatni qayta hikoya qilish. (9-slayd)</p> | <p>ifodali o'qish</p> <p>suhbat</p> <p>ichda o'qish suhbat</p> <p>ifodali o'qish</p> <p>tanlab o'qish mustaqil ish didak. o'yin ifodali o'qish suhbat</p> | <p>2 daqiqa</p> <p>2 daqiqa</p> <p>1 daqiqa</p> <p>2 daqiqa</p> <p>1 daqiqa</p> <p>2 daqiqa</p> <p>4 daqiqa</p> <p>3 daqiqa</p> <p>3 daqiqa</p> <p>3 daqiqa</p> <p>2 daqiqa</p> |
| 4-bosqich Mustahkamlash | 1. Darsda o'rganilganlarni umulashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish. | suhbat | 2 daqiqa |
| 5-bosqich Baholash Dars yakuni | O'quvchilarning reyting ballarini e'lon qilish. | Suhbat | 2 daqiqa |
| 6-bosqich | <p>1. "Shoh va shoir" mavzusida matn yaratish.</p> <p>2. Bobur tanigan kabutar rasmini chizish. (10-slayd)</p> | tushuntirish | 2 daqiqa |

Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini aniqlash va mustahkamlash:

1.1. Ifodali o'qish musobaqasi. Har bir guruhdan 3 ta o'quvchi hikoyadan to'rttadan gap o'qiydi.

1.2. Matnni qayta hikoya qilish. Ifodali o'qish musobaqasida qatnashmagan guruh a'zolari hikoyini o'tilgan darsda tuzilgan reja bo'yicha 1 qismdan og'zaki hikoya qiladi.

1.3. Musobaqa. Guruhlar o'rtasida musobaqa uyushtiriladi. Musobaqa shartiga ko'ra har bir guruh vaqt tog'risida bilgan maqol, hikmatli so'z va topishmoqlarini aytishlari lozim. Bunda maqol, hikmatli so'z va topishmoqlarini A4 qog'ozga yozadi. Vazifa bajarilgach, taqdimotini o'tkazadi. Taqdimotdan so'ng agar vaqt to'g'risida she'r bilishsa, aytib beradi.

2. O'quvchilarni rivoyatni o'qishga tayyorlash.

"Buyuklar" mavzusida suhbat:

- Vatanimizda tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuk siymolar yashab o'tishgan. Siz ular haqida bilimga egasiz.

- Vatanimizda yashagan buyuk zotlardan kimlarni bilasiz?

- Ularga ta'rif beraman. Siz kimni ta'riflayotganimni topishingiz lozim.

- U yuksak iqtidorli sarkarda edi. U buyuk saltanat tuzib, Turkiston diyorini butun dunyoga tanitdi.

- Bu ulug' zot buyuk shoir, olim va davlat arbobi bo'lgan. Uni yana turkiy til asoschisi deb ham e'zozlaymiz.

- Bu buyuk bobomiz Andijonda tug'ilgan va Hindistonda hukmronlik qilgan. She'riyatda ham tengsizligi uchun shoh va shoir deb ulug'laymiz.

- Quyidagi rasmlarga qarab javobingizni tekshiramiz.

- Bugun darsda mana shu buyuk ajdodlarimizdan Mirzo Bobur haqida rivoyat o'qiymiz.

- Bu buyuk zot haqida nimalar bilasiz?

O'quvchilar javobi umumlashtirilib, to'ldiriladi:

Mirzo Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug'ilgan. Uning otasi Umarshayx Mirzo Bobur 12 yoshligida vafot etadi. 12 yoshda taxtga o'tirgan Bobur suronli voqealar girdobida qoladi va taqdir

taqazosi bilan ko'p o'tmay Andijon taxtini tashlab ketishga majbur bo'ladi. Bobur Avg'onistonni egallab, u orqali Hindistonga yo'l oladi. Hindiston taxtini olgach, u yerda oqillik va odillik bilan saltanat ishlarini olib boradi. Hindiston boy va go'zal mamlakat bo'lishiga qaramay, o'z Vatani Andijonni umrining so'ngiga qadar qo'msab yashagan.

Bobur umrining ko'p qismi sargardonlikda, ot ustida o'tgan bo'lishiga qaramay, avlodlar uchun nodir kitoblar yozib qoldirgan. U yaratgan "Boburnoma" asari esa, Boburni shohlikdan va sarkardalikdan tashqari olimlikda va shoirlikda ham tengsizligini isbotlaydi. U o'tkir zehn va buyuk qalb egasi edi.

Mirzo Bobur qalamiga mansub ruboiylar va g'azallarda tushunarsiz, murakkab so'zlar kam uchraydi. Bu ruboiylar XV asrda yaratilgan bo'lsada, hozirgi kunda ham ularni lug'atsiz o'qiy olamiz. Masalan:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.

3. Rivoyat bilan tanishtirish. Rivoyat ifodali o'qib beriladi.

4.O'quvchilarning rivoyat haqidagi dastlabki taassurotlarini aniqlash.

- Rivoyat sizlarga yoqdimi?
- Rivoyatda kimlar ishtirok etdi?
- Nima uchun Umarshayx o'g'lining topqirligi va hushyorligiga qoyil qoldi?

5. Topshiriq: ichda o'qish.

Topshiriq:

- Rivoyatni ichingizda o'qing va ma'nosini tushunmagan so'zlaringizni aniqlab, daftaringizga yozing.

5. Lug'at ishi

| |
|--|
| a'yon - saroy amaldori peshtoq - imoratning old yuqori qismi oliy hazrat - shox halqa - farmoyish - buyruq |
|--|

Quyidagi iboralarning ma'nosi izohlanadi:

Qilichlari qonsiragan –

Qilichlarni qindan sug'urmoq –

6. Rivoyatni o'quvchilarga qismlarga bo'lib o'qitish.

- Rivoyatni ichingizda o'qing. Uni qismlarga bo'ling.

- Rivoyatni necha qismga bo'lish mumkin?

O'quvchilar rivoyatni taxminiy 3 qismga bo'ladi. Qismlarning chegarasi aniqlab olingach, 3 o'quvchiga ifodali o'qitiladi.

7. Topshiriq bilan tanlab o'qitish.

- Umarshayx a'yonlaridan nimani so'radi? Shu o'rinni topib o'qing.

- A'yonlarning javobini topib o'qing.

- Boburning javobini topib o'qing.

- Xatda nima deyilgan ekan? Shu o'rinni topib o'qing.

- Umarshayx xatni o'qigach, o'g'lidan nimani so'radi? Shu o'rinni topib o'qing.

- Bobur kabutar xushhabar olib kelganini qanday bilibdi? Shu o'rinni topib o'qing.

- Umarshayx qanday farmoyish berdi? Uning farmoyishini topib o'qing.

8. Rivoyat matni ustida ishlash.

Guruhlarga topshiriq:

- Rivoyatni ichingizda o'qing.

- Rivoyatdan atoqli va turdosh otlarni toping va alohida ustun qilib yozing.

Bu topshiriqni bajarishda guruhlarga A4 qog'oz beriladi. Guruhlar vazifani bajarishgach, qog'ozlar magnit xattaxtaga ilinadi. So'ng taqdimot o'tkaziladi va guruhlar ishi muhokama qilinadi.

9. Krossvord

Eniga:

1. Boburning otasi.

3. Kabutar oyog'ida nima bor edi?

4. Bobur tug'ilgan joy.


6. Kabutar qanday xabar keltirgan edi?

Bo'yiga:

2. Rivoyatda qaysi qush ishtirok etdi?

5. Boburning xususiyati.

7. Kabutar oyog'ida nima bor edi.



10. Ifodali o'qish musobaqasi. Guruhlar o'rtasida musobaqa tashkil etiladi. Bu topshiriqda guruhlardan bittadan o'quvchi ishtirok etadi. Musobaqada kim qatnashishini guruhlarning o'zi belgilaydi.

11. Rivoaytni qayta hikoya qilish.

Rivoyat tuzilgan reja asosida qayta hikoya qildiriladi. Bunda o'quvchilar tayanch so'zlardan foydalanishi mumkin.

Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Tarbiyaviy xulosa chiqarish:

- Umarshayxning "Kabutar ne deydi?" savoliga saroy a'yonlari qanday javob berishibdi?

- Saroy a'yonlari nega bunday javob berishdi?

- Mirzo Bobur qanday javob beribdi?

- Mirzo Bobur nimaga asosan bunday javob beribdi?

- Sizga kimning javobi yoqdi?

- Nima uchun?

- Umarshayx a'yonlariga: "Qilichni emas, aql-idrokni ishga solmoq lozimdir" deganida nimani nazarda tutgan?

- Saroy a'yonlarining xususiyatini ayting.

- Boburda qanday xususiyatlar mujassam ekan?

- Qanday xususiyatlarga ega bo'lgan odam kamroq adashar ekan?

- Bu xususiyatlarni o'zimizda rivojlantirishimiz uchun nimalar qilishimiz kerak?

O'quvchilar javobi to'ldirilib, umumlashtiriladi.

Uyga vazifa:

1. "Shoh va shoir" mavzusida matn yaratish.
2. Bobur tanigan kabutar rasmini chizish.

Darsning texnologik xaritasi

| |
|--|
| Mavzu: Jaloliddin Manguberdi (Mirkarim Osim) |
| Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Jaloliddin Manguberdi, xiyla, Chingizxon, mo'gullar, jang, qo'shin, mardlik, Xorazm, Nesa |
| Vaqt: 1 soat |
| Mavzuning qisqacha ta'rifi: Jaloliddin Manguberdi o'z yurtini mo'g'ullardan himoya qilish maqsadida Afg'oniston va Eronda qo'shin to'plab, ularga qarshi urush olib borayotganda Chingizxon xiyla ishlatib, Urganchni egallaydi. Bu vaqtda Jaloliddin Parvona shahrida mo'gillar ustidan g'alaba qozongach, o'ljani taqsimlash vaqtida lashkarlar o'rtasida nizo chiqadi. Shundan so'ng Jaloliddin Chingizxonga qarshi kam sonli qo'shin bilan kurash olib boradi va yengiladi. O'z oilasini dushman qo'lga tushishini xohlamay, daryoga tashlaydi. O'zi esa daryodan kechib o'tib, ko'p yillar davomida mo'g'ullarga qarshi kurashadi. |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: |
| Dars turi: yangi bilim berish, hikoya o'tish darsi. |
| Metod: suhbat, ifodali o'qish, tanlab o'qish, tushuntirish, tarmoqlash, munozara. |
| Shakl: jamoa, guruh bilan ishlash. |
| Jihoz: Jaloliddin Manguberdi surati, hikoya asosida tayyorlangan slayd, boshqotirma, testlar, darslik. |
| Nazorat: o'quvchilarning darsdagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. |
| Baholash: o'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi. |
| Darsning maqsadi |
| Ta'limiy: buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberding vatanparvarligi, yurt ozodligi yo'lidagi jasorati bilan tanishish, bu boradagi bilimlarni mustahkamlash. |
| Tarbiyaviy: o'quvchilarga Vatanni sevish, uni ardoqlash har bir farzandning burchi ekanligini tushuntirish. |
| Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning to'g'ri, ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish. Vatanimizda yashab o'tgan buyuk sarkardalar hayotiga |

oid ma'lumotlarni o'rganish orqali, Vatanga, uning tarixiga qiziqishni rivojlantirish.

Kutilayotgan natija:

Dars yakunida o'quvchilar matnni to'g'ri va ifodali o'qish malakalariga, shuningdek, Jaloliddin Manguberding hayoti haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Dars jarayoni va texnologiyasi

| Bosqich | Bajariladigan ish nomi | Metod | Vaqt |
|---|--|----------------------|----------------------|
| 1-bosqich. Tashkiliy qism | O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi. | Suhbat | 2 daqiqa |
| 2-bosqich. (Refleksiya) Ehtiyojlarni aniqlash | Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi. | Munozara | 2 daqiqa |
| 3-bosqich Darsning borishi | 1. O'tgan dars so'raladi, o'quvchilar bilimi baholanadi. | Ifodali o'qish, test | 6 daqiqa 6 daqiqa |
| | 2. O'qituvchi hikoyani o'qishdan oldin kirish suhbatini o'tkazadi. Unda asarning muallifi haqida ma'lumot beradi | Tushuntirish | 4 daqiqa |
| | 3. O'qituvchi hikoyani o'qib eshittiradi va mazmunini tushuntiradi. | Ifodali o'qish | 4 daqiqa 6 daqiqa |
| | 4. Hikoya ustida ishlash, tahlil qilish | Savol-javob | 5 daqiqa |
| | 5. O'quvchilar navbat bilan bir necha marta matnni o'qiydi. | Tanlab o'qish metodi | 2 daqiqa |
| | 6. Lug'at ishi. Ma'nosi qiyin so'zlarga izoh beriladi. | Ifodali o'qish | |
| | Dam olish daqiqasi | | |
| 4-bosqich. Mustahkam lash | Mavzuni mustahkamlashda Tarmoqlashdan foydalaniladi. | Tarmoqlash | 6 daqiqa |

| | | | |
|---|--|-------------------|----------|
| 5-bosqich Baholash, darsni yakunlash | O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, baholar e'lon qilinadi. | | 2 daqiqa |
| 6-bosqich | Uyga matnni bir necha marta ifodali o'qib, mustaqil hikoya qilishga tayyorlanib kelish vazifasi topshiriladi. | Tushun- tirish | 2 daqiqa |

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism: Salomlashiladi. Davomat aniqlanadi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

Shundan so'ng darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam. Bular: 1. Intizom. 2. Ahillik. 3. Faollik. 4. Aniqlik. 5. O'ng qo'l qoidasi. 6. Boshqalar fikrini hurmat qilish (slayd namoyish etiladi).

Endi bugungi darsimiz shiorini e'lon qilsam. Dars shiori e'lon qilinadi:

VATANNI HIMOYA QILISH INSON UCHUN MUQADDAS BURCHDIR!

2. Uyga vazifani so'raladi.

O'qituvchi: O'quvchilar, uyga qanday vazifa berilgan edi?

O'quvchi: Uyga Oybekning "Toshkent" hikoyasini ifodali o'qib, gapirib berish vazifasi berilgan edi.

O'qituvchi: Hamma o'qib keldimi?

O'quvchilar: Ha.

5-6 ta o'quvchidan uyga vazifa so'raladi.

O'tgan mavzuni mustahkamlash yuzasidan qolgan o'quvchilarga **tarqatma materiallar**, testlar tarqatiladi. Javoblar olinganidan so'ng o'qituvchi tomonidan o'quvchilar baholanadi. O'tgan mavzu o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligi xulosalanadi.

3. Yangi mavzu bayoni: O'quvchilar, bugun siz bilan Mirkarim Osimning "Jaloliddin Manguberdi" hikoyasi bilan

tanishamiz, o'rganamiz. Avvalo, sizga hikoya muallifi haqida ma'lumot bersam.

Tarixiy mavzudagi asarlari bilan tanilgan Mirkarim Osim 1907-yilda Toshkentda tug'ilgan. Ota-onasi ziyoli insonlar bo'lishgan. 1918-1921-yillarda boshlang'ich maktabda o'qigan. Mirkarim Osim o'z faoliyatini she'rlar yozish bilan boshlagan. Keyinchalik tarix fanidan qo'llanma, tavsiya, darsliklar yaratgan.

Adib bir umr tarixiy qissalar yozish bilan mashg'ul bo'lib, avlodlarni tarixiy o'tmish va uning mashhur kishilariga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalab, vatanparvarlik g'oyalari ni ulug'lagan.

Jumladan, "To'maris", "Temur Malik", "Karvon qo'ng'irog'i", "Ibn Sino qissasi" kabi asar va qissalarini keltirishimiz mumkin.

O'qituvchi: Bugungi o'tadigan yagi mavzuimiz "Jaloliddin Manguberdi" hikoyasi.

Shu vaqtda o'qituvchi hikoyani ifodali o'qib beradi. Shundan so'ng quyidagi savollarni beradi:

- Hikoya nima haqida ekan?
- Hikoya sizga yoqdimi?

Shundan so'ng yaxshi o'qiydigan 2-3 ta o'quvchiga hikoya o'qitiladi.

O'quvchilar hikoya mazmuni bilan tanishtirilgach, o'qituvchi tomonidan ularga boshlang'ich taassurotlarni aytishni talab qiladigan quyidagi savollar beriladi:

- Hikoya o'qilganda siz qaysi joyida juda xursand bo'ldingiz?
- Jaloliddin Manguberdining o'rnida bo'lib qolganingizda siz qanday yo'l tutardingiz?
- Vatan uchun kurashgan sarkardalardan kimlarni bilasiz?

O'qituvchi: Mana, hikoya haqida dastlabki taassurotlarga ega bo'ldik. Endi sizga quyidagicha vazifa beraman (tanlab o'qish metodi orqali o'quvchilarga vazifa beriladi).

1. Mo'gullarning xiylasi oqibatida Urganch shahrini suv bosganligi tasvirlangan joyni topib o'qing.

2. Jaloliddinning mo'gul askarlarini Nesa atrofida tor-mor qilganligi haqidagi qismini topib o'qing.

3. Jaloliddinning o'z oilasini noiloj daryoga tashlagan joyi tasvirlangan o'rnini topib o'qing.

4. Chingizxonning o'z askarlariga Jaloliddindan o'rnak olishini aytgan o'rni tasvirlangan joyni topib o'qing.

O'qituvchi: Mana hikoya bilan yaqindan tanishib oldik. Endi unda uchragan, sizga notanish bo'lgan ayrim so'zlarning ma'nosi bilan tanishamiz.

4. Lug'at ishi olib boriladi.

| |
|---|
| Xiyla - aldash uchun ishlatilgan yo'l, harakat |
| Qo'shin - qurolli kuchlar majmui, armiya |
| Jasorat - mardonovar ish, mardlik, botirlik, |
| Mo'gul - chet ellik, musofir |
| Tor-mor - qaqshatqich zarbaga uchrab, yoq bo'lmoq |
| Chingizxon - mo'g'ul xoni |
| Bandi - asir, tutqun |
| Yengdi - g'alaba qozondi |
| Sarkarda - qo'mondon, lashkarboshi |

Dam olish daqiqasi otkaziladi.

5. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun tarmoqlash metodidan o'quvchilarga test savollari beriladi (tarmoqlash metodi slayd yordamida ko'rsatiladi).

6. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

7. Uyga vazifa sifatida hikoyani o'qish va mustaqil hikoya qilishga tayyorlanib kelish vazifasi beriladi.

TARQATMA MATERIAL

| | |
|--|--|
| <p>1. Toshkentning qadimiy nomi... A) Choch B) Shosh C) hamma javoblar to'g'ri</p> | <p>2.Qadimda odamlar dushmanlardan saqlanish uchun shahar atroflarini nimalar bilan o'rashgan? A) to'sinlar bilan B) tosh devorlar bilan C) tuproq bilan</p> |
| <p>3. Toshkent o'tmishda kimlarning shahri bo'lgan? A) savdogarlar B) mehnatkashlar</p> | <p>4. Shahar aholisining ko'pchiligi nima bilan shug'ullanardi? A) dehqonchilik bilan</p> |

| | |
|--|---|
| V) dehqonlar | B) chorvachilik bilan V) hunarmandchilik bilan |
| 5.Hikoyada uchraydigan Toshkent darvozalarining nomlari... A) Ko'kcha, Chig'atoy B) Samarqand, Chig'atoy V) Ko'kcha, Samarqand | |

Darsning texnologik xaritasi

| |
|--|
| Mavzu: Toshkentim – onam (Maqsud Shayxzoda) |
| Mavzuga doir tayanch tushunchalar: Toshkent, ixlosmand, sozanda, pazanda, mevalarning asli, quyosh fasli, izzatda, kulgu sochilar, dudoqlarda sho'x g'unchalar ochilar. Vaqt: 1 soat |
| Mavzuning qisqacha ta'rif: Maqsud Shayxzoda mazkur asarida Toshkent shahrini go'zal tabiatini, mehnatkash xalqini ta'riflab, bu shahar va uning xalqi quyoshsevarligini va quyoshni qanday qarshi olishini tasvirlaydi. |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Metod: ifodali o'qish metodi, tanlab o'qish, tarmoqlash, namoyish, ijodiy ish. Shakl: jamoa, kichik guruh va har bir o'quvchi bilan ishlash. Jihoz: darslik, elektron ko'rgazma, A3 qog'oz, flomaster. Nazorat: o'quvchilarning bilimlari savol-javob, mustaqil ishlar orqali aniqlanadi, faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. Baholash: reyting. |
| Darsning maqsad va vazifalari |
| Maqsadlar: Ta'limiy: o'quvchilarga respublikamiz poytaxti haqida bilim berish, diqqatga sazovor joylari yuzasidan ma'lumot berish. Tarbiyaviy: she'r bilan tanishtirish asosida o'quvchilarda Vatan bilan faxrlanish tuyg'usini o'stirish. Rivojlantiruvchi: to'g'ri, ongli, ifodali o'qish malakalarini takomillashtirish. Lug'at boyligini oshirish, badiiy nutqini o'stirish. |
| Kutilayotgan natija |
| Dars yakunida o'quvchilar she'rni to'g'ri va ifodali o'qish malakasiga ega bo'ladi. O'qish malakalari takomillashadi. Toshkent haqidagi bilimlari kengayadi. |
| Dars jarayoni va texnologiyasi |

| Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Metod | Vaqt |
|---|---|--|---|
| 1-bosqich. Tashkiliy qism | Sinf o'quvchilarining darsga tayyorligi tekshiriladi. O'quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi. | sanash usulida | 1 daqiqa |
| 2-bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash | Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. | suhbat | 2 daqiqa |
| 3-bosqich. darsning borishi. | <p>1. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini aniqlash va mustahkamlash:</p> <p>1.1. Tezkor savol-javob (2-6-slaydlar)</p> <p>1.2. Ifodali o'qish musobaqasi.</p> <p>1.3. Mustaqil ish. "Ona-Vatan" so'zi ma'nosi ustida ishlash.</p> <p>2. O'quvchilarni she'rnini o'qishga tayyorlash:</p> <p>2.1. O'quvchilar diqqatini jamlash (7-slayd).</p> <p>2.2. Toshkent haqida ma'lumot beriladi (8-15-slaydlar).</p> <p>2.3. Maqsud Shayxzoda haqida elementar tushuncha berish (16-slayd).</p> <p>3. She'r bilan tanishtirish. She'r ifodali o'qib beriladi.</p> <p>4. O'quvchilarning she'r haqidagi dastlabki taasurotlarini aniqlash</p> <p>5. Lug'at ishi (17-slayd).</p> <p>6. She'rni o'quvchilarga qismlarga bo'lib o'qitish.</p> <p>7. Topshiriq bilan tanlab o'qitish.</p> <p>8. She'r matni ustida ishlash.</p> <p>9. Ifodali o'qish musobaqasi.</p> <p>10. Tarbiyaviy xulosa chiqarish.</p> | <p>Savol-javob musobaqa mustaqil ish</p> <p>Namoyish suhbat</p> <p>izohli o'qish suhbat</p> <p>suhbat izohli o'qish izlanish musobaqa suhbat</p> | <p>3 daqiqa</p> <p>3 daqiqa</p> <p>2 daqiqa</p> <p>3 daqiqa</p> <p>2 daqiqa</p> <p>1 daqiqa</p> <p>2 daqiqa</p> <p>2 daqiqa</p> <p>4 daqiqa</p> <p>3 daqiqa</p> <p>3 daqiqa</p> <p>2 daqiqa</p> |
| 4-bosqich. Mustahkamlash | <p>1. Tayanch so'zlar asosida matn yaratish. (18-slayd)</p> <p>2. Tarmoqlash usulida Toshkentga ta'rif berish.</p> | <p>Ijodiy ish</p> <p>Mustaqil ish</p> | <p>3 daqiqa</p> <p>2 daqiqa</p> |
| 5-bosqich. Baholash. | O'quvchilarning reyting ballarini e'lon qilish. | Suhbat | 2 daqiqa |

| | | | |
|-------------|--|--------------|----------|
| Dars yakuni | | | |
| 6-bosqich. | 1. She'ni yod oling. 2. Mazmuniga mos rasm ishlang. | tushuntirish | 2 daqiqa |

Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini aniqlash va mustahkamlash:

1.1. Tezkor savol-javob.

1-guruh:

1. Mustaqil Ona – Vatanimiz O'zbekistonning poytaxti qayer?
2. O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qachon qabul qilingan?
3. Toshkent qanday shahar sifatida dunyoga mashhur?
4. Respublikamizning qaysi shahrida metro qurilgan?

2-guruh:

1. O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi qachon qabul qilingan?
2. O'zbekistonning qaysi shahrida avtomobil zavodi qurilgan?
3. Asaka avtomobil zavodi qachon ishga tushirilgan?
4. SamAvto zavodida nima ishlab chiqariladi?

3-guruh:

1. O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi qachon qabul qilingan?
2. SamAvto zavodi qayerda joylashgan?
3. Asaka avtomobil zavodida qanday avtomobillar ishlab chiqariladi?
4. Temuriylar tarixi davlat muzeyi qaysi shaharda joylashgan?

4-guruh:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
2. "Xalqaro anjumanlar saroyi" qaysi shaharda joylashgan?
3. Temuriylar tarixi davlat muzeyi qachon tashkil etilgan?
4. O'zbekistonning qanday tarixiy shaharlarini bilasiz?

5-guruh:

1. Qanday metro bekatlarini bilasiz?

2. Mustaqillik maydoni qaysi shaharda joylashgan?
 3. O'zbek tiliga qachon Davlat tili maqomi berilgan?
 4. 2013-yil qanday nom bilan ataldi?
- O'quvchilar ushbu savollarga tezlik bilan javob berishi kerak.

Izoh: Topshiriqlar davomida olingan ballar guruhlariga taqdim etilgan "o'z-o'zini baholash" jadvaliga guruh a'zolaridan biri tarafidan belgilab boriladi.

| T.r | Guruh a'zolari | Uy vazifa | | | Yangi mavzu | | | |
|-----|----------------|-----------------|----------------|--------------|---------------|----------------|-------------|-------------------|
| | | Tezkor savollar | Ifodali o'qish | Mustaqil ish | Tanlab o'qish | Ifodali o'qish | Savol-javob | Toshkentga ta'rif |
| 1 | | | | | | | | |
| 2 | | | | | | | | |
| 3 | | | | | | | | |
| 4 | | | | | | | | |

1.2. Ifodali o'qish musobaqasi. Guruhlar o'rtasida ifodali o'qish musobaqasi tashkil etiladi. Bu topshiriqqa ko'ra o'quvchilar matnni tinish belgilari va mazmuniga ahamiyat bergan holda o'qishi lozim.

1.3. Mustaqil ish. "Ona-Vatan" so'zi ma'nosi ustida ishlash. Guruhlarga A3 formatdagi qog'oz va flomaster tarqatiladi. Guruhlar Ona - Vatan so'zini o'z xohishlariga ko'ra ta'riflaydi. Ya'ni bunda rasm chizish, matn yaratish, tarmoqlash kabi usullardan foydalanish mumkin.

2. O'quvchilarni she'rni o'qishga tayyorlash:

2.1. O'quvchilar diqqatini jamlash.

- Ekranga qarang. Biz bugun ushbu "quvnoq vagoncha"larda sayohatga chiqamiz. Agar sonlar o'rniga "Alifbo" tartibi bo'yicha mos harflar qo'ysangiz, sayohatga chiqadigan shahrimizni topasiz.

2.2. Toshkent haqida ma'lumot beriladi. Slaydlar orqali Toshkentning diqqatga sazovor joylari ko'rsatiladi va qisqacha ma'lumot berib o'tiladi.

- Ekranga qarang. Ushbu rasmda (8-slayd) Oliy majlis binosini, "Istiqlol" konsert saroyini, O'zbekiston "Milliy bog"ini va go'zal manzarani ko'rishingiz mumkin.

- Ushbu rasmlarda esa, (9-10-slaydlar) Mustaqillik maydoni aks etgan. Mustaqillik maydoniga o'rnatilgan ushbu ark uzra 7 ta laylak qad rostlab turibdi.

- Bu esa, (11-slayd) Anjumanlar saroyi. Uning yuqori qismiga ham ko'rib turganingizdek, laylak haykallari o'rnatilgan.

- Bu rasmda (12-13-slaydlar) Amir Temur xiyoboni tasvirlangan. Maydondagi Amir Temur haykali 1996-yilda o'rnatilgan.

- Bu esa, (14-slayd) Alisher Navoiy nomidagi opera va balet akademik teatri. U O'zbekiston ko'chasida joylashgan.

- O'zbekiston milliy banki (15-slayd).

2.3. Maqsud Shayxzoda haqida elementar ma'lumot berish.

- Maqsud Shayxzoda 1908-yilda Oqtoshda tug'ilgan. O'rta ta'limni tug'ilgan shahrida olib, Bokuda muallimlikka o'qigan.

Uning birinchi she'rlar to'plami 1932-yilda "O'n she'r" nomi bilan nashr etilgan.

Maqsud Shayxzoda asli ozarbayjonlik bo'lsa ham, O'zbekistonni chin dildan sevgan, u haqida qayg'urgan shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim edi. Uning "Mirzo Ulug'bek", "Jaloliddin Manguberdi" kabi daramatik asarlari, "Toshkentnoma" dostoni bunga yaqqol misol bo'ladi. Vatanimizga bo'lgan bu sevgisi uning yurtimizni dunyo tarixining gultoji deb bitgan ushbu go'zal misralarida ham namoyondir:

Yer yuzida shuhrat topgan o'lkadir o'lkam,

O'zbekiston deyildimi, qit'alar qoyil.

Nega doim bu diyorning dilida ko'klam?

Chunki erklik qo'shiqlari shodlikka moyil.

Ko'p shirindir tili, injudek gaplar,

Balki quyosh xandasidan yasalgan lablar.

Qadim tuproq bashar tongin guvohi bo'lgan,

Ko'p asrlar yil sanashda undan mashq olgan.

3. She'r bilan tanishtirish. She'r ifodali o'qib beriladi.

4. O'quvchilarning she'r haqidagi dastlabki taasurotlarini aniqlash.

- She'r sizga yoqdimi?

- U nima haqida ekan?

- Sizga ko'proq qaysi bandi yoqdi?

5. Lug'at ishi. She'rni ichda o'qib ma'nosi tushunarsiz bo'lgan so'zlarni aniqlash:

ixlosmand - ishqiboz, ixlos qo'ygan

sozanda - biror musiqa asbobini chaluvchi shaxs

dudoq - lab

6. She'rni o'quvchilarga qismlarga bo'lib o'qitish.

7. Topshiriq bilan tanlab o'qitish.

- "Nimasi ko'p Toshkentning?" savoliga she'rdan javob topib o'qing.

- "Nimalar ko'p Toshkentda?" savoliga she'rda qanday javob berilgan? Shu o'rinni topib o'qing.

- "Nima ko'rding Toshkentda?" savoliga berilgan javobni she'rdan topib o'qing.

- Tong payti tasvirlangan o'rinni topib o'qing.

8. She'r matni ustida ishlash.

- She'rni ichingizda o'qing.

- Kim? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni toping.

- Qofiyadosh so'zlarni toping.

9. Ifodali o'qish musobaqasi. Guruhlar o'rtasida ifodali o'qish musobaqasi tashkil etiladi. Bunda har bir o'quvchi bir banddan o'qiydi.

10. Tarbiyaviy xulosa chiqarish.

- She'rning birinchi bandida muallif nimani nazarda tutyapti? (Toshkentda suv tanqis emasligini nazarda tutyapti)

- "Nimalar ko'p Toshkentda?" savoliga qanday javob berilgan edi? (Oshlar, ishlar, kishilar, sozanda-yu pazanda, ishchilar, ishboshilar).

- Sozandalar o'zlarining chiroyli kuy-qo'shiqlari, pazandalar esa shirin taomlari bilan odamlarga tinch-osoyishta, baxtli kunlarda xizmat qiladilar. Shahrimizning tinchligi uchun ham biz baxtiyor yashaymiz, yurak hovuchlab yurmaymiz, ota-onangiz sizlarni bexavotir maktabga yuboradilar, turli ishlar, qurilishlar, g'oyalar tugallanmay qolib ketmaydi. Mana shu eng aziz ne'matlardan biri tinchlikni asrash esa, bizning muqaddas burchimizdir. Ba'zi mamlakatlar xalqi bolalari mana shunday yorug', keng xonada ta'lim olib, sizlar kabi yayrab o'sishini faqat

orzu qiladilar. Mana shunday imkoniyatlardan foydalanib ta'lim olishingiz, bir-biringiz bilan urushmasligingiz, uy yumushlarida yordamingiz tegishi, o'zingizdan kichiklarni ranjitmasligingiz, kattalarga doim hurmatda bo'lishingizning Vatanimiz tinchligiga qo'shgan hissangiz bo'ladi.

- "Nima ko'rding Toshkentda?" savoliga qanday javob berilgan? (Mevalarning aslini, Doim quyosh faslini, Quyosh bunda izzatda)

- Muallif bu o'rinda nimani nazarda tutyapti?

-Quyosh o'zining zarrin nurlari bilan bog'larimizdagi mevalarni shiraga to'ldiradi. Ya'ni quyosh nurlari ostida pishgan mevalar, sabzavotlar, poliz ekinlari vitamanga boy va mazali bo'ladi (Meva va sabzavotlarni tez-tez iste'mol qilish va, albatta, ularning yangiligi va tozaligiga ahamiyat berish kerakligi ta'kidlanadi).

Tong yorishgan chog'larda

Yerga kulgu sochilar,

Shu uchun dudoqlarda

Sho'x g'unchalar ochilar.

Bu to'rtlikda nima nazarda tutilyapti?

- Erta tongda saxiy quyosh shahrimiz uzra nurlarini sochganda, odamlar uyqudan quvonch bilan uyg'onadilar. Kimdir ishga, kimdir esa o'qishga oshiqadi. Odamlarning ko'zlarida, lablarida quvonch, tabassum, baxtiyorlik va shukronalik aks etadi. Chunki osmonimiz musaffo, shahrimiz osoyishta va obod. Shahrimizning bugungi kundagi ozodaligini, obodligini asrashga har birimiz mas'ulmiz. Beparvolik bilan turli chiqitlarni ko'cha-ko'yga tashlab ketsak, ertaga bu o'zimizga ziyon. Sho'xlik yoki biror-bir g'arazlik bilan daraxtlarning shohlarini sindirish, o'zgalarning uylari oldiga ekilgan gullarni uzish, ekinlarni payhon qilish mumkin emas. O'simliklar hayotimizning ajralmas bo'lagi.

Yangi mavzuni mustahkamlash.

1.Tayanch so'zlar asosida matn yaratish. Bu topshiriq guruh bilan ishlash uchun emas, balki har bir o'quvchi uchun beriladi. O'quvchilar tayanch so'zlar yordamida matn yaratishlari kerak. Matn tuzishda darsda olgan bilimlaridan foydalanishlari mumkin.

2.Tarmoqlash usulida Toshkentga ta'rif berish. Bu topshiriqni bajarishda guruhlariga A3 qog'ozi va flomaster beriladi. Har bir guruh o'rganilgan yangi mavzu asosida Toshkentga tarmoqlash usulida ta'rif berishlari kerak.

Dars so'ngida guruhlar yig'gan ballar e'lon qilinadi.

Uyga vazifa:

1. She'rni ifodali o'qing.
2. She'r mazmuniga mos rasm ishlang.

Sana:

Sinf: 4-sinf

Fan: o'qish

Mavzu: Maqollar

Darsning maqsadi.

Ta'limiy: o'quvchilarga maqollarning xususiyati haqida ma'lumot berish.

Tarbiyaviy: maqollar orqali o'quvchilar ongida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilm olishga qiziqish, kamtarlik, oqko'ngillik tuyg'ularini singdirish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarni maqollar haqidagi bilimlarini boyitish, tez va ongli o'qish malakalarini rivojlantirish.

Dars turi: yangi bilim berish, maqolni o'rganadigan dars

Dars shakli: jamoa,guruh bilan ishlash

Dars metodi: ifodali o'qish, suhbat, tushuntirish, mustaqil ish metodi, tarmoqlash metodi, savol-javob

Dars jihozi: maqollar yozilgan tarqatma kartochkalar

Darsning borishi:

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi va davomatni aniqlaydi. O'quvchilardan uyga vazifani so'raydi.

- Qani, bolalar, o'tgan darsda biz qanday mavzuni o'tgandik?

- Xalq o'g'zaki ijodi janrlaridan yana qaysilarini bilasiz?

O'qituvchi xattaxtaga xalq ijodi o'g'zaki janrlarini tarmoqlashni o'quvchilar bilan birgalikda bajaradi.

O'qituvchi o'quvchilarni maqollarni o'tishga tayyorlaydi. O'quvchilarga 4 gacha sanash, 4 guruhga bo'linishini tayinlaydi. O'quvchilar o'z guruhlariga nom qo'yadi va izohlaydi.

1-guruh: "Vatanparvar" - el-yurtiga sadoqatli, yurti uchun jonini fido qiladigan.

2-guruh: "Mehnatkash" - doimo mehnat bilan mashg'ul.

3-guruh: "Kamtar" - maqtanishni yomon ko'radigan, o'zini boshqalardan past tutadigan.

4-guruh: "Bilimdon" - o'qimishli, ilmi, bilimli

Guruhlarga maqollar konvertlarda tarqatiladi va topshiriqlar beriladi.

1-topshiriq: maqollarni ifodali o'qing.

2-topshiriq: maqollarni tahlil qiling.

3-topshiriq: ma'nosi tushunarsiz so'zlarni izohlashga harakat qiling.

4-topshiriq: maqollarni davom ettiring.

1. Mehnat bilan yer ko'karar,

Duo bilan ...

2. Bilimli olim, bilimsiz....

3. Davlating tugar, bilim... .

4. Kamtarga kamol, manmanga....

Guruh ishlaridan namunalar:

"Vatanparvar" guruhi hamma o'quvchi maqollarni birma-bir ifodali o'qiydi.

Ona yurti - oltin beshig: Ya'ni yashayotgan vataning har qanday yurtdan aziz. Ona yurti tinch, osoyishta bo'lsa, xotirjam yashaysan.

Shu kabi o'ziga berilgan maqollarni tahlil qiladi.

Lug'at ishi:

Kafan - ko'mish oldidan o'lgan odamni o'raydigan mato

1. Mehnat bilan yer ko'karar.

Duo bilan el ko'karar.

2. Bilimli olim, bilimsiz zolim.

3. Davlating tugar, bilim tugamas.

4. Kamtarga kamol, manmanga zavol.

Boshqa guruhlar ham xuddi shunday holda topshiriqlarni bajaradilar. O'qituvchi har bir guruhni ishini kuzatib boradi va

baholab boradi. Hamma guruhlar topshiriqlarni bajarib bo'lgach O'qituvchi mavzu yuzasidan qisqa suhbat o'tkazadi va tarbiyaviy xulosa chiqaradi.

- Bugungi maqollarni o'rganish darsi sizga yoqdimi?

- Maqollar bolalar tarbiyasiga ta'sir qiladi deb o'ylaysizmi?

Ular qanday ta'sir o'tkazishi mumkin?

- Siz, bugun o'zingizga qanday xulosa chiqardingiz?

- O'qigan qaysi maqolingiz sizga ham tegishli?

Guruhlar to'plagan ballar e'lon qilinadi va o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa maqollarni ifodali o'qish va yod olish beriladi.

Hikoya darsi ishlanmasi

Sana:

Sinf: 4-sinf.

Fan: o'qish.

Mavzu: "Saxiy bog'bon" hikoyasi (Farhod Musajonov)

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga bog'bonlik kasbiga oid bilimlarini boyitish va ifodali o'qishga o'rgatish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarni mehnatsevarlikka o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: lug'atini boyitish, nutqini o'stirish va o'qish malakalarini takomillashtirish.

Dars turi: yangi bilim berish, hikoya o'tish darsi

Dars shakli: jamoa, guruh bilan ishlash

Dars metodi: izohli o'qish, mustaqil ish metodi, guruhlarda ishlash, qayta hikoya qilish.

Dars jihozi: Atirgul rasmi, bog' rasmi, test topshiriqlari

Darsning borishi:

1. Salomlashish

2. Davomatni aniqlash

3. Uyga vazifani so'rash

"Ona suti" matnini qayta hikoyalatadi.

O'qituvchi o'quvchilarning oldingi darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida Navro'z haqida, uning noz-ne'matlari haqida suhbat o'tkazadi.

- Navro'z bayrami qachon nishonlanadi?
- Navro'zda qanday taomlar pishiriladi?
- Navro'zda yana qanday ishlar qilinadi?
- Navro'zda qaysi hayvonlarni urmaydilar?

4. Yangi mavzuni o'rganishga o'quvchilar tayyorlanadi.

Suhbat:

Bahorda bog'da qanday ishlar olib boriladi?

Ko'chatlar nima uchun boshqa faslda o'tqazilmaydi?

O'qituvchi Farhod Musajonovning hayoti va ijodiga to'xtalib o'tadi.

Farhod Musajonov 1933-yili 19-dekabrda Toshkent shahrida tug'ilgan. Farhod o'ta qiyin sharoitda o'qib ulg'ayadi. F.Musajonov o'z ijodini bolalarga atab she'r va hikoya yozishdan boshladi. Uning birinchi hikoyasi "Daradagi qishloqda" deb nomlanadi. F.Musajonov bolalarga atab 60 dan ortiq hikoya, "Oftobni quvlab", "Bo'sh kelma, Aliqulov", "Buloq suvi" deb nomlangan uchta qissa yozgan.

Bugun biz F.Musajonovning "Saxiy bog'bon" hikoyasi bilan tanishamiz.

Hikoyani o'qituvchi izohli o'qib beradi. O'quvchilar 4-guruhga bo'linadi. O'quvchilar 1,2,3,4 deb sanaydilar. O'z raqamlari bo'yicha guruhlanib, stol atrofiga o'tiradilar. Har bir stol atrofidagi o'quvchilarga hikoyaning qismlari bo'lib beriladi va topshiriqlar konvertlarda uzatiladi.

1-topshiriq. Guruhingizga nom qo'ying va uni ta'riflang.

1-"Bahor" guruhi. Bu faslda hamma narsa uyg'onadi, mevali daraxtlar gullaydi. O'lkamizga qaldirg'ochlar uchib keladi. Dehqonlar dalalarga urug' sepadi. Bahorda 8-mart xalqaro xotin-qizlar bayrami va Navro'z bayrami nishonlanadi.

2-"Boychechak" guruhi. Boychehcak ilk bahorda ochiladigan piyozgul.U birinchi ochilgani uchun bahorning elchisi hisoblanadi.Barglari yashil, guli esa, sariq va oq ranglarda bo'ladi.

3-"Navro'z" guruhi. Navro'z bayrami bizning milliy bayram hisoblanadi. U har yili 21-martda nishonlanadi. Sharqda Navro'z

bayrami yilboshi hisoblanadi. Navro‘z bayramida sumalak, halim, ko‘k somsa kabi taomlar pishiriladi.

4-“Qaldirg‘och” guruhi. Qaldirg‘och bahor faslida bizning o‘lkamizga uchib keladi. Qanoti ingichka va uzun, juda tez uchadigan, qora-ola kichkina qushcha.

Qaldirg‘och ko‘pincha odamlar yashaydigan uylar yoniga in quradi. Qaldirg‘och bizning do‘stimiz hisoblanadi.

Hamma guruhlariga bir xil topshiriq beriladi:

-Berilgan qismni to‘g‘ri va ifodali o‘qishga tayyorlaning. Ma‘nosi tushunarsiz so‘zlarni lug‘at daftaringizga yozing. Berilgan qismga reja tuzing.

- O‘qigan qismingizni matnga yaqinlashtirib qayta hikoya qilib bering.

- Berilgan qismga sarlavha qo‘ying va daftaringizga yozing.

- Ma‘nosi tushunarsiz so‘zlarning ma‘nosini izohlashga harakat qiling.

-O‘z qismingizdagi ko‘chma ma‘noli so‘zlarni toping va izohlang.

Guruhlar ishlaridan namunalar:

“Bahor”guruhi. Lug‘at ishi:

- gurkirab - rivojlanmoq, barq urib o‘smoq;

- so‘zining ustidan chiqdi - ko‘chma ma‘noda, aytganini qildi;

Sarlavha “Oqiljon bog‘bon”.

“Boychechak”guruhi. Lug‘at ishi:

-xomush - xafa.

Sarlavha “Sovg‘a”.

“Navro‘z” guruhi. Lug‘at ishi:

- istar-istamas - xohlamay;

- xushnud - xursand.

Sarlavha “Chiroyli gul”

“Qaldirg‘och” guruhi. Lug‘at ishi:

-Og‘zi o‘zidan-o‘zi ochilib ketdi - ko‘chma ma‘noda, gapirib yubordi.

Sarlavha “Saxiy bog‘bon”.

O‘quvchilar hamma guruhning lug‘atini va topgan so‘zlarini daftarga yozib boradi. O‘quvchilar aniqlamagan so‘zlarni o‘qituvchi aniqlab, izohlab beradi.

Har bir guruh o'z qismini o'qib, gapirib beradi.

Har bir guruh asar matni ostida berilgan savollarga javob beradi. O'quvchilarga qo'shimcha savollar beriladi:

- *Oqiljon to'g'ri ish qildimi?*

- *Ertakchi bobo nima uchun Oqiljonni maqtadi?*

Har bir guruhga konvertda test topshiriqlari beriladi.

Test namunalari:

Ko'chatlar qaysi fasllarda o'tkaziladi?

A) Bahorda va kuzda

B) Qishda

C) Yozda

Bahorda qanday bayram nishonlanadi?

A) Yangi yil bayrami

B) Navro'z bayrami

C) Mustaqillik bayrami

Bahorda qilinadigan dala ishlarini toping.

A) Paxta teriladi

B) Mevalar yig'iladi

C) Yerga urug' ekiladi

Darsda o'rganilganlar umumlashtiriladi va tarbiyaviy xulosa chiqariladi. Mehnat doimo ulug'lanadi. Mehnatkash inson el ardog'ida bo'ladi. Sizlar ham mehnatsevar bo'linglar, shunda hamma sizni hurmat qiladi.

Uyga vazifa. Hikoyaga reja tuzib kelish.

Guruhlarni to'plagan ballari e'lon qilinadi va faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Mavzu: Odobli bo'lish osonmi? (Anvar Obidjon)

Dars turi. Yangi bilim berish, ertak o'qish darsi.

Maqsad. O'quvchilarning nima yaxshi-yu, nima yomonligi haqidagi tushunchalarini aniqlash va ularni boyitish. O'quvchilarning ongli, to'g'ri, ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish.

Metod: Aqliy hujum, izohli o'qish, suhbat, guruhlab o'qish.

Jihoz: Anvar Obidjon portreti, hayvonlar “mamlakati”, tabiati tasviri, hayvonlar maketi.

I. Chaqiruv bichqichi.

Aqliy hujum. Hayotda nima yaxshi deb hisoblanadi?

O‘quvchilar javobi xattaxtaning bir tomoniga yozib boriladi yoki bir o‘quvchi o‘z fikrini qo‘lidagi kartochkaga yozib, uni o‘qib (yaxshilik) daraxtiga iladi. Daraxt bo‘lim tugaguncha turadi, o‘quvchilar har darsda uning shoxini boyitib boradi.

Taxminiy javoblar: kattalarga salom berish; odamlarning iltimosini bajarish; yaxshi o‘qish; mehnat qilish; kichkinalarga yordam berish; tabiatni sevish, daraxtlarni sindirmaslik; ko‘p kitob o‘qish; hayvonlarga ozor bermaslik; qishda qushlarga don berish...

Hayotda nima yomon deb hisoblanadi? Bu savolga aytilgan va yozilgan javob sandiqqa solinadi. Butun bo‘limni o‘rganish jarayonida yomon narsalar sandiqqa solib boriladi: kichiklarni xafa qilish; atrofdagi kishilarga salom bermaslik...

Odobli bola bo‘lish osonmi? Odobli bo‘lish insonning o‘z qo‘lida. Faqat yaxshilik qilishni istagan odamga odobli bo‘lish oson. Odobli bo‘lish qiyin. Odobli bo‘lish oson, deb hisoblaydiganlar o‘ng tomonga, odobli bo‘lish qiyin, deb bilganlar chap tomonga o‘tib o‘tiring. Har bir tomon o‘z fikrini asoslaydi.

O‘qituvchining hikoyasi. O‘qigan asarlaringiz asosida hayotda nimaning yaxshiligini, nimaning yomonligini farqlay boshladingiz.

Bugungi o‘qish darsimizdan boshlab, nima yaxshi-yu, nima yomon, odobli bo‘lish osonmi? kabi savollarimizga javob topib boramiz.

Shoir Anvar Obidjon portreti xattaxtaga ilib qo‘yiladi. Anvar Obidjonning hayoti va ijodi haqidagi ma‘lumotlar eslatiladi: Anvar Obidjon kim? Uning qaysi asarlarini o‘qigansiz? Yod olgan she‘ringizni ayting.

O‘quvchilar bilimini yangi ma‘lumotlar bilan boyitish: Shoirning “Ona Yer”, “Bahromning hikoyalari”, “Juda qiziq voqea”, “Olovjon va uning do‘stlari”, “O‘g‘irlangan pahlavon” kabi to‘plamlari sizlar o‘qiydigan kitoblardir. Shoir ularda juda qiziqarli hangomalarni hikoya qiladi.

Bugun Anvar Obidjonning “Odobli bo‘lish osonmi?” degan ertagini o‘qiysiz.

“Odobli bo‘lish osonmi?” savoliga Anvar Obidjon nima deb javob bergan ekan? Muammoli savol o‘rtaga tashlandi.

“Odobli bo‘lish osonmi?” ertagi bilan tanishtirish.

Ertak qahramonlari maketi tayyorlanadi. Asarni o‘qish davomida xattaxta tagligiga yoki maxsus stolga tartib bilan terib boriladi. Bu o‘quvchilarning asar voqealaridagi ketma-ketlikni izchil o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Qayta hikoya qilish uchun reja vazifalarini o‘taydi.

Asar syujeti yuzasidan dastlabki suhbat: Ertakning asosiy qahramoni nima? U asarda nimalar bilan uchrashadi? Sichqonchani odobli deya olasizmi? (Uxlab yotgan toshbaqaga ham tinmay salom beradi...)

Bu savollar yordamida o‘quvchilarning asar yuzasidan dastlabki taassurotlari aniqlanadi.

II. Anglash bosqichi.

1. Maqsad. Salomlashish odobi haqidagi bilimlarni boyitish. “Assalomu alaykum” so‘zining qudratini, salom berish har bir kishining vazifasi ekanligini anglashlariga erishish.

2. O‘quvchilarning lug‘atini boyitish. O‘qish malakasi sifatini oshirish.

Metod. Suhbat, tarmoqlash metodi. Ichda o‘qish.

Topshiriq. Asarni ichingizda o‘qing. Ma‘nosi tushunarsiz so‘zlarni lug‘at daftaringizga yozib boring.

Matnning lingvistik tahlili: *Suyukli* so‘zini qaysi so‘z bilan almashtirish mumkin? *Esingni yig‘ib ol* iborasini qanday tushunasiz? *Ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilib* iborasini-chi? “Sichqoncha o‘zini otlarning bag‘riga uribdi” gapidagi bag‘riga, “uribdi” so‘zi qanday ma‘noda qo‘llangan? *Esingni yig‘ib ol, zavqi jo‘shib ketibdi, qittak, mo‘jizagir, samimiy chehralar, sho‘ri, dong qotib qolibdi* va hokazo so‘z va iboralar ustida ham shu tarzda ishlanadi.

Matnni topshiriqlar asosida o‘qitish. Topshiriqlar: Mittigina sichqoncha yashayotgan joy ifoda etilgan qismni o‘qing. Sichqonchani onasi bilan qilgan suhbatini o‘qing. Sichqonchani “Odobli bo‘lish uchun nimalar qilish kerak?” savoliga onasi qanday javob berganligini so‘zlab bering.

Sichqonchanning mushuk bilan uchrashgan holatini topib o'qing. Nima uchun "Shum baroq" ko'zidagi yovuzlik birdaniga so'nibdi? Nima uchun sichqonchanning ko'ngli tog'dek ko'tarilibdi? Shu o'rinni topib o'qing. Echki nima uchun sichqonchani "kam bo'lma", deb duo qildi? Sichqoncha yanada odobli ko'rinish uchun nima qildi? Shu o'rinni topib o'qing. Echki sichqonchanning ortidan qanday o'y-xayollar bilan qoldi? Shu o'rinni topib o'qing. Qanday orzular sichqonchanning yana oldinga qarab boraverish istagini yuzaga keltirdi? Shu o'rinni topib o'qing.

4. Reja tuzish. O'quvchilar hayvon maketlarining joylashish tartibiga qarab matnni qismlarga bo'ladilar. Asarning bir darsga mo'ljalangan 1-bo'limi 3 qismga bo'linadi.

Reja:

Ona nasihati.

Mushukning duosi.

Echki xursand.

5. Reja asosida qayta hikoya qilish. Topshiriq. Har bir guruh o'z qismini bir marta o'qib chiqsin va reja asosida qayta hikoya qilishga tayyorlasin. 1-guruh o'quvchilari rejaning 1-qismini 2-guruh o'quvchilari 2-3-qismini 3-guruh o'quvchilari qayta hikoyalaydi. Qayta hikoyalashda nutqingizda matndagi badiiy so'z va iboralarni qo'llang.

III. Fikrlash bosqichi. Maqsad o'quvchilarning mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini aniqlash. Ertak g'oyasini ochish. Tarbiyaviy xulosa chiqarish.

Metod: Mustaqil ish, tarmoqlash metodi, test.

Sichqonchaga T tizimida tavsif berish.

| Sichqonchanning yaxshi tomonlari | Sichqonchanning xatolari |
|--|--|
| Odobli, kattalarni hurmat qiladi, kattalardan maslahat so'raydi. | Uxlab yotganda salom bermaslikni bilmadi, ikki hayvon urushayotganda ham salom berib xato qildi. |

Sichqonchanning yaxshi xususiyatini yozib, "Yaxshilik" daraxtiga osiladi, yomon xususiyati sandiqqa solinadi.

Asar g'oyasini ochish.

Savollar: Ertakni o'qib nimalarni bilib oldingiz? Anvar Obidjon bu ertakni yozish bilan sizga nima demoqchi? O'zgalarga qanday holatlarda salom beriladi? Salom berish mavridini eslang. Har bir guruh tarmoqlash usulida javoblarni tayyorlaydi.

Tarbiyaviy xulosa chiqarish: Biror narsadan hafa bo'lib turganingizda odamlar bilan qay tarzda salomlashasiz? Xursand chog'ingizda-chi?

O'quvchilar javobi sinf o'quvchilarining xatti-harakatlaridan, tartib-intizomga roya etishlaridan misollar, dalillar keltirib umumlashtiriladi.

Test

Uyga vazifa. Ertakni ifodali o'qish va reja asosida qayta hikoya qilishga tayyorlash. Sichqonchani xususiyatlarini tarmoqlash usulida yozish. Asardagi o'ziga juda yoqqan o'rinni rasmda tasvirlash.

Guruhlarning to'plagan ballari e'lon qilinadi, guruhda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi.

**MATEMATIKA DARSLARINI ILG'OR PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'TKAZISHGA DOIR DARS
ISHLANMALARI**

MAVZU: 100 ichida qo'shish va ayirish

Geometrik shakllar va kattaliklar (34 soat)

| | | |
|--|---|---|
| Mavzu | 100 ichida qo'shish va ayirish. Geometrik shakllar va kattaliklar. | |
| Mavzuning maqsadi: | O'nlikdan o'tmasdan 100 ichida qo'shish va ayirish usulini o'rgatish, sonlarni o'qiy olishi va yozish. Taqqoslash. Sonlarni qatordagi o'rni bo'yicha to'g'ri va teskari o'qiy bilish. dm, m, sm, tushunchalarini kiritish. | |
| Mavzuning asosiy mazmuni, matematik tushunchalar bilan tanishtirish | 100 ichida qo'shish va ayirish jarayonida miqdorlar bilan tanishtirish. O'nlikdan o'tmasdan qo'shish, ayirish. Noma'lum kamayuvchini, noma'lum ayiruvchini topishga doir oddiy masalalar yechish. Bir necha birlikka orttirish (kamaytirish)ga doir tarkibli masalalar yechish. Yig'indi, uchinchi qo'shiluvchini topish, sonni yig'indiga qo'shish va yig'indini songa qo'shishga doir masalalar yechish. Qo'shish va ayirishga doir turli tarkibli masalalar. | |
| Rejalashtirilgan natijalar | Predmetni bilishi (PB) | O'quvchilarning o'quv faoliyati (O'O'F) |
| | 100 ichida sonlarni og'zaki qo'shish va ayirishda qo'shish va ayirish xossalari qo'llash. Nol bilan tugaydigan ikki xonali sonlarni qo'shish va ayirish. Ikki amalli ifodalarda amallarni bajarish tartibi, qavslardan foydalanish. Quyidagicha ko'rinishdagi | Shaxsiy: atrof-muhit realligini matematik tushunish. Doimiy: hisoblash usullari va predmetlar orasidagi o'zaro bog'lanishlarni o'rnatishni bilish. Idrok etish: matematik amal va miqdorlarni idrok qilish, bilish. Kommunikativ: qo'yilgan savolga javob berish. Kichik va katta guruhda ishlashni bilish, bir va ikki amalli masalalar yechish texnologiyasini o'zlashtirish |

| | | |
|--|--|--|
| | qo'shish va ayirishlarni bajarish: 25 + 3, 30 + 24, 36-2, 36-20, 42 + 25, 58-27, 58-28, 58-55, 26 + 4, 30-4, 38 + 42, 74 + 26, 60-24, 100-7, 100-62. | |
|--|--|--|

Tashkiliy ishlar

| Fanlararo aloqadorlik | Ish shakli | Jihozlar (manbalar) |
|--|--|---|
| Kitob bilan ishlash. Texnologiya. Atrof-muhit (obyektlar orasida mantiqiy bog'lanish o'rnatishni bilish, algoritm bilan ishlashni bilish). 11 dan 100 gacha sonlarni qo'shish va ayirish, ularning hosil bo'lish ketma-ketligini predmetlar orqali tasavvur qildirish. | Frontal, yakka, kichik guruh, jamoa bilan ishlash. | Darslik. Daftar. Metodik qo'llanma. Ko'rgazmali va tarqatma material. |

I bosqich. Qiziquvchanlik faoliyatga yo'naltirish

| | |
|---|---|
| Maqsad: 11 dan 100 gacha bo'lgan sonlar. Raqamlash. O'quvchilar qiziqishini didaktik o'yinlar yordamida shakllantirish. | Muammoli vaziyat. Ko'rgazmali asosda ikki xonali sonlar xona birliklarini hosil qilishga oid topshiriqlar. Qo'shish hadlari, ayirish hadlari. Qo'shiluvchi. Ayiriluvchi. Ayirma. Kamayuvchi tushunchalari bilan ifodalangan masalalar yechish. Vaziyatdan qanday chiqish mumkin? |
|---|---|

II bosqich. O'quv-bilish faoliyati

| O'rganish ketma-ketligi | Yangi bilim beradigan topshiriqlar. Tushunchalar (T), o'rganish (O'), bilish (B) | Tashxisli mashqlar. Daftar bilan ishlash |
|--|---|--|
| 1. O'nliklar ustida amallar | | |
| <p>Maqsad o'quvchilarga o'nlikdan o'tmasdan ikki xonali sonning xona birliklari bo'yicha qo'shish va ayirish, masala yechishni o'rgatish. Ikki xonali sonni xona qo'shiluvchilari ko'rinishda yozishga o'rgatish</p> | <p>Kuzatish. Noma'lum kamayuvchini, noma'lum ayiruvchini topishga doir oddiy masalalar yechish. Bir necha birlikka orttirish (kamaytirish)ga doir tarkibli masalalar yechish. Yig'indi, uchinchi qo'shiluvchini topishga doir, sonni yig'indiga qo'shish va yig'indini songa qo'shishga doir masalalar yechish. Qo'shish va ayirishga doir turli tarkibli masalalar. $19 + 19 - (4 + 2)$, $50 + 8, 30 + 40$, $80 - 1, 8 + (7 - 5)$, $90 + 7, 60 - 50$, $99 + 1, (6 + 4) - 8$, $26 - 6, 40 + 60$</p> | <p>Daftar bilan ishlash: $25 + 3, 30 + 24, 36 - 2, 36 - 20, 42 + 25$, 1 dan 20 gacha bo'lgan sonlarni aytish va ular ketma-ketligi. Quyidagi ko'rinishdagi qo'shish va ayirish: $14 + 1, 18 - 1, 10 + 3, 15 - 5, 16 - 10$. Ayirish amali bilan sonlarni taqqoslash. 21 dan 100 gacha sonlarni o'qish va yozish. Ularning o'nlik tarkibi. Bir xonali va ikki xonali sonlar. Sanashda ketma-ketlik. Tarkibli masala bilan tanishtirish. Sonni bir necha birlikka orttirish</p> |

| | | |
|--|---|--|
| | <p>40 - 1, (7 + 2) - 2, 26 - 20, 100 - 20 (Og'zaki). Misollarni qulay usul bilan yeching: (10 + 6) + 3, (30 + 4) + 20, (60 + 2) + 8, (10 + 6) - 3, (30 + 4) - 20, (40 + 10) - 6 Masala. Do'konda 12 atirgul dastasi bor edi. Bir necha guldasta sotilgandan so'ng do'konda 7 ta guldasta qoldi. Qancha guldasta sotilgan?</p> | <p>(kamaytirish) va yig'indini topish; yig'indiga sonni qo'shish; songa yig'indini qo'shish; yig'indidan sonni ayirishga doir masalalar yechish.</p> |
|--|---|--|

2. metr, dm bilan tanishtirish

| | | |
|--|--|--|
| <p>Maqsad - o'quvchilarni uzo'nlik birligi metr va detsimetr bilan tanishtirish, kesma uzunligini o'lchashni bilish, syujetli masalalar yechish. 100 ichida ismli sonlar ustida amal bajarishga o'rgatish.</p> | <p>Kuzatish. Uzo'nlik birliklari - detsimetr, metr, ularning belgilanishi: dm, m. Ular orasidagi munosabat. Berilgan uzunlikdagi kesmani yasash (santimetr, detsimetr, detsimetr va santimetr yordamida). Oddiy shakllarni murakkab shaklga va aksincha aylantirish.</p> | <p>Daftar bilan ishlash: 58 - 28, 58 - 55, 26 + 4, 30 - 4, 38 + 42, 74 + 26, 60 - 24, 100 - 7, 100 - 62. 86 - 74, 52 - 7, 46 + (10 + 5) 60 - (5 + 7), 80 - 74, 34 + 8, 54 - (20 + 7), 65 - (5 + 7)</p> |
|--|--|--|

III bosqich. O'zlashtirish sifatini tashxislash

| | |
|--|--|
| Maqsad – 100 ichida olingan yangi bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash | Mustaqil ish. Matematik diktant. Test. |
|--|--|

IV bosqich. O'quv-intellektual faoliyat

| | |
|--|---|
| <p>Maqsad – o'quvchilarni daftar bilan ishlash jarayonida o'zini-o'zi boshqarishga o'rgatish.</p> | <p>Ifoda yozing va uning qiymatini toping: 1) 2 va 9; 5 va 6; 7 va 7 sonlar yig'indisi. 2) 16 va 7; 14 va 6; 12 va 4 sonlar ayirmasi. Masalani yechish uchun 10 ta yong'oqning rasmini chizish.</p>  <p>Bor edi - 10 ta. Berdi - 6 ta. Qoldi - ? Yechish: $10 - 6 = 4$ ta.</p> <p>1. Ijodiy topshiriq, $45 + 20 + 6$ $84 + 9 - 50$ $43 + (17 - 9)$ $45 - 20 - 6$ $26 - 8 + 40$ $54 - (13 - 6)$</p> <p>2. Evristik topshiriq.</p> <p>3. Mantiqiy toshiriqlar bajarish.</p> <p>4. Tarixiy ma'lumotlar berish.</p> |
|--|---|

V bosqich. Faoliyat natijalarini reyting baholash va uning nazorati

| Nazorat shakli; nazorat turi | Faoliyat natijalarini baholash | |
|--|--------------------------------|---------------------------|
| | O'qituvchi reyting bahosi | Kuzatuvchi reyting bahosi |
| Nazorat ishi (yakuniy test) 1) Tushirib qoldirilgan raqamlarni yozing: 65, 2,2 ..., 75. | | |

| | | |
|---|--|--|
| <p>2) Berilgan sondan oldingi sonni yozing: 97, 44, 79, 100.</p> <p>3) Berilgan sondan keyingi sonni yozing: 26, 48, 64, 99.</p> <p>4) Xona qo'shiluvchilarini o'nliklar va birliklarga ajrating: $74 = 70 + 4$; $55 = \dots + \dots$, $97 = \dots + \dots$, $88 = \dots + \dots$,</p> <p>5) Sonlarni taqqoslang: 73 va 85, 27 va 22, 100 va 80.</p> <p>6) Sonlarni kamayish tartibida o'nliklarda ifodlab yozing: 40, 10, 60, 20, 80, 30.</p> <p>7) tarkibida bitta o'nlik va beshta birlik, bitta o'nlik va bitta birlik, 2 ta o'nlik bo'lgan sonlar bilan arifmetik amal bajaring.</p> <p>8) To'g'ri tenglik hosil qilish: $60 + \dots = 66$, $95 - \dots = 90$, $27 + \dots = 30$,</p> | | |
|---|--|--|

Mavzu : O'tilganlarni takrorlash. Taqqoslash.

Darsning maqsadi:

1) katta kichik, teng munosabatlari, qo'shish va ayirishni tekshirish usullari, geometrik tasavvurlarni shakllantirish;

2) arifmetik amallarni predmetlar orqali taqqoslash amal komponentlari orasidagi bog'lanishlarga bog'liq tarkibli masalalar yechish usullari;

3) Rejalashtirish bosqichida zarur bo'lgan fikrlash usullari.


Darsni loyihalash: analiz va sintez, umumlashtirish

Ko'rgazmali material:


2) Taqqoslash belgilari:




3) Predmetlar orqali son va sanoq tushunchasini mustahkamlash



4) Kesma tushunchasi orqali taqqoslash usullari:




5) Bilimlarni tekshirish:



6) Jadval usulida taqqoslash:

7) navbatgai bosqich jadvali:




8) tarqatma material orqali taqqoslash:



9) tasma yordamida taqqoslash:




10) chizma yordamida ayirmani aniqlash:




$$U = K - Q$$


12) bilimlarni tekshirish usun taqqoslash qoidalarini qo'llash:



11) juftliklar orqali



taqqoslash:




$$4 - 2 = 2$$

13) katta sonni topishni yig'indi bilan ifodalash:

$$U = K + Q$$

14) kichik sonni topishda ayirma bilan ifodalash

15) ishonch hosil qilish texnologiyasi uchun tanlash usuli:




$$U = K - Q$$

Tarqatma material:

1) o'quv jarayonini aktivlashtirishda amallarni tanlash uchun ko'rgazma

2) 6 ta olma 9 ta yulduzcha:
3) mustaqil ishlash uchun ko'rgazma:



Darsning borishi:

1. O'quv jarayoniga tayyorgarlik.

Xattaxtada to'pshiriqni she'riy usulda bayon qilish

*Men bo'sh katak
noma'lumman,
Jumboq, muammoga
limmo-limman,*

- Bolalar she'r mazmuniga diqqat qiling.

Bolalar sher'ni o'qiydi.

- muhim muammoli mazmun nimada, nima so'ralyapti, nima ekan u, bolalar, bu boshdacha-ku, nima qilamiz? Kerakli belgini yozamiz...



- Xattaxtaga diqqat qiling (o'qituvchi kartochkalarni xattaxtaga ilib qo'yadi)

2. Bilimlarni mustahkamlash.

1. Taqqoslashga oid kesmalar o'lchovini yozing va chizmada belgilang.

2. Ko'rgazmadagi tasvir orqali taqqoslashni bajaring, mohiyatini tushuntiring.


- Dam olish daqiqasi: «Tun va kun» o'yini.

Hisoblang va natijani ayting?

$$2 + 7 - 8 + 5 - 4 - 1 + 6 -$$

$$3 - 2 - 1$$

- Javob (1).



- Kimda javob boshqacha?


Kimda-kim qo'l ko'tarsa, o'qituvchi tahlil qilib, savol beradi.



0 1 2 3 4 5 6 7 8 9

- Qaysi amallari bajardingiz? (qo'shish va ayirishni.)


Rasmga diqqat qiling, unda nima tasvirlangan?



- Nima qilish kerak? (predmetlar yordamida son va sanoqni taqqoslash)/

- Topshiriqni qanday bajaramiz? (algoritmini aytamiz).

Ushbu rasmga qarab mustaqil fikrlang, buni qanday bajarasiz?.



9 > 6

(Nima tasvirlangan, nima ko'p yoki kamligi aytiladi)

-Nimani bajardingiz?

(taqoslash algoritmini).

-Endi

tushuganingiz bo'yicha arifmetik ifoda tuzamiz.

(sonlar kassasidan sonlarni va amal belgilarini olib ifoda tuziladi). Yaxshi

| | |
|--|---|
| | ishtirok etgan o'quvchilar reyting bali e'lon qilinadi. |
|--|---|

3. Ayrim qiyinchiliklar sababini o'rganish.

- Qanday topshiriq bajarishingiz kerak edi? Kim uchun qiyinchilik tug'ildi?

Mustaqil topshiriq bilan mustahkamlaymiz.

4. O'zlashtirmagan o'quvchilar bilan ishlash va darsni mustahkamlash chora-tadbirlari.

Darsda o'z oldingizga qanday maqsad qo'ydingiz? Dars maqsadini ayting?

| |
|-------------------|
| Taqqoslash |
|-------------------|

Dasni mustahkamlash uchun bir necha o'quvchi reyting baholanadi va topshiriqlar bajariladi:

- ko'rgazmalar tanlang, juft-juft predmetlardan va toq predmetlardan iborat bo'lsin, har bir predmetni kelgusida o'nliklar bilan belgilash, ifodalash mumkin bo'lsin


- vazifani aniqlang,

- arifetik amal bajarish mumkin bo'lsin?

-xulosa qiling


5. Muammoli vaziyatlardan chiqish.

- Taqqoslay olasizmi?



- Ha.

Nechta olma bor? 9 ta :



- Nechta yulduzcha bor? (6 ta).


- Nima ortib qoldi? (3 ta olma).

- Qanday arifmetik amal bajaramiz?


(Ayririshni hadlar orqali:

$9 - 6 = 3$.)


Juflari nechta:



- Tasma yordamida yopamiz.




- Tasma bilan har ikkalasini yopamiz.




- Taqqoslang, qaysi biri uzun, qaysi biri qisqa?

- Nima uchun? (olmalar yulduzchalarga nisbatan ko'p).

Belgilang. Buni qanday ifodalaysiz?



- Ko'p (uzun), KAM (qisqa)
Tekshiring.



Xattaxtada: **Uzun = Katta - qisqa.**

Demak, sxemada bajara olasizmi?

- ...


- Shunga doir chizma chiza olasizmi? Uzun qisqa tushunchasini katta, kichik munosabati bilan bog'lay olasizmi?

6. Mustaqil ish uchun topshiriqlar.

Tasmalar orasidagi farqni toping?



- buni qanday bajarasiz?

Xattaxtda rasmga qarab bir o'quvchi bajaradi




-Uzunidan qisqasini ayiramiz. Buni qanday bajarasiz?


Amal bajarish qoidasini tushuntiring, asoslandingiz? nimaga



7. Qo'shimcha topshiriqlar yakka tartibda o'quvchilar bilan ishlash uchun.




Mulohaza qiling.



8. Tekshirish uchun topshiriqlar.

Xulosa qiling.



9. O'quv jarayonidagi refleksiya holati.

Qanday yangi bilim oldingiz. Natijani xulosa qiling.



O'qituvchi: Darsning texnologik xaritasiga diqqat qiling.

Dars namunasini keyingi mashg'ulotlar uchun to'liq yoritamiz

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: 100 ICHIDA SONLARNI XONA ORQALI O'TIB QO'SHISH VA AYIRISH

| | |
|--|---|
| <p>Mavzu: 100 ichida sonlarni xonadan o'tib, og'zaki va yozma qo'shish hamda ayirish usullari.</p> | <p>1-bosqich. Tayyorgarlik bosqichi. Tayyorlov bosqichida quyidagi tayanch bilimlar ishlab chiqiladi:</p> <p>a) ikki xonali sonni xona qo'shiluvchilari ko'rinishida yozish ($23 = 20 + 3$); b) yaxlit sonlarni qo'shish ($20 + 50 = 70$); v) yaxlit sonlarni bir xonali songa qo'shish ($70 + 3 = 73$). Bu barcha amallar $23 + 50$ ko'rinishidagi qo'shishning tarkibiy qismi bo'ladi. Shuning uchun, keltirilgan amallarni yaxshi bajarishga erishish zarur.</p> |
| Darsning maqsadi: | |
| Ta'limiy maqsadi: | Qo'shish va ayirishning ustun shaklda bajarilishini o'zlashtirishga erishish. |
| Tarbiyaviy maqsadi: | Tarkibli masalalar mazmunini turmush bilan bog'lash; |
| Rivojlantiruvchi maqsadi: | Atrof-muhit bilan bog'liq matematik masalalarni idrok qilishga o'rgatish |
| Darsning mazmuni, tayanch tushuncha va so'zlar | <ul style="list-style-type: none"> - qo'shish va ayirish amallari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar. Qo'shish va ayirish amallarining to'g'ri bajarilganligini tekshirish; - ikki amalli sonli ifodalarning qiymatini topish; - ikki xonali sonlarni qo'shish va ayirishni yozma hisoblash; |

| | | |
|---|---|---|
| | - matnli masalalar. Qo'shish, ayirish, amallari mohiyatini ochuvchi matnli masalalar. "...ta ortiq", "...ta kam", "...marta ortiq", "...marta kam" tushunchalariga doir masalalar. | |
| Rejalashtirilgan natijalar | Malakalar | O'quvchilarni bilish faoliyati |
| | | |
| | Tashkiliy qism | |
| Fanlararo aloqadorlik | Ish turi | Materiallar |
| Matematika, mehnat, rasm, tabiatshunoslik, iqtisod | | Darslik, metodik qo'llanma, ko'zgazmalar, tarqatma material |
| I bosqich. Tayyorgarlik bosqichi | | |
| Maqsad: Darsda o'quvchilarni faollashtirish, ijodiy yondashuvga o'rgatish | Muammoli vaziyat: Berilgan hisoblash usuliga nazariy asos bo'ladigan qo'shish qonunlari bilan tanishish: 1) $30 + 20, 60 - 20, 80 + 20, 100 - 30$; 2) yig'indining qo'shiluvchilarini almashtirish qonuni; 3) $25 + 3, 3 + 25$; 4) $50 + 23; 23 + 50$; 5) $36 - 20; 36 - 4$; 6) $26 + 4; 36 - 4$; 7) $60 - 24$; 8) $26 + 7$; 9) $35 - 7$; 10) ikki xonali sonlarni ustun shaklida qo'shish; a) $45 + 23$; v) $37 + 48, 37 + 53, 87 + 13$; b) $57 - 26$; g) $50 - 24; 52 - 24$. | |
| II bosqich. O'quv-bilish faoliyati | | |
| | | |
| O'rganish bosqichi | Bilim, tushuncha, ko'nikmaga doir | Diagnostik topshiriqlar |

| | | |
|--|---|--|
| | yangi bilimni o'zlashtiruvchi va rivojlanitiruvchi topshiriqlar | |
| 1. O'tilgandarni takrorlash | | |
O'quvchilarning ishlari baholanadi va rag'batlantiriladi.

Bargning xususiyatlari va shakllari shunday xilma-xilki, applikatsiyalar yasashda ulardan asosiy material sifatida ham, yasalgan narsalarga bezak berish material sifatida ham foydalanish mumkin. Bu ishlarni bajarish o'quvchilarni estetik didini, tasavvurini oshiradi va ijodiy izlanish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

"QISH" MANZARASINI APPLIKATSIYA USULIDA ISHLASH (1-sinf)

O'qituvchiga tavsiya: applikatsiya ishini bajarishda asosiy e'tibor uning umumiy ko'rinishiga qaratilishi kerak. Yaxshi o'ylangan kompozitsiya, ya'ni tasvirlash lozim bo'lgan narsalarni joylashtirish applikatsiyalarning muvaffaqiyatining garovidir. Qish mavzusida applikatsiya yasash uchun tasvir aniqlanib olinadi. Applikatsiya yasashda o'quvchilar predmetlarni fazoviy idrok etishini o'rganadi. Bizni o'rab turgan narsalar: uy, archa, daraxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni turli shakllar bilan tasvirlashni o'rganadi.

| | |
|---|--|
| Darsning maqsad va vazifalari | <p>Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga applikatsiya haqida ma'lumotlar berish. "Qish" manzarasini applikatsiya usulida yasashga o'rgatish.</p> <p>Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga yasash-qurishga qiziqish uyg'otish. Badiiy-estetik didini tarbiyalash. Tejamkorlikka o'rgatish.</p> <p>Rivojlantiruvchi maqsad: buklash, qirqish, yelimlash orqali qurish-yasash malakalarini rivojlantirish.</p> |
|  | <p>Ko'rgazmali vositalar: applikatsiyadan namunalar applikatsiyani yasash bosqichlari, darslik va slayd.</p> <p>Ko'rgazmali jihozlar: rangli qog'oz va karton qog'oz, qaychi, chizg'ich, qalam, PVA yelimi, sochiq.</p> |

| | |
|---|--|
| <p>Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</p> | <p>Uslub: og'zaki bayon qilish, tushuntirish va tahlil qilish, savol-javob, "Nilufar guli" metodi Shakl: amaliy ish Baholash: rag'batlantirish, 5 balli tizimda baholash.</p> |
| <p>Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari</p> <p>Natija:</p>  | <p>Tashkiliy qism: 10 daqiqa Salomlashish Davomatni aniqlash Uyga vazifani tekshirish Ish joyini tashkil etish Asosiy qism: 25 daqiqa "Aqliy hujum" Yangi mavzuni bayoni Amaliy ishini yasash texnologiyasi Yakuniy qism: 10 daqiqa Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni to'g'irlash O'quvchilar ishini baholash Uyga topshiriq berish</p> |

Ish joyini to'g'ri tashkil etish

Stol ustiga dasturxon bo'lishi kerak. O'quvchining o'ng tomonida yelim uchun cho'tka, qalam, chizg'ich joylashtiriladi, o'quvchining chap tomonida rangli qog'oz va karton joylashtiriladi, o'quvchining old tomoniga chiqindilar uchun quticha, yelim va sochiq joylashtiriladi.


Savollar:

1. Applikatsiya yasash uchun qanday materiallar kerak?
2. Applikatsiyaning asosiy materiali nima?
3. Applikatsiya qanday shakllardan yasaladi?
4. Qish manzarasini qanday tasavvur qilasiz?

Yangi mavzu bayoni:

"Qish" manzarasi mavzusidagi applikatsiyani yasashda detallari qaysi geometrik shakllarga o'xshashligi, ularni qanday o'lchamlarda, qaysilarini kattaroq, qaysilarini kichikroq olish, qanday izchillikda joylashtirish kerakligini aniqlaydilar.

Amaliy ishdan oldin o'quvchilarga "Tarmoqlash" metodi orqali qish faslida qanday hodisalar ro'y berishi to'g'risida yozishlari topshiriq qilib beriladi.



1. Namuna tahlili:

- Qish manzarasida nimalar tasvirlangan?
- Qish manzarasi nechta detallardan tashkil topgan?
- Detallar qanday joylashgan?
- "Qish" manzarasini tasvirlashda qanday ranglardan foydalanilgan?

2. Ishni bajarish tartibini aniqlash:

- Qish manzarasi detallarini joylashishini fonga grafik tasvirlash;
- Detallarga mos ranglarni tanlash va qirqish;
- Detallarni qog'ozda joylashtirish;
- Ishni amaliy bajarish.


3. Applikatsiyalar bajarish bo'yicha mustaqil ish:

“Qish” manzarasini applikasiya usulida yasash texnologiyasi.

Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi;

Ochiq tondagi qog‘oz va fon tanlanadi va tasvirlash lozim bo‘lgan applikasiya tasviri chiziladi;


Applikasiya mo‘ljallangan tasvir va elementlar miqdori qog‘ozni tanlashni belgilaydi;



Tasvir ustida ishlaganda asosiy e‘tibor mavzu mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o‘lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi.

Tasvir hajmiga ko‘ra eng katta element asosiy mavzuga mos bo‘lishi kerak.

Tasvirlash lozim bo‘lgan materiallar yordamida figura va predmetlar holati aniqlanadi.



Tasvirlangan hodisalarning uyg‘unligiga erishiladi.

Tasvirning barcha detallari, xatto eng kichiklari ham qog‘ozdan qirqiladi, ularni chizmaslik kerak.

Tayyorlangan detallar yelimlanadigan sath, ya‘ni fonga joylashtiriladi va o‘ylangan tasvir hosil qilinadi.



Agar bu tasvir ma‘qul bo‘lmasa, detallar boshqacha joylashtiriladi.

Detallarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o'rnini qalam bilan belgilab qo'yiladi.

Ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya o'qini o'tkazish va elementlarni shunga ko'ra joylashtirish lozim.



Yakuniy qism:

Dars yakunida bajarilgan ishlar ko'rsatilib, o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.



Har bir o'quvchilar bajargan ishlariga qarab izohli baholanadi.

"Qish" manzarasini applikatsiya usulida yasab, tugatish uyya topshiriq qilib beriladi.

MAVZU: KARTONDAN HARAKATLANUVCHI O'YINCHOQLAR YASASH (2-sinf)

O'qituvchiga tavsiya: O'yinchoq – bolalar o'yinlari uchun yaratilgan maxsus predmetdir. Biroq bu aniq predmetning kichiklashtirilgan nusxasi emas, balki uning shartli tasviri, o'ta umumlashtirilgan badiiy obrazidir.

| | |
|-------------------------------|--|
| Darsning maqsad va vazifalari | <p>Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga harakatlanuvchi o'yinchoqlar haqida ma'lumotlar berish. Kartondan harakatlanuvchi o'yinchoqlar yasashga o'rgatish.</p> <p>Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga yasash-qurishga qiziqish uyg'otish. Badiiy-estetik didini tarbiyalash. Tejamkorlikka o'rgatish.</p> |
|-------------------------------|--|

| | |
|---|---|
| | <p>Rivojlantiruvchi maqsad: buklash, qirqish, yelimlash orqali qurish-yasash malakalarini rivojlantirish.</p> |
|  | <p>Ko'rgazmali vositalar: harakatlanuvchi o'yinchoqlardan namunalar, o'yinchoqni yasash bosqichlari, darslik va slayd.</p> <p>Ko'rgazmali jihozlar: Rangli karton qog'ozi, qaychi, chizg'ich, qalam, PVA yelimi, sochiq.</p> |
| <p>Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</p> | <p>Uslub: og'zaki bayon qilish, tushuntirish va tahlil qilish, "Zinama-zima" savol-javob</p> <p>Shakl: Amaliy ish</p> <p>Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli tizimda baholash</p> |
| <p>Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari</p> <p>Natija:</p>  | <p>Tashkiliy qism: 10 daqiqa Salomlashish Davomatni aniqlash Uyga vazifani tekshirish Ish joyini tashkil etish</p> <p>Asosiy qism: 25 daqiqa "Aqliy hujum" Yangi mavzu bayoni Amaliy ishni yasash texnologiyasi</p> <p>Yakuniy qism: 10 daqiqa Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni to'g'irlash O'quvchilar ishini baholash Uyga topshiriq berish</p> |

Ish joyini to'g'ri tashkil etish:

Stol ustida dasturxon bo'lishi kerak. O'quvchining o'ng tomonida yelim uchun cho'tka, qalam, chizg'ich; o'quvchining chap tomonida rangli qog'oz va karton joylashtiriladi, o'quvchining old tomoniga chiqindilar uchun quticha, yelim va sochiq joylashtiriladi.

Savollar:

1. Karton qanday material?
2. O'yinchoqlarning qanday turlarini bilasiz?
3. O'yinchoqlar qanday materiallardan yasaladi?

4. O'yinchoqni harakatlantirish uchun nima qilish kerak?

Yangi mavzu bayoni:

Kartondan harakatlanuvchi o'yinchoqlar yasashda o'quvchilar model va maket haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Qo'l asboblari va moslamalardan foydalanishni, harakatlanuvchi o'yinchoq qismlarini, qismlar o'lchovining bir-biriga mutanosibligini o'rganadi.

1. Namuna tahlili:

a) Ayiqcha qanday qismlardan tashkil topgan?

b) Uning qismlari qanday joylashgan?

v) Ayiqcha qismlari bir-biriga qanday mahkamlangan?

g) Harakatlanuvchi ayiqcha qanday materialdan tayyorlangan?

2. Ishni bajarish tartibini aniqlash:

a) Kartondan ayiqchaning qismlarini (tanasi, qo'l, oyoqlarini) tayyorlash.

b) Ayiqchaning qismlari (tanasi, qo'l, oyoqlarini) joylashishini aniqlash.


v) Ayiqcha qismlarni bir-biriga mahkamlash.

g) Qo'shimcha bezak ishlarini bajarish.

3. Mavzu bo'yicha amaliy ish:

Kartondan harakatlanuvchi ayiqcha o'yinchoq'ini yasash bosqichlari:

O'qituvchi bu mavzuni "Zinama-zina" usulidan foydalanib o'rgatsa, o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishadi. Bunda ish bosqichlari birin-ketin tartib bilan, oddiydan murakkablikka qarab olib boriladi.




1-bosqich: Ayiqcha modelini yasash uchun rangli karton tanlab olinadi.

2-bosqich: Rangli kartonga ayiqning tana qismi chiziladi.

3-bosqich: Chizilgan shakl qirqib olinadi.

4-bosqich: Ikkinchi kartonga uning qo'l va oyoqlari chiziladi.

5-bosqich: Chizilgan qo'llar qirqib olinadi.




6-bosqich: Tana qismiga qo'l va oyoqlarini birlashtirish uchun teshik o'rni qalam bilan belgilanib, bigiz bilan teshib olinadi.

7-bosqich: Tayyor bo'lgan qo'l va oyoqlarni tana qismi ustiga qo'yib bolt yordamida bir-biriga mahkamlanadi. Ayiqchani harakatlantirish uchun unga ip boglash kerak. Teshiklar o'rni qalam bilan belgilanib, qo'yilgan belgilar ustidan bigiz bilan teshib olinadi.

8-bosqich: Teshiklarning oldi tomonidan orqa tomoniga qaratib ip o'tkaziladi. Ip o'yinchoqning markazidan bir-biriga

bog'lanadi. Ipning uch qismiga tugma yoki boshqa qattiq predmet mahkamlanadi. Ipni pastga qaratib tortganda oyoq va qo'llar harakatlanishi kerak.



Ayiqcha o'yinchog'iga qo'shimcha bezak berish uchun uning og'iz va ko'zlarini rangli qog'ozdan qir qiladi va yelimlanadi. Panjasi qismi chizib qo'yiladi. Ayiqcha o'yinchog'i tayyor bo'ldi.

Yakuniy qism:

Dars yakunida bajarilgan ishlar ko'rsatilib, o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Har bir o'quvchilar bajargan ishlariga qarab izohli baholanadi.



Kartondan harakatlanuvchi ayiqcha o'yinchog'ini yasab to'g'atish uyga topshiriq qilib beriladi.

**MAVZU: QOG'OZDAN TURLI O'YINCHOQLAR YASASH
(2-sinf)**

O'qituvchiga tavsiya: maketlar – bolalar o'yinlari uchun yaratilgan maxsus predmetdir. Biroq bu aniq predmetning kichiklashtirilgan nusxasi emas, balki uning shartli tasviri, o'ta umumlantirilgan badiiy obrazidir.

Qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilar qog'ozni buklash yo'li bilan turli xil narsalarning shaklini yasashni ham o'rganib boradi.

| | |
|--------------------------------------|---|
| <p>Darsning maqsad va vazifalari</p> | <p>Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga kvilling haqida ma'lumotlar berish. Kvilling usulida tabriknoma yasashga o'rgatish.</p> <p>Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga yasash-qurishga qiziqish uyg'otish. Badiiy-estetik didini tarbiyalash. Tejamkorlikka o'rgatish.</p> |
|--------------------------------------|---|

| | |
|---|--|
| | <p>Rivojlantiruvchi maqsad: buklash, qirqish, yelimlash orqali qurish-yasash malakalarini rivojlantirish.</p> |
|  | <p>Ko'rgazmali vositalar: kvilling usulida yasalgan tabriknomalardan namunalar, kvilling usulini yasash bosqichlari, darslik va slayd.</p> <p>Ko'rgazmali jihozlar: rangli qog'oz va yozuv qog'oz, qaychi, qalam, PVA yelimi, sochiq.</p> |
| <p>Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</p> | <p>Uslub: og'zaki bayon qilish, tushuntirish va tahlil qilish, kasbga yo'llash o'yini, savol-javob.</p> <p>Shakl: amaliy ish</p> <p>Baholash: rag'batlantirish, 5 balli tizimda baholash</p> |
| <p>Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari</p> <p>Natija:</p>  | <p>Tashkiliy qism: 10 daqiqa</p> <p>Salomlashish Davomatni aniqlash Uyga vazifani tekshirish Ish joyini tashkil etish</p> <p>Asosiy qism: 25 daqiqa</p> <p>“Aqliy hujum” Yangi mavzuni bayoni Amaliy ishni yasash texnologiyasi</p> <p>Yakuniy qism: 10 daqiqa</p> <p>Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni to'g'irlash O'quvchilar ishini baholash Uyga topshiriq berish</p> |

Darsning borishi.

Ish joyini to'g'ri tashkil etish:

Stol ustida dasturxon bo'lishi kerak. O'quvchining o'ng tomonida yelim uchun cho'tka, qalam, chizg'ich, qaychi joylashtiriladi, o'quvchining chap tomonida rangli qog'oz va yozuv qog'ozi joylashtiriladi, o'quvchining old tomoniga chiqindilar uchun quticha, yelim va sochiq joylashtiriladi.

Savollar:

1. Qog'ozni buklash usullari qanday?
2. Qog'ozdan nimalar yasash mumkin?
3. Qog'ozdan qanday shakllarni yasashni bilasiz?
4. Rangli qog'oz qanday xususiyatga ega?

Yangi mavzu bayoni:

Qog'ozdan maketlar yasash mashg'uloti uchun ish joyini to'g'ri tashkil etish ish qurollaridan to'g'ri foydalanish, shu bilan birga o'quvchilar bu ko'rgazmalarni yasash bosqichlariga rioya qilgan holda, dars davomida turli maketlarni yasashni o'rganadi.

1. Namuna tahlili:

- a) Maketlar qanday qog'ozdan tayyorlangan?
- b) Maketlar uchun qanday ranglar tanlangan?
- d) Rangli qog'ozning shakllari qanday?

2. Ishni bajarish tartibini aniqlash:

- a) Maketlar uchun rangli qog'ozlar tanlash;
- b) Maketlar uchun rangli qog'oz o'lchamlarini tayyorlash.

3. Maketlar yasash bo'yicha amaliy ish:

Qog'ozdan «Kuchukcha» o'yinchog'ini yasash


1-bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog'oz olinadi va uni uchburchak shakliga keltiring.

2-bosqich. Hosil bo'lgan uchburchak shaklini ikkita burchagini buklab, uchta uchburchak shakliga ketiring.


3-bosqich. Hosil bo'lgan uchburchaklarning o'rta qismidagi uchburchakni pastki burchak uchini orqa tarafiga buklang.


4-bosqich. Pastki qismini qirqib, bosh qismiga biriktiring.

5-bosqich. Shaklga ishlov bering (ko'zi, burni, tumshug'ini chizing).




Harflarni kataklarga shunday joylashtiringki, unda birinchi ustunda kasb nomi va ikkinchi ustunda vazifasi kelib chiqsin.

| | | | | |
|-----------|----------|----------|----------|--|
| O' | L | O | G | CH  |
| I | N | I | R | |
| K | O | T | A | |
| U | T | V | G | |
| | | | | |



Qog'ozdan «Qurbaqa» o'yinchog'ini yasash

1. Kvadrat shaklidagi rangli qog'oz olinadi.
2. Kvadrat shaklini buklab do'ppi shakliga keltiriladi.
3. Hosil bo'lgan uchburchakni bir tomonining ikki uchi teng ikkiga bukkanadi. Romb shakli hosil bo'ladi.
4. Romb shaklining pastki uchlarini yuqoriga qaratib uchburchak qilib buklaymiz.



5. Hosil bo'lgan shaklning orqa tomonidagi uchlari o'rtasiga keltirib bukkanadi.
6. Shaklning pastki uchlarini 1 sm yuqoriga va pastga bukkanadi. Yuqoridagi ikkita burchak buklash chizig'iga tenglashtirib orqaga bukkanadi.

Belgilar o'rniga harflarni qo'yib qurbaqani o'rganuvchi kasb nomini toping

| | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| ● | ★ | ♥ | ● | ■ | ● | ★ | ● | ■ | ● | ▲ | ■ | ● | ★ | ✂ | ⚡ |
| | | | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | | | H |
| ■ | ▲ | ▲ | ● | ▲ | ● | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | | | |

Yakuniy qism:

Dars yakunida bajarilgan ishlar ko'rsatilib, o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.


Har bir o'quvchilar bajargan ishlariga qarab izohli baholanadi.


Qog'ozdan maketlar yasash ishlarini to'g'atish uyga topshiriq qilib beriladi.

MAVZU: URUG'LARDAN MOZAIKA YASASH (3-sinf)

O'qituvchiga tavsiya: mozaika monumental dekorativ sa'nat turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozaika qo'llanadigan materiallariga ko'ra ham naqsh va rasmlariga ko'ra ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. O'rta Osiyoda madrasalar, machitlar, saroylar mozaika usulida bezatilgan.

Hozirgi kunda mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, devorlar va xalq amaliy san'ati asarlari bezatiladi. Mozaika ishlarida oyna, sopol, plita bo'laklaridan foydalaniladi.

| | |
|--|--|
| <p>Darsning maqsad va vazifalari</p> | <p>Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga mozaika san'ati haqida bilim va tushunchalar berish. Urug'lardan mozaika usulida naqsh yasashga o'rgatish.</p> <p>Tarbiyaviy maqsad: mozaika san'atiga qiziqish uyg'otish. Estetik didini tarbiyalash. Tejamkorlikka o'rgatish.</p> <p>Rivojlantiruvchi maqsad: urug'larni yelimplash orqali qurish-yasash malakalarini rivojlantirish.</p> |
|  | <p>Ko'rgazmali vositalar: urug'dan yasalgan mozaika ishlaridan namunalar, naqshni yasash bosqichlari, darslik va slayd.</p> <p>Ko'rgazmali jihozlar: qovun va tarvuz urug'lari, qog'oz, qalam, PVA yelimi, bo'yoqlar, sochiq.</p> |

| | |
|---|--|
| <p>Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</p> | <p>Uslub: og'zaki bayon qilish, tushuntirish va tahlil qilish, ketma-ketlik, savol-javob Shakl: amaliy ish Baholash: rag'batlantirish, 5 balli tizimda baholash</p> |
| <p>Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari</p> <p>Natija:</p>  | <p>Tashkiliy qism: 10 daqiqa Salomlashish Davomatni aniqlash Uyga vazifani tekshirish Ish joyini tashkil etish Asosiy qism: 25 daqiqa Savol-javob Yangi mavzuni bayoni Amaliy ishini yasash texnologiyasi Yakuniy qism: 10 daqiqa Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni to'g'irlash O'quvchilar ishini baholash Uyga topshiriq berish</p> |

Darsning borishi

Ish joyini to'g'ri tashkil etish:

Stol ustiga dasturxon bo'lishi kerak. O'quvchining o'ng tomonida yelim uchun cho'tka, qalam, chizg'ich; chap tomonida qog'oz, karton va urug'lar joylashtiriladi, O'quvchining oldiga chiqindi uchun quticha, yelim va sochiq joylashtiriladi.


Savollar:

1. Mozaika qanday sa'nat turi?
2. Qayerlarda mozaika usulida bajarilgan ishlarni ko'rgansiz?
3. Qanday urug' turlarini bilasiz?
4. Urug'larni ishga tayyorlash qanday amalga oshiriladi?

Yangi mavzu bayoni:

Meva va poliz ekinlarining urug'lari tabiatda keng tarqalgan bo'lib, to'plash va saqlash oson bo'lgan material hisoblanadi. Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug'lari yordamida xilma-xil mozaika ishlarini bajarish mumkin. Ayni bir ishda xilma-xil meva urug'laridan foydalanish mumkin.

Urug'larni ishga tayyorlash uchun "Ketma-ketlik" usulidan foydalanib o'rgatiladi.



1. Namuna tahlili:

- Mozaika ishida qanday urug'lardan foydalanilgan?
- Mozaika ishi nechta detallardan tashkil topgan?
- Urug'lar qanday joylashgan?
- Mozaika ishida qanday yelimdan foydalanilgan?

2. Ishni bajarish tartibini aniqlash:


- Mozaika ishida urug'larni joylashishini fonga grafik tasvirlash;
- Tasvirga mos urug'larni tanlash;
- Urug'larni qog'ozda joylashtirish;
- Ishni amaliy bajarish.

3. Mozaika ishini bajarish bo'yicha mustaqil ish:

Urug'dan mozaika yasash texnologiyasi

Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi, keyin fon va shakl tanlanadi.


Mozaikaga mo'ljallangan tasvir uchun urug'lar tanlanadi.



Tasvir ustida ishlanganda asosiy e'tibor tanlangan mavzu mazmuni, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglariga qaratiladi;

Tasvirlash lozim bo'lgan predmetlarning holati aniqlanadi.

Urug'larni yelimplashda PVA yelimidan foydalaniladi.



Tasvirlanadigan urug' ranglari va hodisalarning uyg'unligiga erishiladi.



Tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham urug'dan tayyorlanadi, ularni chizmaslik kerak.

Urug'lar qog'oz sathiga joylashtiriladi va o'ylangan tasvir hosil qilinadi.

Agarda bu tasvir ma'qul bo'lmasa urug'lar boshqacha joylashtiriladi.

Tasvirni kerakli qismi yelimlanadi va urug'lar yopishtiriladi.

Urug'larni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o'rnini qalam bilan belgilab qo'yiladi.




Urug'larni yelimplab bo'lgandan so'ng quritish uchun qo'yiladi. Quritishda yelvizak bo'lmasligi kerak.

Eslatma: Iste'mol mahsulotlari (guruch, mosh, loviya va no'xat)dan foydalanish man etiladi.

Dars yakunida bajarilgan ishlar ko'rsatilib, o'quvchilar bilan birga tahlil qilinadi. Har bir o'quvchi bajargan ishi izohlab, baholanadi.

Mavzu yuzasidan quyidagi ish namunalari uyga topshiriq qilib beriladi.



**MAVZU: BISSELDAN HAJMDOR GUL KO'RINISHINI
YASASH
(3-sinf)**

O'qituvchiga tavsiya: to'garaklarda bisserdan tayyorlangan gullarni o'quvchilar bayramlarda yoki tug'ilgan kunida onalariga, buvilariga, opa-singillariga yoki yaqin o'rtoqlariga sovg'a qilishi mumkin.

Bu ishlar orqali o'quvchilarda tadbirkorlikka xos bo'lgan ijodiy izlanish, mustaqil ishlash, mehnatsevarlik, vaqtdan unumli foydalanish kabi fazilatlar shakllanib boradi.

| | |
|-------------------------------|--|
| Darsning maqsad va vazifalari | <p>Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga bisser haqida ma'lumot berish. Bisserlardan gullar yasashga o'rgatish.</p> <p>Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga yasash-qurish orqali badiiy-estetik didini tarbiyalash. Ijodkorlikka o'rgatish.</p> <p>Rivojlantiruvchi maqsad: bisserdan gullar yasash malakalarini shakllantirish.</p> |
|-------------------------------|--|

| | |
|--|---|
| | <p>Ko'rgazmali vositalar: bisserdan yasalgan gullardan namunalar, gul yasash bosqichlari, darslik va slayd.</p> <p>Ko'rgazmali jihozlar: turli rangdagi bisserlar, maxsus sim, lenta, tayoqcha.</p> |
| Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi | <p>Uslub: og'zaki bayon qilish, tushuntirish va tahlil qilish, savol-javob, BBB.</p> <p>Shakl: amaliy ish</p> <p>Baholash: rag'batlantirish, 5 balli tizimda baholash</p> |
| Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari Natija: | <p>Tashkiliy qism: 10 daqiqa Salomlashish Davomatni aniqlash Uyga vazifani tekshirish Ish joyini tashkil etish</p> <p>Asosiy qism: 25 daqiqa "Aqliy hujum" Yangi mavzuni bayoni Amaliy ishni yasash texnologiyasi</p> <p>Yakuniy qism: 10 daqiqa Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni to'g'irlash O'quvchilar ishini baholash Uyga topshiriq berish</p> |



Darsning borishi

Ish joyini to'g'ri tashkil etish:

Stol ustiga dasturxon bo'lishi kerak. O'quvchining o'ng tomonida bisser turlari, qaychi, tayoqcha; chap tomonida maxsus sim joylashtiriladi, o'quvchining oldiga chiqindi uchun quticha va sochiq joylashtiriladi.

Savollar:

1. Qanday gullarni bilasiz?
2. Bisserlardan nimalar yasash mumkin?
3. Gullarni qanday materiallardan tayyorlash mumkin?
4. Bisserlarning qanday turlari mavjud?
5. Hajmdor gullar deganda nimani tushunasiz?

Yangi mavzu bayoni:

Bisserdan gullarni to'qishda kerakli ish qurollarining: igna, sim va ip turlari; munchoqlar to'plami: dur, toshlar, ko'zlar,

pistonlar, shisha munchoq turlari. Yordamchi materiallar: kley turlari, qaychi xillari, simlar haqida ma'lumot beriladi.

O'quvchilarga amaliy ishni boshlashdan oldin "BBB" metodi orqali mavzu bo'yicha nimalarni bilishi, qanday ma'lumotni bilishni xohlashi va o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotlar umumlashtirildi.

| Bisserlar to'g'risida nimani bilasiz? | Bisserlar to'g'risida nimani bilishni xohlaysiz? | Bisserlar to'g'risida nimani bilib oldingiz? |
|--|---|---|
| | | |
| | | |
| | | |

1. Namuna tahlili:

- a) Gul qanday qismlardan tashkil topgan?
- b) Gulning qismlari qanday joylashgan?
- d) Gulni tayyorlashda qanday rangdagi bisserlardan foydalanilgan?
- e) Gulni yasashda qanday materiallar ishlatilgan?

2. Ishni bajarish tartibini aniqlash:


- a) Yasaladigan gul nomini aniqlash.
- b) Gul rangiga mos bisserlarni tanlash.
- d) Bisser rangi va o'lchamlarini moslashtirish.
- e) Ishni amaliy bajarish.

3. Amaliy ish bo'yicha mustaqil ish:

Bisserlardan gul yasash texnologiyasi

- maxsus simni uch xil o'lchamda kesib olinadi va birinchi simga 20 dona, ikkinchi simga 15 dona rangli munchoq terib chiqiladi.

Simlar ketma-ket aylantirib o'rab olinadi.



Tayyor bo'lgan gul yaproqlarini bir-biriga o'raladi va gul shakliga keltiriladi:

- xuddi shunday gul donalarini 5 dona yasash kerak;
- gul shaklini o'rtasiga sariq bisserdan doira yasash va biriktirish kerak;



- gul barglarini yasash uchun simga yashil rangdagi bisserlarni terib olamiz;

- birinchi simga 40 dona, ikkinchi simga 35 dona, uchinchi simga 30 dona, to'rtinchi simga 25 dona, beshinchi simga 20 oltinchi simga 5 dona bisser terib chiqiladi;



- simga terilgan bisserlarni aylantirib o'rab, barg shaklga keltiriladi;

- tayyor bo'lgan gul va barglarni gul tanasiga biriktirib chiqiladi;

- gul tanasi tayyor bo'lgandan so'ng albastr qorishmasi tayyorlanadi va tuvakka solinadi;

- bir qancha vaqt o'tgandan so'ng gul tanasi tuvakdagi albaster qorishmasiga o'tkaziladi va qo'shimcha bezak berish ishlari bajariladi.

Yakuniy qism:

Dars yakunida bajarilgan ishlar ko'rsatilib, o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.

Har bir o'quvchilar bajargan ishlariga qarab izohli baholanadi.

Bisserlardan gul yasash ishlarini to'g'atish uyga topshiriq qilib beriladi.

MAVZU: 8-MARTGA BAYRAM TABRIKNOMASINI YASASH (KVILLING USULIDA. 4-sinf)


O'qituvchiga tavsiya: kvilling - bu badiiy texnika, ikki taraflama rangli qog'oz tasmasi asosida bajarilgan amaliy ish.

Bu texnika (nafis gullar, bejirim naqshlar, ertak qahramonlari, hayvonlar va baliqlar, qushlar) yordamida tabriknoma, albom, quticha, rasm uchun ramkalarni bezash mumkin.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari kvilling texnikasiga oid mashg'ulotlarning birinchi bosqichidagi qog'ozni o'rash jarayoni qiyin bo'lishiga qaramay, juda maroq bilan ishlashadi.

Kvilling usulida turli narsalar shaklini yasashni bosqichma-bosqich o'rgatish, har bir yangi shaklni bir necha mashg'ulotda bajariish kerak. **Kvilling shakllari.** Tabletka asosiy shakl bo'lib, ana shu shakl asosida boshqa shakllar qilinadi. Tomchi, ko'z, barg, gul shakli.

| | |
|-------------------------------|---|
| Darsning maqsad va vazifalari | <p>Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga tabriknomalar haqida ma'lumotlar berish. Kvilling usulida tabriknoma yasashga o'rgatish.</p> <p>Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga yasash-qurishga qiziqish uyg'otish. Badiiy-estetik didini tarbiyalash. Tejamkorlikka o'rgatish.</p> <p>Rivojlantiruvchi maqsad: buklash, qirqish, yelimlash orqali qurish-yasash malakalarini rivojlantirish.</p> |
|-------------------------------|---|

| | |
|---|---|
|  | <p>Ko'rgazmali vositalar: tabriknomalardan namunalar, kvilling usulini yasash bosqichlari, darslik va slayd.</p> <p>Ko'rgazmali jihozlar: rangli qog'oz va yozuv qog'ozi, qaychi, qalam, PVA yelimi, sochiq.</p> |
| <p>Dars jarayonini amalga texnologiyasi oshirish</p> | <p>Uslub: og'zaki bayon qilish, tushuntirish va tahlil qilish, blist savollari, BBB.</p> <p>Shakl: amaliy ish</p> <p>Baholash: rag'batlantirish, 5 balli tizimda baholash</p> |
| <p>Dars jarayonini amalga bosqichlari oshirish</p> <p>Natija:</p>  | <p>Tashkiliy qism: 10 daqiqa Salomlashish Davomatni aniqlash Uyga vazifani tekshirish Ish joyini tashkil etish</p> <p>Asosiy qism: 25 daqiqa "Aqliy hujum" Yangi mavzuni bayoni Amaliy ishni yasash texnologiyasi</p> <p>Yakuniy qism: 10 daqiqa Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni to'g'rilash O'quvchilar ishini baholash Uyga topshiriq berish</p> |

Darsning borishi

Ish joyini to'g'ri tashkil etish:

Stol ustiga dasturxon bo'lishi kerak.

O'quvchining o'ng tomonida yelim uchun cho'tka, qalam, chizg'ich, qaychi; chap tomonida rangli qog'oz va yozuv qog'ozi joylashtiriladi.

O'quvchining oldiga chiqindi uchun quticha, yelim va sochiq joylashtiriladi.

| | Blist savollari | Savollarga javobni izohlang |
|----|--|-----------------------------|
| 1. | Tabriknomalarning qanday turlarini bilasiz? | |
| 2. | Tabriknomalar nima maqsadda ishlatiladi? | |
| 3. | Kvilling usulida qanday shakllar yasash mumkin? | |
| 4. | Kvilling usulida tabriknoma yasashda qanday qog'ozdan foydalaniladi? | |
| 5. | Qaysi bayramlarni bilasiz? | |

Yangi mavzu bayoni:

Tabriknomalar insonlarning yaxshi kunlarida: tug'ilgan kun, bayramlarda, to'y-marosimlarda o'z tilaklarini, yaxshi niyatlarini bildirish uchun taqdim etiladi. Tabriknomalar turli bayramlar uchun turli shakllarda va o'lchamlarda ishlab chiqiladi. Tabriknomalar, asosan, karton qog'oziga tayyorlanadi. Muqovasi turli bezaklar (gullar, ramziy belgilar va boshqa shakllar) bilan bezatiladi. Asosan 8-mart va Navro'z bayramda gullar tasvirlangan tabriknomalar; tavallud kunlariga esa insonga tilak bildiruvchi ramziy belgilar tasvirlangan tabriknomalar taqdim etiladi. Yangi yil bayramida qish, qorbobo va sovg'alar tasvirlangan tabriknomalardan, turli kasbiy bayramlarida kasblar, gullar, turli ramziy belgilar tasvirlangan tabriknomalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Amaliy ishni boshlashdan oldin "BBB" metodi orqali o'quvchilar mavzu bo'yicha nimalarni bilishi, qanday ma'lumotlarni bilishni xohlashlari va o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotlar umumlashtirildi.

| Kvilling haqida nima bilasiz? | Kvilling to'g'risida nimalarni bilishni hohlaysiz? | Kvilling to'g'risida nimalarni bilib oldingiz? |
|--------------------------------------|---|---|
| | | |
| | | |
| | | |

1. Namuna taʼhlili:

- Tabriknoma qanday materialdan tayyorlangan?
- Tabriknomada qaysi bayram tasvirlangan?
- Tabriknomada qaysi ranglar mavjud?
- Tabriknomaning qanday turlarini bilasiz?

2. Ishni bajarish tartibini aniqlash:

- Tabriknomaning detallarining joylashishini grafik tasvirlash;
- Tabriknoma uchun kerakli rangli qog'ozlarni tanlash;
- Tayyor detallarni qog'ozda joylashtirish;
- Ishni amaliy bajarish.


3. Tabriknomani tayyorlash bo'yicha mustaqil ish.

Tabriknoma yasash texnologiyasi

Uzunligi 16 sm eni 24 sm bo'lgan karton qog'oz olinadi. Uni ikki buklanadi. 16 smga 12 sm bo'lgan tabriknoma asosi hosil bo'ladi.




Turli rangdagi rangli qog'oz olinib, 1 sm qilib qalam yordamida chizib chiqiladi. Chizilgan joyidan qirqib, uzun tasmlar hosil qilinadi.



Hosil bo'lgan tasmlarni tish kovlagichning bir uchiga qistiramiz. Tasmani tish kovlagichga mahkam o'rashni boshlaymiz. Bunda barmoq bilan tish kovlagichni aylantirib turamiz. Bosh spiralni bajarayotganda tasmani qattiq o'rab bo'lmaydi. Ayniqsa, oxirgi o'rash vaqtida, unda spiral qattiq bo'lib, ochilmay qolishi mumkin. Bir nechta tasma yoki dumaloqni bir-biriga yelimlab, detall hajmini kattalashtirish mumkin.

Asos kartonining ustki qismiga tayyorlangan shakllar joylashtiriladi. Shakllar bosqichma-bosqich belgilangan joyga PVA yelimi bilan yelimlanadi.



Yakuniy qism:

Dars yakunida bajarilgan ishlar ko'rsatilib, o'quvchilar bilan birga tahlil qilinadi.



Har bir o'quvchi bajargan ishlari izohlanib, baholanadi.

Kvilling usulida tabriknomani yasab, tugatish uyga topshiriq qilib beriladi.

QORBOBO USTAXONASIDA (ARCHA BEZAKLARINI YASASH) (4-sinf)

O'qituvchiga tavsiya: yangi yil bayramida barcha xonadonlarda archa bezatiladi. Archa bezaklari insonlarga zavq va quvonch bag'ishlaydi, shuning uchun ham archa bezaklari yorqin, yaltiroq ranglarda bo'ladi. Archa bezaklari turli shakl, turli ko'rinishlarda bo'ladi. Ularni turli materiallar (shisha, plastmassa, zarqog'oz, sim) dan tayyorlanadi.

| | |
|-------------------------------|---|
| Darsning maqsad va vazifalari | Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga archa bezaklari to'g'risida ma'lumotlar berish. Shardan archa bezaklarini yasashga o'rgatish. Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga yasash-qurishga qiziqish uyg'otish. Badiiy-estetik didini tarbiyalash. Ijodkorlikka o'rgatish. |
|-------------------------------|---|

| | | |
|---|--|--|
| | | Rivojlantiruvchi maqsad: turli materiallardan archa bezaklarini yasash malakalarini rivojlantirish. |
|  | | Ko'rgazmali vositalar: archa bezaklaridan namunalar, archa bezagini yasash bosqichlari, darslik va slayd. Ko'rgazmali jihozlar: archa bezaklaridan namunalar, shar, PVA yelimi, bisserlar, lenta, rangli iplar, sochiq. |
| Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi | | Uslub: og'zaki bayon qilish, tushuntirish va tahlil qilish, savol-javob, "FSMU" Shakl: amaliy ish Baholash: rag'batlantirish, 5 balli tizimda baholash |
| Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari Natija:  | | Tashkiliy qism: 10 daqiqa Salomlashish Davomatni aniqlash Uyga vazifani tekshirish Ish joyini tashkil etish Asosiy qism: 25 daqiqa "Aqliy hujum" Yangi mavzuni bayoni Amaliy ishni yasash texnologiyasi Yakuniy qism: 10 daqiqa Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni to'g'irlash O'quvchilar ishini baholash Uyga topshiriq berish |

Darsning borishi

Ish joyini to'g'ri tashkil etish:

Stol ustiga dasturxon bo'lishi kerak. O'quvchining o'ng tomoniga yelim uchun cho'tka, qaychi, turli bezaklar; chap tomoniga shar, turli rangdagi iplar joylashtiriladi. O'quvchining oldiga chiqindi uchun quticha, yelim va sochiq joylashtiriladi.

Savollar:

1. Archa bezaklari qayerlarda ishlatiladi?
2. Archa bezaklarini nimalardan yasash mumkin?
3. Archa bezaklarining qanday turlari mavjud?

Yangi mavzu bayoni:

O'qituvchi mashg'ulotga kerakli materiallar, archa bezaklari turlari haqida ma'lumot beradi.

Mehnat darslarida archa bezaklari rangli qog'oz, g'ijim qog'oz, zarqog'oz va boshqa turli materiallardan yasaladi.

1. Namuna tahlili;

a) Archa o'yinchog'i qanday materiallardan tayyorlangan?

b) O'yinchoqning kattaligi qanday?

d) O'yinchoqqa qanday materiallardan bezak berilgan?

e) O'yinchoqlarning qanday turlarini bilasiz?


2. O'yinchoqni yasash bo'yicha mustaqil ish:

Shardan archa o'yinchoqlarini yasash texnologiyasi

Archa bezaklarini yasash uchun oddiy sharni kerakli o'lchamda kattalashtirib olamiz.

Kerakli rangdagi g'altak ip olinadi. Ipni bir idishga suvga solib bo'ktiriladi.


G'altak ipning bir uchini ignaga o'tkazib, yelim idishining bir tomonidan o'tkazib, ikkinchi tomonidan chiqarib olamiz.



Yelim idishining ichidan o'tgan yelimli ipning bir uchini sharga o'raymiz.


Ip o'ralgan shar 3 kun maboynida quritishga qo'yiladi. Sharga o'ralgan yelimli ip yaxshi qurishi kerak.

Tayyor shar igna yordamida teshib chiqiladi. Shar bo'laklari uchi to'ntoq buyum bilan ip orasidan chiqarib tashlanadi.



Tayyor bo'lgan sharga turlicha bezak beriladi. Bezak berish ishlarida turli yaltiroq munchoqlar, pistonlar, rangli qog'ozdan foydalaniladi.

Archa bezagining bir uchiga archaga osish uchun ilgak bog'lanadi.



Amaliy ish yakunida o'quvchilar "FSMU" usulidan foydalanib, archa o'yinchog'iga bezak berish bo'yicha o'z fikrini bayon etadi, archa o'yinchog'ini sifati va chiroyli bo'lishini ko'rsatib bu bezak berish usuli samarali natija berishini isbotlaydi.

| "FSMU" usuli | Izohlang |
|--------------------------|----------|
| Fikringizni bayon eting. | |
| Sabab ko'rsating. | |
| Misol keltiring. | |
| Umumlashtiring. | |
| Yakuniy qism. | |

Dars yakunida bajarilgan ishlar ko'rsatilib, o'quvchilar bilan birga tahlil qilinadi. Har bir o'quvchi bajargan ish izohlanadi, baholanadi.

Shardan archa bezaklarini yasab tugatish uyga topshiriq qilib beriladi.

XULOSA

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'limning mazmuni kelajak uchun xizmat qilishi kerak. U nafaqat bizni o'rab turgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining holati va parametrlari, balki ularning istiqboldagi taraqqiyotini ham hisobga olgan holda belgilab berilishi lozim. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quv-bilish jarayonini boshqarish tubdan o'zgardi. O'qituvchi shaxsga yo'naltirilgan o'quv-bilish jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyektga aylandi. O'quvchilar esa, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga safarbar etilmoqda. Shuning uchun ham o'quv jarayonini boshqarish, rejalashtirish, uning natijalarini tahlil qilish va baholash pedagogik prognostika natijalariga asoslangan holda yo'lga qo'yilishi kerak. Mualliflar tomonidan yaratilgan va to'plangan tajriba boshlang'ich ta'lim sifat va samardorligini oshirishga xizmat qiladi va buning natijasida:

1. Boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilar faolligini oshirish imkoni tug'iladi.

2. Pedagogika fanida bugungi kunga qadar olib borilgan ilmiy izlanishlar doirasida boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish muammosini tadqiq etishga yo'naltirilgan tadqiqotlarning olib borilmaganligi muammoning nazariy-amaliy asoslarini o'rganish jarayonida ayon bo'ldi.

3. Boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning amaliyotdagi va o'quvchilarning faolligini oshirish mavjud ahvoli o'rganildi.

4. Boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning mavjud holatini o'rganish oshiriladigan tajriba-sinov ishlarining keyingi bosqichlarida olib boriladigan faoliyatning mohiyatini oydinlashtirish imkonini berdi.

5. Boshlang'ich sinf darslarining tarkibiy qismlaridan biri sinf darsi bo'lib, uni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv fanlarining asoslari to'g'risida chuqur ma'lumot olish, darslarda o'z imkoniyatlarini erkin namoyish etish, faollikka erishish kabi ko'nikmalarni shakllantirish, boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishdan ko'zlangan maqsadga oz jismoniy kuch sarflab, ko'proq samaraga erishish uchun imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. . Sanaqulov X., Xodiyeva D., Sanaqulova A. Mehnat ta'limi. 3-sinf darsligi. – T.: Nafis bezak, 2012.
3. Sanaqulov X., Shirinov M., Qaytarova N. Tarbiyaviy tadbirlar majmuasi. – T.: TDPU, 2012.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU. 2003.
5. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009.
6. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. – T.: TDPU, 2009.
7. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti. – T.: Yangiyul poligraf service, 2010.
8. Uzviylashtirilgan o'quv dasturi. – T.: Yangiyul poligraf service, 2010.
9. Abdullayeva Q. va boshq. O'qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2010.
10. Abdullayeva Q. va boshq. 2-sinfda o'qish darslari. – T.: O'qituvchi, 2009.
12. Matchonov S. va boshq. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2009.
13. Umarova M., Hakimova Sh. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – T.: Cho'lpon, 2008.
14. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. – T.: O'qituvchi, 2003.
15. Qosimova Q. 2-sinflarda ona tili darslari. – T.: O'qituvchi, 1998.
16. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. – T.: Sharq, 2009.
17. G'afforova T., G'ulomova X. 1-sinfda o'qish darslari. – T.: Sharq, 2003.
18. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. – T.: Cho'lpon, 2013.
19. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2013.
20. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2013.
21. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2005.
23. Axmedov M., Ibragimov R., Abduraxmonova N., Jumayev M. Birinchi sinf matematika darsligi. – T.: Turon-iqbol, 2011.

24. Bikboyeva N.U. Ikkinchi sinf matematika darsligi. – T.: O'qituvchi, 2010.
25. Bikboyeva N.U. Uchinchi sinf matematika darsligi. – T.: O'qituvchi, 2010.
26. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. – T.: Turon-iqbol, 2011.
27. Bikbayeva N.U., Sidelnikova R.I., Adambekova G.A. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. O'rta maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1996.
28. Bikboyeva N.U., Yangiboyeva E.Y. Ikkinchi sinf matematika darsligi. – T.: O'qituvchi, 2011.
29. Bikboyeva N.U. Yangiboyeva E.Y. Uchinchi sinf matematika darsligi. – T.: O'qituvchi, 2011.
30. Jumayev M.E. va boshq. Birinchi sinf matematika daftari. – T.: Turon-Iqbol, 2012.
31. Ta'lim taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi. 7-maxsus son. 1999-yil.
32. Jumayev E.E. Boshlang'ich matematika ma'ruzasi va metodikasi. KHK uchun. – T.: Turon-iqbol, 2011.
33. Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich matematika darslarida tarixiy materiallardan foydalanish. – T.: Uzkomsestr, 2005.
34. Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. TDPU, 2007.
35. Sanaqulov X, Xodiyeva D, Sanaqulova A. Mehnat ta'limi. 2-sinf darsligi. – T.: Nafis bezak, 2012.

36

Internet saytlari:

<http://www.Norma.uz>. O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlar to'plami sayti.

<http://www.pedagog.uz>.

<http://www.ziyo.net.uz>. O'zbekiston Respublikasi ta'lim sayti.

H. Sanakulov, M. Jumayev

**UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABLARIDA BOSHLANG'ICH
TA'LIM FANLARINI O'QITISH
TEXNOLOGIYASI
METODIK QO'LLANMA**

Toshkent - "METHODIST NASHRIYOTI" - 2023

Muharrir: Xolsaidov F. B.

Bosishga 20.06.2023.da ruxsat etildi.
Bichimi 60x90. "Cambria" garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 16. Nashr bosma tabog'i 15,75.
Adadi 50 nusxa.

"METHODIST NASHRIYOTI" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy ko'chasi, 5-uy.



+99893 552-11-21

Nashriyot rozilgisiz chop etish ta'qiqlanadi.

40 000 =

ISBN 978-9943-5825-8-3



9 789943 582583